

Havo nihoyatda dim edi. Osmon yuziga kir choyshab yopilgandek oq bulut qoplagan, quyosh xira fonus kabi zo'rg'a ko'zga tashlanadi. Kuz. So'nggi yaproqlarini to'kayotgan daraxt shoxlari sovqotgan kabi allanechuk diydirab turadi. Zulfizarning yuragi siqilib ketdi. Mashinadan tushgach, chuqur-chuqur nafas oldi, ammo yuragini siqayotgan behalovatlikdan xalos bo'la olmadi, o'pkasining qayB-sidir burchaklariga toza havo yetib bormayotgandek edi. U tezroq uyga yetib borishni istadi. Kelayotganini qiziga aytmay yaxshi qilgan ekan. Hozir uyga kiradiyu, yotadi. Charchog'i yozilgach, ovqat qiladi, Feruz maktabdan qaytgach, Farangizni bog'chadan olib keladi. Qiziga kechga yaqin qo'ng'iroq qiladi: vTbMen keldim, nevaralarim bilan o'tiribmizBk.

Kalit odatdagidan qiyinroq buraldi. Temir eshik vTbshirqvBk etib ochildi.

vTbIye,bular uydami, deyman?vBk hayron bo'lib o'yladi u, bo'sag'adagi besarishta poyabzallarga ko'z tashlarkan. Qizi ham, kuyovi ham bu paytda ishda bo'lishlari kerak edi. vTbTinchlikmikin?!vBk

Qizi kasal bo'lib qolganda ham bir kun ishdan qolmas edi, faqat bolalarining tobi qochgandagina noiloj qolardi.

Yotoqxonadan g'udurlagan ovoz eshitildi. U shoshib eshikni ochdi:

- Sora!

Ag'dar-to'ntar bo'lib yotgan to'shakda ko'zlari ola-kula bo'lgancha shoshib-surinib kiyinishga harakat qilayotgan yarim yalang'och kuyovi bilan Soraning eng yaqin dugonasini sochlari to'zib yotgan holda ko'r-di-yu, turgan joyida toshdek qotib qoldi. Yetmish ikki tomirini kuydirgan alanga kelib tomog'iga tiqilganday bo'ldi, og'zi qurib, tili tangB-layiga yopishib qoldi. Sekingina ortiga burilib, bemador qo'llari bilan devorga suyana-suyana, oshxonaga yo'l oldi: Suv! Bir qultumgina suv...

Chelak turadigan kursi yoniga zo'rg'a yetib bordi. Stoldan piyolani olib, suvga engashgan mahal o'ng yelkasida simillagan og'riq turdi. Og'riq lahzada sayin zo'rayib borardi. U amallab bir ho'plam suv ichdi-da, sekin ortida turgan o'rindiqqa o'tirdi. Og'riq yoyilib, ko'krak tomonga o'tdi va yurakning qaysidir burchagiga joylashib oldi. Ko'p o'tmay yurakda dahshatli og'riq boshlandi. Bu shunday kuchli og'riq ediki, nafas ham ololmay qoldi va gursillab polga yiqildi...

Nashatir spirti va kamfora hidi anqib yotgan xoB-B-nada o'ziga keldi. Toshdek og'ir qovoqlarini zo'rg'a ko'tarib, boshi ustida unga qarab, allaniamalar haqida bahslashayotgan oq xalatlil odamlarni ko'r-di. Ko'ksidagi og'riq nafas olishiga ham yo'l bermas edi.

- O'h, o'lib qolaman hozir!..

- Og'riyaptimi? Tezroq og'riqni qoldirish kerak, morfiy!

Og'riq asta-sekin tarqay boshladi. Peshonasini muzdek ter qopladi. Horg'in vujudini uyqu elitdi. Atrofida g'imir-g'imir qilib yurganlarning ovozlari olislardan kelayotgandek, elas-elas eshitila boshladi. So'ng kimdir kelib, uni tashqariga olib chiqdi. U turgan joy yam-yashil adirlik ekan. Adir tepasida oppoq libosdagi bir kampir goh qo'llarini ko'kka cho'zib, goh peshonasini yerga urib, Ollohga iltijo qilib yotgan emish. Zulfizar bir amallab o'sha tepalikka chiqib bordi. Yovshanlarning shitirlashidanmi, xayoli bo'lingan kampir burilib, unga qaradi. Uning yoshlanib turgan ko'zlari mehrga to'la edi. Kampir uning yoniga kelib, asta yuzlarini siladi:

- Ay, bolam-a! Ovora bo'lgan bolam-a!

Bu uning momosi - Ulkan kampir edi. Uning qo'llari xuddi tiriklik paytlaridagidek loy va tuproqdan tars-tars yorilib ketgan, dag'al, ammo issiqqina edi.

Ulkan kampir uzoq vaqt cho'ntaklarini titkiladi, so'ng uzr so'raganday, unga yuzlandi:

- Senga beray desam, hech narsam yo'q ekan, bolam. Yo'qchilik qursin... Abdurasulim jontalash bo'lib yotganda eshon vTbJonga jon, sadaqa raddi balo. Bir jonliq aytingvBk, dedi. Aytadigan hech vaqoimiz yo'q edi. Ilojsiz turgan paytimda ko'zimga sen ko'rinib ketding. O'shanda qo'lboshdaygina chaqaloq eding. Bir senga, bir yarador sherday ingrab yotgan akangga qaradim.

Nevaralarimning to'ng'ichi, uni otangdan ham ko'proq yaxshi ko'rardim. Yotib qolgan kunidan buyon vTbShuginaning dardini menga berBk deb, Ollohdan so'rab o'tirgandim. Olloh men sho'rni olmadi, peshonangdagi yozug'larni oxirigacha ko'r, dedimi... Eshonning gapidan keyin tishimni tishimga qo'yib, o'rnimdan turdim-u, yo'rgak po'rgaging bilan dast ko'tarib, akangning ustidan aylantirdim:

- Yo, mehribon Ollohim, shu qizning joni akasiga sadaqa bo'lsin. Sadaqamizni qabul qilgin, - dedim.

Ulkan kampir chuqur vTbufvBk tortdi. Qalbidagi anB-duhdan yuzlari qop-qora bo'lib ketdi.

- Ammo Olloh sadaqamni rad qildi. Seni emas, Abdurasulimni olib ketdi. O'shanda seni olib ketganda shunchalar ovora bo'lmasding...

Uning tomoqlari qaqrab ketdi.

Ulkan kampir bo'yniga kumush qo'ng'iroqchalar osilgan chiroyli ko'zachada suv uzatdi:

- Ol, ich, bolam!..

Suv muzdek edi, u yutoqib ichdi, ammo hech chanqog'i bosilmadi. Kampir esa indamay nari ketdi.

- Sen endi dam ol, - dedi ketayotib.

U rostdan ham juda charchagan edi, oyoqlarini oldinga uzatib yubordi, zildek boshini yumshoq maysalar ustiga qo'ydi. Dimog'iga o't-o'lanlarning ajabtovur yoqimli hidi urildi. Bulutlar ortidagi bahor quyoshi ohistagina qizdirayotgan yuzlarini mayin shabada silab o'tdi. U shu alpozda uzoq yotdi, yuz yilmi, ming yilmi...

* * *

Bundan ko'p yillar avval qishloqqa muallim bo'B-lib qaytgan qizidan g'ururlangan Oysulton Ulkan kampirga tana qilgan edi:

- Mana, momojonisi, siz bir zamonlar sadaqa qilgan qizingiz binoyidek muallim bo'lib kelibdi.

Ulkan kampir mahzungina jilmaydi:

- Ha-a, yo'qchilik-da, bolam. Ko'z oldimda jondan aziz nevaram shamdek so'nib borardi. Eshon bobo joniga jon bering, deganlaridan so'ng o'zimni yo'qotib qo'ydim. Xayolimda jonlik so'rab, ming eshikka kirib chiqdim. Uyda o'zimizning dardisar jonimizdan bo'lak hech narsamiz yo'q edi. Eshon bo'lsa vTbo'zingizga aziz biron narsani aytingvBk, deb turibdi. Bir payt ko'zim shu go'dakka tushdi: uch o'g'ildan keyin tilab olgan qizimiz... Shartta o'rnimdan turdim-u...

Oysulton ham o'tgan kunlar yodiga tushib, bir so'B-lish oldi:

- Yo'g'-e, xola, sizdan sira xafa bo'lganim yo'q. Shunda topqirligingizga qoyil qolganman. Keyin... Shu chaqaloq Abdurasulimning o'rniga qolganday qancha payt emizgim kelmay yurdi. Ha-a, nima deysiz, har kim o'z kuniga garov ekan-da...

Bu suhbat Zulfizarni ham ranjitmadi:

- Juda chiroylimidi Abdurasul akam?

- Ha, har yelkasiga bir o'tov tikkudek juda abjir chobog'on edi. Qishloqning bor qizi unga oshiq edi. Qoshi-ko'zlari senikidek lovullab turardi.

- Lekin sendan ming marta esli edi, - Ulkan kampir bu mahzun suhbatning osoyishta maromini buzdi.

- Men nima qildim?- norozi ohangda to'rsayib oldi Zulfizar.

- O'qib, muallim bo'psan, xo'p qibsan. Ammo erkakka o'xshab xo'b sochlaringni kesib tashlaganing nimasi? Qishloqqa yalang oyoqlaringni shirdaytib, to'rt qarich ko'ylak bilan qanday kirib kelganingni hech aqlimga sig'dira olmayapman, ertaga maktabga ham shu ust-boshda bormoqchidirsan hali?

- Nima bo'пти, momo, axir men muallimaman!

- Muallim eldan chiqib ketishi kerakmi, - battar qahrlandi momo. - O'qimishli odam suvdan baB-land,ajriqdan past, hokisor, nima bo'lsa, ko'p bilan, el bilan bo'lishi kerak. Buyog'i urush, qoraxat olmagan uy qolmadi. Ilgari bir uydan o'lik chiqsa, o'n uy v ЁњUrug'im, tomirimv Ёќ deb ko'k kiyar edi. Hozir butun qishloq azador, azador qishloqni oralab shu kiyimda yurishingga sira rozi emasman.

Yolg'izgina o'g'li bilan devday-devday ikki nevarasini urushga jo'natib, na yaxshi, na yomon xabar ololmay o'tirgan kampirga etiroz bildirmoqqa hech kim jurat qila olmadi. Xonaga noxush jimlik cho'kdi. Bir pas o'tib, Zulfizar hovliga chiqdi. Tomida o't-o'lanlar qovjirab yotgan uylari nihoyatda g'aribona, miskin edi, momosi bilan onasiga o'xshab... Agar otasi bilan akalari uyda bo'lganda... Tezroq tugay qolsaydi shu lanati urush!

Zulfizar momosidan qancha norozi bo'lsa ham, ertasi kuni maktabga o'zbekcha ko'ylak-lozimu ro'molida ketdi.

Maktab kolxoz idorasi yonida joylashgan to'rt xonadan iborat ko'rimsizgina bino bo'lib, uning muallimi ham, rahbari ham o'tgan yili urushdan oqsoq bo'lib qaytgan Jo'ra degan yigit edi. Zulfizarni ko'rib suyunib ketdi:

- Yaxshi bo'пти. Anchadan buyon bir muallim yuboringB-lar, deb yurgan edim. Qimirigan jon borki, dalada. Ammo xalqning bolasiga hech bo'lmasa boshlang'ich talimni berishimiz kerak-ku. Bugungi vaziyat, urush vaqtinchalik, ertaga tugaydi. Urushda yo'qotgan yigitlarimiz o'rniga qolgan bolalarni savodsiz qilib ulg'aytirishga sira haqqimiz yo'q.

- Rost.

- Muallimning qo'llarini musht qilib kuyunchakB-lik bilan gapirishi unga yoqdi. Uning ranglari uniqib ketgan kitelidan g'alati hid kelib turardi, qon va ter hidiga o'xshash achimsiq bir hid.

- Hamma yoshdagi bolalarni bir sinfga yig'ib, o'qitib yotgan edim. Endi ularni bo'lib o'qitamiz.

- Xo'p.

Unga eng kichik yoshdagi bolalarni berdi. Anchadan beri ohaklanmagan sinfxona zax va qorong'u, tinimsiz dars qoldiradigan bolalarning ko'pchiligi kasalmand, nimjon, sinfda dars bo'yi yo'tal ovozi tinmas edi. Butun sinf bittagina kitobdan foydalanar, ko'pchilik bolalarda daftar-qalam ham yo'q edi.

Momosiga hasrat qilgan edi:

- Ko'ktosh-da uning davosi. To'rtta ko'ktosh topib, yaxshilab kuydirsanglar, qancha ohak bo'ladi, - dedi Ulkan kampir.

Bolalar bir dunyo ko'ktosh yig'ib kelishdi. O'tin topib, tosh kuydirgan ham o'zlari bo'lishdi. Birgalashib, butun maktabning ichi-sirtini ohaklab tashlashdi.

Jo'ra muallim uni maqtab qo'ydi:

- Sen qizda ajoyib tashkilotchilik qobiliyati bor ekan-ku.

Ko'p o'tmay uni kolxoz idorasiga chaqirishdi:

- Sizni partiyaga qabul qilmoqchimiz. Mahalliy xotin-qizlar orasida ham partiyaga sadoqatli kadrB-larni ko'paytirishimiz kerak. Otasidan qoraxat kelganiga bir oy ham bo'lgani yo'q edi, maktabga kolxoz partiya tashkiloti kotibi borib, ertaga raykomga borishini aytdi.

- Sag'al o'zingga qarab chiq. Raykomdagilar, bizga kimni tavsiya qilayapsizlar, deyishmasin yana, - keta turib qo'shimcha qildi kotib.

Ertasi kuni Zulfizar uydan odmigina kiyinib chiqqan bo'lsa-da, maktabga kelib, qayta kiyinib oldi. Ust-boshini almashtirayotib, xayolan momosining oldida o'zini oqlagan bo'ldi: v ЁњIsh, ish-da, momo. Talab qilishgandan keyin iloj yo'q. Ziyoli odam o'zining tashqi qiyofasini ko'rkam, zamonaviy tutib yurishi zarurat. Ha-a, siz buni qayerdan ham tushunardingiz...v Ёќ

Ammo raykomdagilar uni shunday xayrixohlik bilan kutib olishdiki,qaytishayotganda qoraxat kelgandan buyon tishlarini tizzasidan olmay, jim o'tiradigan bo'lib qolgan momosi yodidan ham chiqib ketdi. Ertalab uydan kiyib chiqqan kiyimlari maktabda qolgan edi, maktabga burilib o'tirmadi. Bu paytda u yerda hech kim bo'lmasligi aniq edi.

Eshikni ochgan zahoti qanday xatoga yo'l qo'rganini tushundi. Ulkan kampir unga bir qaradi-yu, yuzini chetga burdi. Uning bir lahzalik nigohida qahrdan ham ko'ra jirkanish alomatlarini bosimroq edi.

Zulfizar ust-boshini almashtirib, Ulkan kampirning yoniga cho'kdi. Qoq suyak yelkalaridan quchib, so'lg'in terilari osilib yotgan yuzlaridan o'pdi:

- Momo, meni kechiring. Men bugun raykomga bordim. Meni partiyaga qabul qilishdi. U yerga lozim, ro'B-molB-larda borib bo'lmaydi. Idoradan yangicha kiyinib chiqing, deB-yishdi. Shuning uchun, majburiyat tufayli...

Momo indamadi.

Zulfizar hazil bilan momosining arazini yozmoqchi bo'ldi:

- Abdurasulning o'rniga sen o'lib ketsang, yaxshi bo'B-lardi, deng.

Momo yana indamadi. Uning faqat yuragi emas, suyakB-lari ham o't bo'lib yonardi. Abdurasul jon talashib yotganda badavlat bo'lgan ekan, yonida norday o'g'li, birin-ketin bo'yi yetib kelayotgan necha nevarasi bor edi. Mana, o'g'lidan qoraxat keldi.

Mamarasul bilan Mamaraimdan na xat bor, na xabar. Huvullagan uyda uch mushtipar qoldi. O'shanda yuragi butun ekan, shartta o'rnidan turib, yo'rgakdagi go'dakni bemor bolasining boshidan aylantira oldi.Endi-chi? Endi osmon olis, o'g'li va nevaralari jon olib,jon berayotgan joylar undan-da olis.

Kamiga manavi qiz ham dumi yulingan tovuqqa o'xB-shab...

- Momo... - Zulfizar yalinchoq ohangda emranib, momosini qattiqroq quchdi.

Ulkan kampir bir siltanib uni o'zidan itarib tashladi:

- Nariroq tur, dardim sen emas!

Onasi pastki labini tishlab,bosh chayqadi: v ЁњQo'y, kerak emasv Ёќ.

Kechki quyoshning mayin nurlari xonani zo'r-baB-zo'r yoritib turardi. Zulfizar Ulkan kampirning oyoqB-larini quchoqlaganicha

g'ujanak bo'lib poyiga yotib oldi:

- Momo, uch oy avval Manzuraning otasidan ham qora xat kelgan edi. Endi bilishsa, mina portlagan joyda qolib ketgan ekan. Komandirlari uni o'ldiga chiqarib, uylariga qora xat jo'natishgan. U emaklab-emaklab, o'z qismiga yetib olibdi. Hozir gospitalda ekan, xat yozibdi, yaqinda uyga qaytaman, debdi. Momo, bu urush, urushda har narsa bo'lishi mumkin. Men otamning o'lganiga sirayam ishonmayapman, ko'nglim aytib turibdi, erta-indin o'zi kirib keladi.

Ulkan kampir uning sochlarini, yuzini siladi.

Zulfizar burilib, momoning ko'zlariga qaradi. Kampirning xavotir to'la ko'zlarida umid uchqunlari paydo bo'lgandi.

- Bugun raykomda aytishdi, lanati Gitlarning armiyasi orqasiga qaramay qochayotgan emish, tez orada urush ham tugur ekan. G'alaba bilan qaytgan vatandoshlarimizni yorug' yuz bilan kutib olishimiz kerak, endi shuning tayyorgarligini ko'rishimiz lozim, deyishdi. Hali zamon otam bilan akalarim kirib kelishadi. Ana o'shanda bizni qiynab, shunday o'tirganlaringiz uchun afsus qilasiz. Keyin akalarim bu uyni buzib tashlab, katta uy qurishadi. Albatta, ikkovimizga alohida xona bo'ladi, men darsimni qilaman, siz menga qarab o'tirasiz. Sigir olamiz, uni o'zim sog'ib, sizga sut pishirib beraman, qatiq uvitaman, ertalablari qaymoq yeymiz. Akalarim toklarimizni ko'taradi, yoz bo'yi dasturxonimizda uzum bo'ladi. Men mayiz qilish yo'llarini o'rgandim, qish uchun mayiz qilamiz.

Uning yuzlarini silayotgan muzdek kaftlarga asta-sekin harorat inib borardi.

* * *

Palatani allaqanday dorilar va xlorning o'tkir hidi tutib ketgan edi. Zulfizarning nafasi qaytdi, bu holat unga hali tirik ekanligini anglatar edi. U ko'rpa ostidan sekin qo'llarini chiqarib, barmoqlarini bo'yin tomiriga qo'ydi, yuragi hech narsa bo'lmaganday bir tekis urib turardi. Oyoqlarini qimirlatib ko'rdi, ammo tanasining og'irligini umuman sezmedi. U dorilar tasiridan vaznsizlik holatiga tushib qolgan edi.

Shu choq eshik ochilib, qo'lida choynak ko'tarib olgan qizi ko'rindi. Eshikdan xonaga turli xil ovqatlarning yoqimsiz hidi yopirilib kirdi. Uning ko'ngli aynidi. Zulfizarning to'shagidagi harakatni ilg'ab qolgan qiz yugurib boshiga keldi:

- Ona, onajon!..

- Derazani och... - burnini jiyirib o'tindi u.

Qizi shoshib derazani ochdi.

Derazadan yopirilib kirgan musaffo havо xonadagi yoqimsiz hidlarni siqib chiqardi. Palataning dog'-dug' bo'lib ketgan devorlari, sim karovotlar, ilvirab ketgan yuraklar bir zum yoddan chiqdi. Ona va qiz toza havodan to'yib simirdi.

- Onajon, tuzukmisiz? Hammaning yuragini yordingiz-ku, - u yumshoqqina kaftlarini onasining peshonasiga qo'ydi.

- Menga nima bo'ldi?

- Buni siz bilasiz-da, Oftoboyim... - o'pkalandi Sora. - Shunchalik ham bo'ladimi, odam? Borayapman deb, bir og'iz qo'ng'iroq qilib qo'ysangiz bo'lmasmidi? Ko'chada shunday bo'lib qolganingizda nima bo'lardi?

- Shunday bo'lishni bilibmanmi? - Gunohkorona o'tindi.

- Hech holingizga boqmadigiz-da, ona. Ikki marta infarkt o'tkazgan odam bo'lsangiz... Siz yo'lda emas, uyda o'tirganingizda ham hamisha ehtiyot bo'lishingiz lozim. Siz bo'lsa... kuyovingiz telefon qilsa, yuragim yorilib ketishiga bir bahya qoldi. Uyam shoshib qolganidan вЂњTez yordam вЂќ qayerga olib borsa, shu yoqqa ergashib ketaveribdi. O'zimizning doktorimiz bor, shunga olib boringlar, deB-yishni ham eplamagan. Endi qo'zg'atmay turaylik, deyapmiz. Sal o'zingizga kelsangiz, keyin o'zimizning klinikaga olib o'tamiz.

Palataga peshonasidagi sochlari butkul to'kilib ketgan o'rta yoshlardagi doktor bilan hamshira kirdi.

- Sora AnatolCHevna, bemorni charchatayapsiz! - Kulimsirab tanbeh berdi doktor. - O'zi zo'rg'a jahannamning ostonasidan qaytarib keldik. Ammo bamaylixotir bo'lishga hali erta.

Sora indamadi.

Doktor Zulfizarning yoniga kelib, qo'llaridan tutdi:

- Xo'sh, opajon, ahvollaringiz yaxshimi?

- Shukur...

- Yuragingiz o'zini eslatib yana erkalik qilmayapB-timi?

- Sag'al... Ammo kechagiday emas.

- Yaxshi. Hozir yana ukol qilib qo'yishadi, bu ukol uxlatadi. Uxlab, dam oling. Ayni paytda sizga hech kimning hamdardligi, achinishi yordam bermaydi. Ko'zlaringizni yumib, qimirlamasdan yoting, faqat yaxshi narsalarni o'ylang, hech kim bilan gaplashmang.

U Zulfizarning qo'llarini ohistagina to'shak ustiga qo'yib, Soraga yuzlandi:

- Sora AnatolCHevna, iltimos, bu kishi onangiz ekanliklarini bir muddat yoddan chiqaring. Bu kishi bemor, siz shifokor, munosabatlar ham shu tushuncha doirasida bo'lishi kerak. Tashqarida o'n-o'n besh odam turibdi, biri qo'yib, biri ichkariga kirishni so'raydi. Iltimos, shularga javob berib yuboring. Siz bilan bizga xalaqit berishmasin.

- Xo'p, doktor!

Zulfizar guruchi suv ko'tarmaydigan qizining o'zi tengi bir shifokor, ehtimol ilmiy darajasi undan ham pastroqdir, berayotgan tanbeh va ko'rsatmalarni indamaygina qabul qilishidan bildi-ki, ahvoli juda jiddiy.

* * *

Shu kun tongni Zulfizar uyg'otdi. Kech yotgan bo'lib-lishiga qaramay, juda erta uyg'ondi. To'shakdan asta sirg'alib turib, hovliga chiqdi. Bobotog' ortidan sekin tong yorishib kelardi. Yangi tong qo'ng'ir tuman orasida asta tarqalib borardi. Osmon etagida yolg'iz miltillab turgan yulduzga qarab, otasi va akalarini o'yladi. Uni ham shu yulduz kabi yolg'iz tashlab ketishdi... Qulog'iga qayerdandir yo'qlov eshitildi. Yo'qlovga diqqat bilan quloq solib, bu ovoz yuragidan chiqayotganini angladi. Dahshatga tushdi. Ajab bu yo'qlov uning qalbida hozir uvillay boshladimikin yoki azaldan bormidi? Qachon, qachon uning qalbi o'ziga aza ocha boshladiykin, qachon? Yo balki eng boshidanoq, huv o'sha damlardanoq bu yuragi unga nimalardir deb tavallo etgandir? Axir doim aqliga quloq tutib ish qildi, boshqalardan bir kalla bo'lsa ham baland, bir qadam bo'lsada ilgari yurdi. O'sha paytlar uning mana hozir ich-ichidan elas-elas sas kabi yo'qlayotgan, unimi yo o'zinimi ko'mayotgan qalbiga quloq solguday edimi? Endi nega buncha bo'zladi bu yurak? Og'riqdan... bari og'riqdan bo'lishi kerak... Lekin baribir nega kelib-kelib shu bugunga kelib-birinma

birin, xuddiki uni mahv etmoqqa qasd etgan lak-lak beshafqat qo'shin kabi umrining har bir lahzasi, har oni dabdurdustdan, shovullab, shuvillab ko'z o'ngidan o'ta boshladi? Tushiga kirgan momosi-chi? Go'dak emas-ku, ona qolib, ota qolib momojonga talpingudek... O'zi momo bo'lsa, nevaralari, qizi, o'g'li... Ufff... bu yana kim bo'ldi? Iye, kotibmi?

Ha, o'sha kun... O'sha kuni ham kotib kelib, ertaga raykomga borishlarini aytib ketdi:

- Nomzodlikdan haqiqiy azolikka o'tasan. Idorada bo'laman, ertaroq kel. Soat to'qqizda byuro, piyodaga ancha yo'l, - ketayotib oldingidek qo'shimcha qildi: - Ust-boshingga ham qara.

Bu gapdan direktorning g'ashi keldi:

- Odamning bahosini kiyim-boshiga qarab berB-mayB-dilar-ku.

- To'g'ri, Jo'ra muallim, siz ko'p narsani bilasiz. Ammo, yana bir narsani bilib qo'ysangiz, ziyon qilmaydi. Yani ziyoli kommunist tashqi qiyofasi bilan ham oddiy cho'pondan farq qilib turishi kerak.

Direktor kotibning gaplarini oxirigacha eshitib ham o'tirmadi. Qo'l siltab xonadan chiqib ketdi. Unga Zulfizarni partiyaga o'tkazayapmiz, deb, yig'ilishma-yig'ilish sudrayverishlari sira yoqmasdi. Buni u yashirib ham o'tirmaydi.

Hatto Zulfizarning o'ziga ham aytdi:

- Sen juda yaxshi muallimasan. Birovning bolasini shuncha yaxshi ko'rib, qalbining qo'rini berib, saboq o'tish hammaning ham qo'lidan kelavermaydi. Yaxshi muallim bo'lish uchun esa kommunist bo'lish umuman shart emas.

Yangi o'quv yilidan uchinchi muallim bo'lib, ularga qo'shilgan Xadicha ham Jo'ra muallimning fikrini maqulladi:

- Rostdan ham yaxshi muallim bo'lish uchun partiyaga kirish shart emas. Menimcha, ko'proq mansabga intilgan odamlar partiyaga o'tishadi.

O'ziga ham fikr topilgani ham direktorni tinchitmad:

- O'quvchilarni yaxshi bir muallimdan ayirishayotganliklariga ko'zim yetib turibdi.

Bu gaplar Zulfizarning ham kayfiyatini buzdi.

Partiya azosi bo'lish har qancha oliymaqom bo'lmasin, yonidagi hamkasblari shunday deb turgach, odamga xursandchilik tatirmidi?

Zulfizar bu gapni kotibga aytdi, u jiB-g'ibiyron bo'lib ketdi:

- Bo'lmasa, partiyaga kimni o'tkazish kerak? Partiya saflari sendek jonkuyar, o'z ishining ustasi, fidoyi kadrlar bilan mustahkamlanmasa, u qanday qilib qudratli bo'ladi? Qanday qilib g'oyalimizni oddiy insonlar qalbiga, ongiga singdiramiz. Bu g'oyalarni bir rus ayoli kelib, bizning qishloq xotin-qizlariga tushuntirsa, u har qancha bilimdon bo'lmasin, qabul qildirish juda qiyin kechadi. Ammo o'sha gaplarni o'z hamqishlog'i aytsa, osongina qabul qiladi. Shu oddiygina haqiqatni tushunish shunchalar qiyinmi? Frontdan qon kechib qaytgan deyman, bo'lmasa, o'zim bilardim uni nima qilishni!

...Tong yorishgach, Zulfizar dahlizda o'tirib, kotib bergan kitoblarni bir-bir varaqladi. Kiyindi, o'qishdan qaytgandan buyon ancha o'sib qolgan sochlarini silliqqina qilib tarab, orqasiga bir o'rim qilib o'rib qo'ydi, bilakdek zulf nozik belida qulf urdi.

Xudoga shukrki, unga oson-oson savollar berishdi. U gapirayotganda byuro azolarining unga havas va mehr bilan qarab turishlari uni yanada biyron qilib yubordi. Ayniqsa rus tilini o'rganib, bolalarga rus tilidan ham dars berayotganini ular juda maqullashdi.

- Siz endi qiz bola ekanligingizni unuting. Siz endi partiyaning askarisiz. Partiya lozim ko'rgan jabhada ishlashga doimo tayyor bo'ling, - dedi byurodan so'ng suhbatga chaqirgan bir kishi. - Bazan ishingizdan tashqari topshiriqlar berilsa, vijdonan bajaring. Bu sizning kommunistik burchingiz.

- U juda katta odam, - deb tushuntirdi kotib tashqariga chiqishgach, - Kadrlar bo'yicha hamma masalalarni shu odam hal qiladi.

Ana, sen ham nazarga tushding.

Tong sahardan turib, qishloqdan tuman markazigacha, u yoqdan qishloqqacha poyi-piyoda kelib, kun bo'yi oyoqda tik turgan bo'lsa ham uchib kelayotgan Zulfizar qishloqqa kirgach, g'alati bo'lib ketdi. Avval oldilaridan pochtachi Salim cho'loq chiqdi.

Xuddi ko'rmaganday salomiga ham alik olmasdan yuzini teskari burib o'tdi. So'ng... Qayerdandir uvillagan yo'qlov ovozi eshitildi. Kuniga necha uy azaxonaga aylanib, qishloqning har burchida yo'qlov aytilib yotgan bo'lsa-da, negadir uning yuragi в Ъњshuvb Ъќ etib ketdi. Shoshib uylari tomon yugurdi.

- Voy, bolam, ko'zimning nuri, bolam,

Belimning quvvati, qalbinning qo'ri, bolam.

Endi nima qilaman...

Boshimni qay toshlarga urayin,

Mozoringni qayerlardan izlayin,

Oting o'chsin, urush, otginang o'chsin!..

Mushtdekkina boshini qattiq yerga urib faryod chekayotgan baxtsiz ayol uning onasi edi. Ranglari murdanikiday oqarib ketgan momosi hamon qoqsuyak oyoqlarini mahkam quchoqlagan tizzasini tishlab o'tirardi. Uning nursiz ko'zlaridan yoshlar shashqator bo'lib quyilar, ammo u shu qadar bemajol yoki beetibor edimi, bu yoshlarni artib ham qo'ymasdi.

O'qdek uchib kirgan Zulfizar titrab-qaqshab onasini quchoqlab oldi:

- Enajon, kim? Nima?! Nega bunday o'tiribsizlar? - O'zi ham ularga qo'shilib, yig'lay boshladi.

- Akang, qizim, akajoning! Mamarasuldan ajralib qoldik. Endi nima qilamiz, bolam!

Oradan hafta o'tib, Ulkan kampir ham omonatini topshirdi. Yu'vib, kafanlagani kirganlar momoga ko'p achinishdi:

- Ikki tizzasini ham momotaloq bo'lib ketgan ekan, yuvib bo'lganimizdan keyin ham ko'zlaridan oqqan yoshni ko'rdik. Sho'rlik, chin dunyoga yig'lab ketdi.

Uyning nim qorong'u burchagida bir og'iz ham gapirmasdan o'tirsa ham shu musibatli kunlarda Ulkan kampir oila uchun ulkan qoya bo'lgani o'tirgan o'rni bo'shab qolgandan keyin bilindi.

Momosi bor edi, umrlarida ko'rmagan allaqaysi yurtlarda yurgan bo'lsalar ham, otasi, akalari bor edi. Birin-ketin kelgan uch judolik yuraklariga beadog' og'riq va qo'rquv soldi. Hovlida bir xazon shitirlasa ham Zulfizarning yuragi qinidan chiqib ketguday bo'lardi.

Shu og'ir kunlarda Xadicha uning yonidan ketmadi. Tushgacha maktabga borib kelar, so'ng namozshom tushguncha ularnikida o'tirardi.

Bir kuni yorinchoqda makkajo'xori maydalatib qaytayotganda Jo'ra muallimdan gap ochdi:

- Jo'ra aka juda yaxshi odam, har kuni seni so'raydi. Erkak-da, yoningga kelolmasa... Lekin o'zini qo'yarga joy topa olmay yuribdi. Zulfizar indamadi.

- U seni yaxshi ko'radi, - bir pasdan keyin qo'shimcha qildi Xadicha.

Buni Zulfizar yaxshi bilardi, ammo ming yaxshi odam bo'lsa ham yil o'n ikki oy rangi o'chib ketgan harbiy kiyimda bir oyog'ini sudrab yuradigan Jo'ra muallimni hech qachon o'ziga munosib ko'rmasdi. Erta-indin urush tugaydi. Otasi, akalari qaytib keladi. To'kin-sochin, yaxshi kunlar boshlanadi. Ular shaharga ko'chib ketishadi. Zulfizar baxtini o'sha yoqlardan topadi.

- Hoy, eshityapsanmi? - Xadicha uni uyg'otmoqchi bo'lganday turtdi.

- Ha.

- U seni yaxshi ko'radi, - takrorladi Xadicha.

- Nima bo'пти?

- Unga turmushga chiqishingni istayapti. Agar rozi bo'lsa, sovchi qo'yaman, dedi. Mana shu og'ir kunlarda otang va akalaring kelguncha boshlaringda bir erkak kishi bo'lgani yaxshi-da. A, nima deysan?

- Qo'ysang-chi!

- Unday dema, Zulfizar! - yalinishga tushdi Xadicha. - Unga judayam rahmim keladi. Sog'lig'i yo'q, onasi ham o'tib ketdi, bir uyda bir o'zi yashaydi.

- Rahming kelayotgan bo'lsa, o'zing teg! U mening tengim emas, - ijirg'andi Zulfizar.

- Jon deb tegar edim, u bebaho inson, lekin u meni emas, seni so'rayapti.

- Qo'y shuni!..

Jo'ra muallim baribir odam qo'ydi. Sovchilari quB-ruq qaytgach, o'zi ko'ngil yordi:

- Urushdan quruq suratim qaytgan edi. Hali hayoB-tida biron qizning qo'lini ham ushlab ko'rmagan, qalbi orzularga to'la ne bir yigitlarning parcha-parcha bo'B-lib, yuzlab bo'laklarga bo'linib ketganini ko'rdim. Bu bo'laklarni yig'ib, dafn qilishning ham iloji yo'q edi. Bunga hech kimning vaqti ham yo'q edi. Meni ortga qaytarishdi, ammo men o'sha qirg'inbarotlar hamon davom etayotganini yaxshi bilaman. O'qlarning vizillab uchgan ovozlari, bomba portlashlari, askar yigitlarning ingrashlari quloqlarimning ostidan sira ketmaydi. Shu holda odamzod nimagadir qiziqishi mumkinmi? Yo'q, albatta. Ammo, ishonsang, sen meni o'sha tubsiz chohdan yuqoriga olib chiqding, meni hayotga qaytarding. Seni yaxshi ko'rib qoldim. Agar yo'q desang... Yo'q, men buni ko'tara olmayman. Xo'p, degin. Ishon, bir umr boshimda ko'tarib yuraman.

Qarshisida yalang'och novdadek qaltirab turgan yigitga nisbatan ko'nglida zarracha rag'bat tuymadi. Uning diydasi qattiq edi.

- Meni kechiring, Jo'ra aka. Men hali o'qiB-moqB-chiB-man.

- Birga o'qiymiz.

- Yo'q, buning iloji yo'q, - u shartta o'rnidan turib, xonadan chiqib ketdi. Achchig'i keldi. B-ЎHar kim o'z tengini bilsa ekan! Endi Zulfizar kelib-kelib, shu cho'loqqa... Yo, tavba-ey! B-Ўk

Shundan keyin ham Xadicha ko'p qistadi:

- Buncha toshbag'ir bo'lmasang? Yurishini qara, adoB-yi tamom bo'ldi, sho'rlik.

Ammo o'zi Zulfizarni boshqa bezovta qilmadi.

Urush tugab, maktabga yangi muallimlar kelgach, u tuman markazidagi maktablarning biriga oddiy o'qituvchi bo'lib o'tib ketdi.

Zulfizar yelkasidan yuk tushganday yengil nafas oldi.

Xadicha xafa bo'ldi:

- Men uni yaxshi ko'rardim, - dedi bir kuni kutilmaganda.

Zulfizar hayron bo'ldi:

- Meni unga ko'ndirmoqchi bo'lib, shuncha asabimni buzganlarning til uchida ekan-da...

- Men uni hamisha yaxshi ko'rganman. Unga teg, unga rahm qil, deb senga yalinib yurgan paytlarimda ham yaxshi ko'rganman.

O'sha ter va qon hidi singib ketgan kitelini joynamoz qilishga tayyorman hamisha. Uni yaxshi ko'rganimdan, unga rahmim kelganidan, uning baxtli bo'lishini juda-juda istaganimdan yalinganman senga. Kim bilan bo'lsa ham mayli, baxtli bo'lsin shu yigit, dedim.

- Endi-chi?

- Endi... Bilmadim, bu yog'i nima bo'ladi? Yuragidagi yaralar bitgach, uchrashib qolsak, agar ungacha birov-yarim chaqqonoylar ilib ketmasa, hammasini o'zim aytaman.

- Obbo sen-ey! Ko'ngling ketgan oshni maqtab birovlariga tavsiya qilib yurishingning manisi nima? Xuddi o'zing endi o'n yetti yoshga kirgan pari-paykarsan. Hali sening qo'lingni so'rab, Boychibor mingan necha Alpomishlar keladi. Lekin sen paysalga solib, kechikib qolma, o'zingni ham o'yla.

* * *

Zulfizar yarim tunda uyg'onib ketdi. Vaqtini bilish uchun avval atrofga, so'ng o'yning zaifgina nurlari sizib kirayotgan derazaga qaradi. Qarshidagi karavotda qizi uxlardi. U bir muddat qiziga tikilib qoldi. Begona to'shak noqulayligidanmi, u bir pasda bir necha bor ag'darilib oldi. Zulfizar uni rostdan ham juda erka o'stirgan, hayotida biron noqulaylik bo'lmasligiga harakat qilgan.

Endi!.. E-e, xudo, avloddan avlodga boylik meros bo'lib o'tishini, xastalik o'tishini bilardi, ammo baxtsiz qismat ham meros bo'lishini bilmagan ekan. Agar shunday bo'lmaganda Zulfizarning taqdiri qizida takrorlanishi shartmi? Bir zamonlar o'zi taqdirning talxo'r nasibasini tatib ko'rganda bunchalar ezilmagan edi, ammo qizining ag'dar-to'ntar bo'lib yotgan to'shagi uning hayotini izdan chiqarib yubordi, xuddi poyezd relCHsdan chiqib ketganday... Erini yarim tunda o'ynashiga qo'shib haydaganda o'ziga o'zi tasalli bera olgan edi: B-ЎBir kam dunyo, deganlari rost. Mening kamim shu er bo'la qolsin, eng muhimi, jonim sog', bolalarim bag'rimda. Tirik va salomat bo'lsang, baxt, omad, boylik o'zi seni izlab topaveradi B-Ўk.

Garchi keyinchalik hayoti bekamu-ko'st baxtga to'lib o'tmagan bo'lsada, ersiz qolganiga sira afsuslanmadi.

Ertalab Sora uni uyg'oq holda ko'rib, suyunib ketdi. Nam sochiq bilan yuz-qo'llarini artib, ovqatlantirgach, xonaga bir qizni boshlab keldi:

- Onajon, bu qiz mening shogirdim, ilmiy ish qilyapti. Juda bilimli, ziyrak qiz. Meni bir zarur masala bo'yicha klinikaga chaqirishayapti. Shunday boraman-u, qaytaman. Bu qiz men kelguncha sizga qarab turadi, - so'ng qizga tayinladi. - Doktor bilan hamshiralardan tashqari hech kim kirmasin.

- Bu qizni tashvishga qo'ymagin, bolam. Ahvolim yaxshi, o'zim yotaveraman, - xijolat bo'ldi Zulfizar. - Kelguningcha shu yerning doktorlari qarab turishar...

- Yo'q, ona, sizni shunday tashlab, xotirjam keta olmayman. Yoningizda o'zim bo'lmasam ham, o'zimning ishongan odamim turishi

kerak.

Hamshira ukol qilib ketgach, endi ko'zi ilinayotgan edi, eshik v Ъњg'iyqв Ъќ etib ochilgani eshitildi. Zulfizar negadir xavotirlanib eshikka qaradi. Ostonada uzoq xastalikdan turgan bemordek ranglari so'lg'in, qarashlari hadik-xavotirga to'la G'anisher turardi.

- Assalomu alaykum.

Shogird qiz o'rnidan turib, bir G'anisherga, bir bemorga qarab qoldi. G'anisher uning nigohlaridagi ikkilanishni sezib, izoh berdi:

- Siz bir aylanib keling, bu kishiga o'zim qarab turaman.

Qiz bir daqiqa hayallab turdi-da, so'ng indamay chiqib ketdi. Nima ham desin, kuyov bo'lsa.

G'anisher uning qarshisidagi kursiga o'tirdi:

- Meni kechiring.

Boshqa payt bo'lganda yuziga bir shapaloq tushirardi. Hozir buning iloji yo'q. U indamay yuzini devor tomonga o'girib oldi.

- To'g'ri, ichingizda qarg'ayotgandirsiz, turqing qo'rB-sin sen itning, deytogandirsiz? Lekin bu siz o'yB-laganchalik itlik emas.

Bilsangiz, ahvolingizni ko'rib, o'zimning ham bo'larim bo'ldi. Sizga bir gap bo'IB-ganda, o'zimni kechirolmadim...

- O'sha v Ъњbir gapв Ъќ bo'la qomapti-da, - shartta uning gapini kesdi Zulfizar, ammo o'z ovozingning xastaligiga qaramay bunday keskir chiqqanidan o'zi ham hayron qoldi.

Kuyoviga nafrati shunchalik kuchaygan ekanki, bor alami kuch bo'lib bo'g'zidan otildi go'yo.

- Aslida bu shunchaki tasodif emas. Men duch kelgan xotinga yopishib yuradiganlardanam, uyimga, to'shagimga har kimni sudrab keladiganlardan ham emasman. Lekin baribir bir narsani tan olishim kerak. Anchadan buyon ketmoqchi bo'lib yurgan edim. Hech jazm qila olmayotgandim. Oxiri ketsam, avvalroq ketishim kerak ekan, sizni infarkt oldirmay...

- ...

- Nega ketmoqchi eding, demaysizmi?

Uning miq etmaganidan nimagadir battar qizishdi indamas kuyovi, so'ng qirq qayta qaytarib, yod olgandek dedi:

- Qizingiz meni hech qachon yaxshi ko'rmagan!

Zulfizar ikki chakkasidagi tomirlari gup-gup lo'PB-qillay boshlaganini sezdi: gapini qarang buning? Shu yoshida v Ъњsevdi-sevmadiв Ъќ esiga tushibdi-da, orada ikki bola tug'ilib, bo'yi bo'ying bilan teng bo'lib qolganda-ya?

Jirkanib, yuzini ters o'girdi. Ammo ichidan nimadir baribir kuyoviga nisbatan bu qadar beshafqat bo'lmaslikka undab turardi. Har ne bo'lganda ham o'g'lidan-da mehriboni shu edi, bolasining ortidan bolasidek... Uning ichidan kechayotgan xavfli xayollarni sezgandek G'anisher ham dadillik bilan gapida davom etdi:

- Menimcha, u pul, mol-dunyo, shon-shuhratdan boshqa hech narsani yaxshi ko'ra olmasa kerak. Uylangan kunimdan buyon ko'proq pul topay, tezroq ilmiy ishimni yoqlay, nomzod bo'lay, doktor bo'lay, degan tashvishlar bilan yashab kelayapti.

Bolalarning oldida ham o'rnim yo'q. Qo'shninikiga chiqish uchun ham onasidan ruxsat so'raydi. Shu payt yonginasida o'tirgan ota esa ular uchun bir jonli haykaldan boshqa narsa emas. Albatta-da, uy onaniki, mashinani ona olgan, ona haydaydi, ona og'zilaridan chiqqan har bir istakni muhayyo qiladi. Bu yoqdan siz, u yoqdan bobolari to'lib-toshib keladi. Mening ota-onamda duo bilan mehrdan bo'lak hech narsa yo'q. O'zim shuncha yildan beri ilmiy ishimni yoqlay olmay sarsonman. Maoshim tushligim bilan yo'l kiramni zo'rg'a qoplaydi. Bu uyda doimo keraksiz buyumdek his qilaman o'zimni.

U ancha payt jim qoldi. Bu orada Zulfizar o'ylardi: indamaygina shuncha gapni ichiga yutib yurgan ekan-da, g'alcha. U bir umr shu g'alcha erkaklarni yomon ko'rди. Ilk bor turmushga chiqqanida shu saboq bo'lmaganmidi? Aynan mana shunday muloyim supurgi erlar bir kun kelib albatta tuzlig'ingga tupurmay qo'ymaydilar. Yana ketar chog'i hamma aybni o'zingga yuklab, qoraga chaplab tashlaydi. O'zlari esa paxtadek oq. Axir qilgani ham, eng yaxshi ko'rgani ham shu qizi bo'ldi. Chunki qizning o'zi shunga arziydi. Unga o'xshab adashmadi, o'zi sevdi, o'zi tegdi va... endi faqat o'zi kuyishi kerakmi? U ona bo'lib indamay bir chetda qarab turaversinmi? Qizini so'raguvchilar ko'p bo'ldi. O'zi bir qiz, husni o'n qiz edi-da Soraning. Hozir ham ko'rgan ko'zni kuydirgudek. Ammo negadir biroz erkakchasingami-ey fikrlaydi. Eri-xotin ajralib ketishsa ham, Sora bir zum ota etiboridan chetda qolmadi, erka, dangalroq bo'lib o'sdi. Shu lapashang eriga ham oyoq tirab turib olgani uchun ham uzatishgandi. Buning nimasini sevib qolgan ekan: shu aqli, shu husni bilan?! Bu sho'rtumshug'am sho'r-sho'rlab turib oldi-da. O'shanda ota-onasining kambag'alligini o'ylaganmidi? Shu qiz menga loyiqmi o'zi deganmidi? Oralaridagi farqni, tafovutni endi bilibdilar-da? Oltin baliqchasi joniga tegibdi-da? Zulfizar o'zini bu o'ylardan har qanB-B-B-cha tiyishga harakat qilmasin, yaralangan ona sher kabi farzandining kuyiga ana shunday alamlı o'ylar faryodi bo'lib bo'g'zini qo'rg'ab, sannab tashlashdan tiyib turardi. Umuman, nimayam deb qarg'asin? O'ta madaniyatli bo'lishning shunisi yomon-da, g'azabing bostirib kelganda ham tilingni tishlab turaverasan, ancha payt jim bo'lib qolgan kuyov yana xijolatli tomoq qirdi. Eng muhim gapni aytish uchun taraddudlanayotgan edi chamasi. Nihoyat yorildi:

- Meni kechiring, nazarimda men o'z muhabbatimni topgandayman. U hayotini mensiz tasavvur qila olmaydi. U xuddi onamga o'xshaydi, meni tushunadi, meni ayaydi. Men unga uylanishga qaror qildim. Sizdan yagona iltimosim, Soraga hech narsa demang. Davolanib chiqqaningizdan so'ng o'zim aytaman.

Har nima bo'lganda ham Zulfizar xiyonatkor kuyovdan bunday ayblov va keskin qarorni kutmagan edi. Agar G'anisher u o'ylaganday kalovlanib o'zini oqlaganda ehtimol hali beri jahlidan tushmagan bo'lardi. O'zicha bu og'riqli tishni qizining hayotidan qanday qilib og'riqsiz holda olib tashlash rejasini topa olmay yotgandi. Ammo kuyovning kutilmagan qarori uni shoshirib qo'ydi. Nazarida qizi, nevalari katta shaharda yolg'iz, beqarov qolganday qo'rqib ketdi. U qoshlarini chimirib, ijrg'anganday kinoya bilan G'anisherga qaradi:

- O'zingizning nafsingiz, hoyu havaslaringiz uchun bolalaringizning ko'nglini yarimta qilib ketB-moqB-chimisiz?

- Bolalarning ko'nglida mendek otaga umuman ehB-tiyoj yo'q.

- Siz shunday deb o'ylaysiz, yani siz qanday o'ylasangiz, shunday ko'rasiz. Ehtimol hozir ularning siz bilan umuman ishlari bo'lmayotgandir. Ular hali bola-ku. Ular uchun o'z tashvishlari, o'z dunyolaridan bo'lak hech narsaning qizig'i yo'q. Ammo tashlab ketsangiz, aniq, bo'shab qolgan o'rningizga qarab v Ъњdodв Ъќ deb yuborishadi. Ana shunda, ularga juda kerakligingizni bilgan daqiqalarda ortingizga qayta olasizmi? Balki ungacha bu oilada ham v Ъњotav Ъќ deb etagingizga yopishguvchi begunoh farzandlar dunyoga kelar. Ana shunda nima qilasiz?

Zulfizar tabiatan juda yaxshi notiq edi. Istasa, go'dakdek begunoh odamni ham, shaytonga dars berguvchi tovlamachini ham o'z yo'rig'iga sola olar, shu istedodi bilan ishlab yurgan paytlari necha yuzlab ro'zg'orlarni saqlab qolgan edi. Osmondan kelayotgan kuyov uning gaplaridan keyin jim bo'lib qoldi.

Eshikdan kirib kelgan doktor o'rtadagi yoqimsiz suhbatga nuqta qo'ydi:

- Iye, Sora AnatolCHevna qayerda? Siz kimsiz, sizni palataga kim kirgizdi? - chinakamiga urishib ketdi u.

- Men kuyovlariman. Qarab turgandim...

- Sora AnatolCHevna shifokor bo'lgani uchun bemorning yonida bo'lishiga ruxsat berganmiz, bo'lmasa, o'zimizda ham qarovchilar yetarli. Boya hamshira ukol qilgan edi, siz tufayli bemor uxlayolmay karaxt bo'lib yotibdi. Qani, tez chiqing palatadan.

G'anisher palataga qanday mardonovar kirib kelgan, shunday uchib chiqib ketdi. O'zini beobro' qilib haydab chiqargan doktordan minnatdor bo'ldi. Agar shu doktor kirib kelmaganida, kim biladi, bu qaynonasi...

* * *

Nihoyat yig'lab-yupanib g'alaba kunlariga ham yetib kelishdi. Hammaning tinka-madorini quritgan urush tugadi. Hayotlarida biron o'zgarish yuz bermagan bo'lsa-da, hammaning kayfi chog', xuddi shaxsan o'zi Reyxstagga g'alaba bayrog'ini qadab qaytgandek mamnun edi.

Bundan besh yil avval mashinalarni to'ldirib-to'ldirib, urushga ketgan yigitlar endi birin-sirin, bugun birov, erta yana kimdir, indin hech kim, kutayotgan odamlar ziq bo'la boshlaganda yelkasiga yuk xalta osib olgan, horg'in ko'zlari sog'inchga to'la yana kimdir qishloqqa kirib kelardi.

Qishloq chetidan o'tgan kichkinagina ariq ko'pB-rigidan tuman markaziga eltuvchi uzun yaydoq yo'l tomon keskin burilish bo'lib, shu tufayli ko'prikdan o'tib qaralmasa, bu uzun yo'ldan qishloqqa kelayotgan odamni ko'rib bo'lmasdi. Qishloq qariyalari ko'prik ortidagi tollar soyasidan o'zlariga joy qilib olishdi. Kim bir parcha sholcha, kim janda ko'rpacha, kim eski bir jabduq olib chiqib, erta tongdan qora kechgacha shu yerda o'tirishni odat qildi. Qishloqqa qaytgan askarlarning birinchi suhbatini ana shu qariyalarga nasib qilar, birov-yarim kelib qolsa, ularning atrofida tuproq chagitib yurgan bolakaylar darhol cho'p otlarini minib, askarning uyidan suyunchi olgani chopishar edi. Sog'inchga aylangan umidvor qishloq qiyqirib kelayotgan bolalarni ko'rganda quvonchdan bir qalqib ketganday bo'lardi. Hamma kutardi. Urushning birinchi kunlaridanoq qora xat olib, besh yildan beri azalik kiyimini yechmaganlar ham, necha vaqtlardan buyon na yaxshi, na yomon xabar olmaganlar ham, urushga bergudek hech kimi bo'lmay, urushga hech kimini bermaganlar ham-hamma butun vujudi bilan yo'lga qarardi.

Mamaraim g'alabadan rosa bir yil o'tgach, uyga qaytdi. U qaytguncha Zulfizar qishloqning katta odamiga aylangan, uni maktab direktori qilib tayinlashgan edi. Oysulton xola o'g'lini bag'riga bosib turib, hushini yo'qotdi. Yo'qotishlar, yo'qchiliklar, zoriqib yo'l qarashlar uni butunlay holdan toydirgan edi. Haliyam ko'nglidagi вЂњmiltвЂќ etgan umid unga matonat bag'ishlab, o'g'liga ro'baro' kelguncha oyog'ida tura olishiga sabab bo'ldi.

Uy bir pasda qo'ni-qo'shni, qarindosh-urug' bilan to'lib ketdi. Xotin-xalaj qiy-chuv qilib, Oysulton xolaning yuziga suv sepa-sepa o'ziga keltirib olishdi.

Oqshom cho'kib, keldi-ketdi uzilgach, uyda ona-bolalar yolg'iz qolishdi. Zulfizar yelib-yugurib hamma joyni tartibga keltirdi.

Hovliga sholcha to'shab, sholchaning girdini aylantirib ko'rpachalar soldi. Qishloq oqshomi juda go'zal edi. Ayniqsa, aziz odamlarning yoningda bo'lsa, bu go'zallik yanada to'laqonli va zavqli bo'ladi.

Zulfizar qancha o'ktam qiz bo'lsa ham akasidan tortinib turar, ko'nglining qaysidir burchida вЂњrostdan ham shu odam mening akammikin?вЂќ degan xavotir sira ketmasdi. Sababi, akasi urushga ketayotganda juda yosh, ustki lablarini endigina mayin tuk qoplagan o'spirin edi. Bugun ko'rpachaga oyoqlarini uzatgancha, yonboshlab olgan kishining ovozlari ham, qarashlari ham ular kuzatgan o'sha o'spiringa zarracha o'xshamas edi. Faqat u yodga solayotgan xotiralar, sog'inch va mehr to'la nigohlar вЂњMen sening akangmanвЂќ deb turardi. Uning oldida Zulfizar yana o'zini yosh qizaloqdek his qilardi:

- Agar ko'chada qarshimdan chiqib qolsangiz, men sizni umuman tanimas edim, - nihoyat ko'nglidagini aytib qo'ya qoldi u.

- Sen ham ancha ulg'ayibsan. Bekor yurmay, o'qib olibsan, barakalla, - so'ng kulib qo'shimcha qildi: - Direktor bo'libsan.

- Nomiga direktorman-da. O'zi to'rt kishi ishlaymiz. Men ham hamma qatori dars beraman, faqat javobgarligi ziyoda.

- Shuyam katta gap-da.

- Meni viloyatdan o'qishga yuborishmoqchi edi, onam yolg'iz deb, keta olmadim. Mana, endi siz borsiz, o'qishga boraversam ham bo'laveradi.

- Bo'ladi, singlim, - mamnun bosh irg'adi aka. - Shuncha payt onamga qarab, ro'zg'orni eplab o'tirding, rahmat senga, buyog'iga o'zimga tashla hammasini.

Bolalariga termilib, jimgina yotgan Oysulton xola aka-singilning mehribonligidan, o'g'lining jo'mardB-ligidan xursand kulimsiradi:

- Sen buni ko'p taltaytirma. Tog'anglar вЂњakasi kelsinвЂќ deb yurishgandi. Endi qirq ming qalin, qirq qo'y olamiz-da, uzatib yuboramiz.

- Bekorginani aytibsiz, men sizga molmidimki, sotsangiz.

- Udum-da, meni ham sotishgan, endi seni sotamiz, akangga ham birovni sotib olib beramiz, - battar jig'iga tegardi onasi.

- Ona, bunday xunuk gapni hazil qilib ham aytmang, iltimos. Odamni sotishmaydi-ku axir, hech qachon sotishmagan ham. Besh-to'rt so'm qalin puli berishsa, shuniyam qizining ro'zg'origa nimadir qilib jo'natgan. Sotadi, deB-yilsa, odam g'alati bo'lib ketadi. Ona kuldi:

- Seni sotmaymiz, kimni sevsang, shuni sotib olib beramiz.

- Qo'yinglar. Menga buncha yopishdilaring!..

- Bo'пти, bo'пти. Bu masalani yopamiz... - Gapni boshqa yoqqa burdi Mamaraim.

Ular yarim tungacha shu zayl gaplashib o'tirishdi. Onasi bilan akasi yotgan joylarida uxlab qolishgach, Zulfizar ko'rpa olib chiqib, ularning ustiga tashlab qo'ydi. O'zi ichkariga kirib yotdi.

Bu oila urush tugaganini, hali uning yaralari bitmagan bo'lsa-da, shu osuda tunda ilk bor his etishdi. Bolalikdan saharbardonda turishga odatlangan Zulfizar tashqariga chiqqanda gimnastyorkasini yelkasiga tashlab olgan Mamaraim bir tomoni nurab ketgan eski tandirning boshida turardi. Garchi saraton chillasi bo'lsada, tong salqingina edi. Zulfizar shoshib yuz-qo'lini yuvdi-da, akasining yoniga borib, salom berdi. Nazarida kechadan beri shunchalik ko'p vaqt o'tgan ediki, yuragi sog'inchdan yorilay deb turardi.. Qiz bola bo'lmaganda akasini quchoqlab olishga tayyor edi.

- Yaxshi dam oldingizmi, akajon?

- Ha, rahmat. Xo'roz qichqirig'idan uyg'onib ketdim. Hali to'liq uyg'onmagan edim, bir payt ot kishnashini eshitdim. Tushimmikin, hushimmikin deb, yonboshimga qarasam, mushtdaygina bo'lib onam yotibdi. Urushda bazan qishloqlarga yaqin borib qolsak, qo'y-qo'zilarning marashi, xo'rozlarning qichqirishlarini eshitsam, yuragim kengayib ketganday bo'lar edi. Ko'z oldimga qo'y-qo'zilar

o'tlab yurgan yam-yashil adirlarimiz kelardi. Odamzod qiziq bo'lar ekan, ajal naqd, oyoqlarimiz osti to'la mina, quloqlarimiz ostida o'qlar vizillab uchib yotibdi, ammo biron kun, biron daqiqa uyga qaytish, tinch, osuda hovlingda chalqancha yotib, yulduzlarga termilish, adirlarda yalang oyoq yugurish orzusi ko'ngildan ketgani yo'q. Komandirlarimiz в Ёна Vatan uchun olg'a! в Ё deb jangga solishganda hamisha ko'z oldimda mana shu qadrdon qishloq, yerga qapishib mung'ayibgina turgan mana shu uyimiz paydo bo'lar edi, - Mamarayim tandirga qaradi. - Bu o'sha biz qo'yib ketgan tandirmi? Qara-ya, hech narsa qilmapti.

- Ha, endi... Uyda tandir-tandir non yeydigan odam bo'lmasa... onam ikkalamiz o'choqqa bir non pishirib olsak, to'rt kun yeymiz. Shu tandirni olib tashlay deb qancha urindim, onam qo'ymadi, - Zulfizar yerga qaradi.

- Nega olib tashlamoqchi eding?

- Enam, qachon qaragam, tandirni quchoqlab yig'laydi. Sening ham iching kuyik, mening ham ichim kuyik, Tandır ona Xudodan bolalarimni so'rab ber, deb, yig'layverardi. Oxiri bir kun ketmonni olib, tandirning boshiga keldim, yana bir marta shu yerga kelib yig'lasangiz, shu tandirni chopib tashlayman, dedim.

- Bechora enaginam!... - chuqur xo'rsindi Mamaraim. - Biz ikkalamiz otamning, akalarimning o'rnini bildirmay, onamni avaylab, yuragidagi yaralarga malham bo'lishimiz kerak.

- Ha-a...

Raykomdagilarga Zulfizarning o'qish haqidagi rejasi maqul tushdi:

- Faqat Toshkentga emas, viloyat partiya qo'mitasi Moskvadagi oliy partiya maktabiga mahalliy xotin-qizlardan biron nomzod surishtirayotgan edi. Borasiz, o'qiysiz, turar joy bilan taminlashadi. Maoshingiz beriladi. Xullas, bu juda katta imkoniyat! Zulfizar raykomdan chiqqanda ayni tush mahali edi. Terak uchiga qadalib qolgan saraton quyoshi yeru osmonni ayovsiz qizdirar, dov-daraxtlar, yo'llar, odamlar hansirab nafas olar, ana shu otashgoh ichra Zulfizardan baxtli odam go'yo dunyoda yo'q edi. Bir tomoni bepoyon adirlar bilan tutash yaydoq yo'lda ketib borar ekan, damba-dam raqsga tushayotgandek aylanar, nazarida u emas, uning atrofida, unga havas qilib dunyo aylanayotgandek edi.

Mamarayim hovlining bir chetida suvoq uchun loy tayyorlayotgan ekan, hamon o'g'lining diydoriga to'ymagan Oysulton xola ham uning yonida gap berib o'tirardi. Zulfizar ularni ko'rib, darrov suyunchiladi

- Ena, aka! Meni Moskvaga, oliy partiya maktabiga jo'natishayapti.

Oysulton xolaning qovog'i solindi:

- O'qib, yana kim bo'lmoqchisan? Shahar olib berasanmi? Bir diploming bor, ishlayapsan, yana nima kerak senga? Birovingni Xudodan so'ray-so'ray, shu tomonlardan zo'rg'a olib keldim. Endi sening dardingda kuyishim qolganmidi? Hech qayerga bormaysan.

Akasi esa xursand bo'ldi:

- Unday demang, ena. Qizingiz urushga ketayotgani yo'q-ku, o'qishga ketayapti. Moskvada o'qib kelsa, kamida bir tumanni so'raydigan arbob bo'ladi. Nodirabegimlar ham sizning qizingizday birovning erka qizi bo'lgan. Qarang, ham arbob, ham shoira bo'lib, tarixda nomi qoldi.

Oysulton xola qatiy bosh chayqadi:

- Qo'y, bolam. Menga shuning arbobligi umuman kerak emas. Joyi chiqsa, uzatsam, tinib-tinchib, o'zi bilan o'zi bo'lib ketganini ko'rsam bo'ldi. O'zi ikkovginalaring bo'lsanglar, biring Iroqda, biring yiroqda... Yo'q, men bunga chiday olmayman.

- Uzatishga ulgurasiz, ena. Hali yosh, indamang, o'qib kelsin. To'y qilishga shoshayotgan bo'lsangiz, mana, men uylanaman, - u kulib Zulfizarga ko'z qisib qo'ydi. - Keyin, kelin-nevaralar uyingizni to'ldirib yuboradi. Xo'p deng, enajon, o'qib kelsin shu qizingiz!

Zulfizar o'qishga ketguncha akasi uning u yoq bu yog'ini shuvab, qo'shni tog'aning qizini qozon-tovog'iga ega qildi.

... Va shu tariqa Moskva tahsili ham boshlanib ketdi. Birinchi darsda urush va uning qahramonlari, g'alaba va uni taminlagan buyuk kuch haqda yoqimsiz munozara bo'ldi. Muallim - siyrak sochlari sap-sariq, ukkinikidek ko'zlarida qandaydir yovuz tuyg'u ko'rinib turgan rangi sovuq kishi в ЁUrushda qatnashgan har bir askar shak-shubhasiz qahramon, lekin buyuk g'alabani buyuk rus xalqi taminladiv Ё deb aytdi. Zulfizar rus tilini yaxshi tushunsa-da, hali erkin munozara qila olmas edi. в ЁNega? Mening otam bilan akam kim uchun, nima uchun jon berdi? в Ё degan savoli bo'g'zida qolib ketdi. Lekin birinchi qatorida o'tirgan uzun bo'lyli turkman yigit o'rnidan turib ketaverdi: в ЁBu gapingiz O'rta Osiyodan kelib, qon daryo bo'lib oqqan janggohlarda jon olib, jon bergan yigitlarga nisbatan behurmatlik emasmi? в Ё dedi.

- Meni kechiring, muhtaram zot, - muallim mazax qilganday qo'llarini ko'ksiga qo'yib, boshini egdi. - Ismi sharifingiz?

- Og'amurod Saparovich!

- Ha, Og'amurod Saparovich! Men juda afsusdaman, ammo bu ayni haqiqatning o'zi. Masalan, bir umr paxta dalasidan chiqmagan, ketmondan boshqa qurolni ushlab ko'rmagan yoki bir umr molning izidan yurgan cho'ponda harbiy strategiya, taktika, manyovr kabi malakalarni shakllantirish uchun qancha vaqt kerak, bilasizmi? Bir asr! Ostonada turgan dushman sizni bir asr kutib turarmidi? Aslo! To'g'ri, sizning qondoshlaringiz ham bu urushga tashlandi, ammo ular Ulug' Vatan himoyasi uchun qayerdadir jonli devor, qayerdadir dushmanning ko'ziga katta armiya bo'lib ko'rinish vazifasini bajardi, xolos. Shubhasiz, urush qurbonsiz bo'lmaydi, qurbonlar ko'p bo'ldi. Sizlardan ham, bizlardan ham, dushman tomondan ham ko'p qurbonliklar berildi. Men yuqorida takidlagan fikrimni yana bir karra takidlashni istayman, yani g'alabani buyuk rus xalqi bergan qurbonlar taminladi.

Shu bilan munozara mavzusi to'g'ridan to'g'ri O'rta Osiyoga ko'chib ketdi. Muallim 30-yillarda O'zbekistonga kelgan ekan...

- Dalada ishlaydigan ayollarning boshida 30-40 santimetrlik silindrga o'xshash bosh kiyimi. Bu silindrni necha xil rangli ro'molni o'rab-o'rab yasashar ekan. Qancha vaqt dalama-dala yurib, bu bosh kiyimi ishlaganda xalaqit berishini ularga tushuntira olmadik. Shuni kiyib ishlaganlarga ish haqi berilmaydi, dedik oxiri. Endi bizning qoramiz ko'rinsa, haligi silindrlarni boshlaridan yechib, shox-shabbalarning tagiga yashirib qo'yishardi. Ketishimiz bilan yana o'sha laylak uyalarini boshlariga qo'ndirib olishardi.

в ЁVoy, jonining foydasini bilmagan xalq-ey! в Ё deb rosa jig'i-biyronim chiqardi. Gap yo'q, ajoyib xalq ekan bu o'zbek deganlari, - u ko'zlarini artib-artib rosa miriqib kuldi, unga qo'shilib, butun auditoriya kuldi. Auditoriya tinchigach, u ko'zlarini ishqalab-ishqalab, uzr so'radi: - Orangizda, shubhasiz, o'zbek o'rtoqlarimiz ham bor, uzr. Ammo shu narsani aytishim kerakki, mehnatlarimiz zoye ketmadi, hozir uyda o'tirgan kampirlardan bo'lak hech kim silindr kiymaydi. O'zbek qizlari Moskvada talim olmoqda. Mana, sizga jonli misol, - u hammaning diqqatini Zulfizarga qaratdi. - Ismingiz nima?

- Zulfizar...

- Zulpisar? O'zingiz juda go'zal qiz ekansiz. Ammo to'g'risini aytganda, bu ism sizga unchalik yarashmayapti. Keling, sizga yangi chiroyli ism qo'yamiz. Masalan, Zinaida! Zina! Zinochka! Aytish ham oson. Otangizning ismlari?

- Abdiqodir...

- Zinaida Abduqodirovna! Yo'q, bunchalik murakab-lashtirish-ning nima keragi bor? Abdiyevna bo'laB-qolsin, Zinaida Abdiyevna! Qarang, qanday jarangdor va ulug'vor! O'tiring, Zinochka! - Muallimning sovuq yuziga mamnuniyat ifodasi qalqdi. Tanaffusga chiqishgach, Zulfizarning atrofini talabalar qurshab oldi:

- Zina, Zinochka! Sizlarda rostdan ham silindr kiyib yurishadimi?

- Uning usti rostdan ham laylak uyaga o'xshash ochiq bo'ladimi? Nega?

Bu qiziquvchanlik bir tomondan uning nafsoniyatini og'ritsa, ikkinchi tomondan izza qilardi. Aslida ayollarning salla o'rab yurishlarini uning o'zi ham juda yomon ko'rardi, lekin shu sallani deb bu taxlit izza bo'lish!.. Uning o'ktamligi tutib ketdi.

Hammani gap bilan qayirib-qayirib tashladi:

- Kerak bo'lsa, go'zal Afrodita bilan Kleopatraning boshida ham silindrga o'xshash qalpoq ko'rganman. Bu shakldagi kiyim ayol kishining yuzini cho'zinchoq qilib ko'rsatadi. Buning ustiga boshingizda uzunchoq yuk tursa, uning tushib ketmasligi uchun hamisha gavdangizni tik tutib yurishingiz kerak. Shuning uchun bizning ayollarimizning qomatlarini go'zal, yurishlari chiroyli bo'ladi. Qolaversa, O'zbekiston juda issiq yurt. Boshni issiqdan saqlash uchun ham shunday bosh kiyim kiyilgan.

Uning gaplarini kimdir jo'yali topdi, kimdir masxara qildi. Xullas, Zulfizar momolarining v'ny laylak uyasi v'k uchun bir marta yaxshigina qizardi. Shu-shu o'zi ham kiyim-boshiga yanayam ko'proq etibor beradigan bo'ldi. Bellarida qulf urib turgan sochlarini tubidan qirqib tashladi. Biroz qoramag'izligini hisobga olmasa, u talabalar ichida eng go'zal qiz edi. v'ny Zulpisar v'k bo'lish ham joniga tegdi. Pasport beriladigan mahkamaga borib, ismi-sharifini ham v'ny Zinaida Abdiyevna v'k deb o'zgartirib keldi.

Uni uch-to'rt v'ny osiyolik v'k do'stalaridan tashqari hamma yaxshi ko'rardi. v'ny Zina, Zinochka v'k deb hamma atrofida parvona bo'lsa ham o'zining v'ny osiyolik v'klari bir chetda to'rsayib turishar, zarur bo'lib qolganda ham yangi ismi bilan atamasdi.

- Shularga yaxshi ko'rinish uchun ota-onangiz qo'yan ismdan voz kechdingizmi? Bu xiyonat, go'zalim! - dedi Og'amurod ochiqdan-ochiq. - To'g'ri, bizda hozircha Rossiyadagi sanoat taraqqiyoti yo'qdir, ammo urf-odatlarimiz, kiyinishimizning bu taraqqiyotga qanday aloqasi bor? Bizga sanoatni olib kirishsa, ustimizdan kulmasdan, sanoatga qo'shib bizga begona bo'lgan urf-odatlarini ham tiqishtirmasdan olib kirishsin.

Zulfizar ham gapini berib qo'yishni istamasdi:

- Birinchidan, men hech kimga xiyonat qilganim yo'q. Balog'at yoshiga yetgan har qanday fuqaro o'ziga ism tanlash huquqiga ega. Ikkinchidan, rus xalqi ulug' xalq. Bu xalqdan faqat sanoat taraqqiyotini emas, qanday yashashni ham o'rgansak, ziyon qilmaydi... Bunday tortishuvlar bazan yarim tungacha davom etar, Og'amurod qizishgandan qizishar, tortishayotgan raqibi qiz bola ekanligini ham inobatga olmas, bir safar hatto v'ny Hay, ismi-sharifingizni shularga moslashtirib oldingiz, endi millatingizni ham o'zgartirib v'k, dedi.

Zulfizar ham gapdan qolmadi:

- Amerika fuqarolarining pasportida v'ny millat v'k degan joyga v'ny Amerika fuqaros v'k deb yozilar ekan. Ajab emaski, yaqin vaqtlar ichida bizlarning pasportimizda ham v'ny Sovet Ittifoqi fuqaros v'k degan yozuv paydo bo'lsa! Ana o'shanda bu o'zbek, bu turkman, bu rus degan ulug'lashlar ham, kamsitishlar ham bo'lmas edi.

- Men bunday siyosatga butunlay qarshiman. Bu sizga o'xshagan laganbardorlar o'ylab topgan posangidan boshqa narsa emas - u qo'l siltab davradan chiqib ketdi.

Ular tortishganda sira bir-birini ayab o'tirishB-masdi, ammo baribir bir joyning odamlari emasmi, shuncha qarama-qarshi fikrlashiga qaramay Zulfizarning qalbi shu yigitni ko'rganda beixtiyor unga qarab talpinishini his etardi.

To'g'ri, yigitning qarashlari, haddan ziyod to'pori va cho'rtkesarligi unga yoqmas, jinnimi bu, oliy partiya maktabining o'quvchisi emish, deb qosh chimirsa-da, ich-ichidan aslida uning hech kim va hech narsadan tap tortmay o'z fikrini aytishining o'zidanoq jahldan ham ko'ra hayajondan qizarib, bo'zariblar ketardi. Ammo ko'zlari va qarashlari kishining jonini shartta sug'urib olgudek yovqur qarashli Og'amurod kesatiq bilan uni go'zalim desa-da, baribir uning xayoli Zulfizardan-da baland, osmonda edi. Faqat har ikkovining ham shu bitta osmonga borar yo'llari negadir ayro, shunday kaftdagi chiziqdardek, bitta kaftda, ammo baribir ayro edi. Zulfizar, baribir qiz bola ekan-da, yuragi toriqqanda, uyini, onasi, momosini sog'inganda negadir o'krab-o'krab yig'lagisi kelar va har yig'lagisi kelganda negadir aynan Og'amurodning yelkasiga o'zini tashlab, otasiga xarxasha qilgan qizaloqdek ichidagilarni aytib-aytib, ho'ng-ho'ng qilishga tiyiqsiz mayl his etar, hatto bir gal yigitning xonasiga ko'zlari yig'idan qizarib borgandi ham. Ammo... bu tashrifidan birinchi galda o'zi nihoyatda xijolat bo'lib ketdi. Og'amurod sho'rlik-ku, tiliga o'tkir bo'lgani bilan qiz bolaga qanday muomala qilishni bilmaydi, chog'i, batamom lom-mim deyo'lmay qoldi. Axiyri ikkalasi ham vaziyatdan chiqish yo'lini topishdi. Zulfizar duduqlanib, kecha uning seminarda aytgan fikriga qarshi ekanligini bildirdi. Og'amurod ham v'ny Turpurdim o'sha seminargav v'k demadi, jon jahdi bilan fikrini himoya eta boshladi. Axiyri ular Marksning v'ny Kapital v'k asari haqida bahslashishdan nariga o'tmay, ajrashishdi. Bo'ldi, qaror qildi Zulfizar, endi bunday ahmoqona xayollarga bormayman. Uyat bu, uyat! Yaxshiyam Og'amurod ichimdagi gapni payqamadi, yaxshiyam... Ammo keyin o'sha, bir borgina berilgan imkoniyatda u yigitga salgina ishora bilan bo'lsa ham uning o'ziga yoqishini bu musofir yurtlarda unga faqat Og'a madad bo'lib yurganini aytmaganiga, aytolmaganiga ko'p pushaymon bo'ldi, ko'p...

Bir kuni auditoriyada o'qituvchi bilan qattiq tortishib qoldi. O'sha rangi murdanikidek sovuq o'qituvchi edi. U Sovet Ittifoqi va undagi suveren davlatlar, ularning haq-huquqlari haqida gapirayotgan edi.

Birdan Og'amurod qo'l qo'tarib o'rnidan turdi. Zulfizarning yuragi v'ny shuv v'k etib ketdi: v'ny Hozir bu yana bir narsani boshlaydi v'k.

- Kechirasiz, qanday suverenlik va ittifoq haB-qida gapiryapsiz? Men, masalan o'zimni suveren davlatning emas, bir mustamlaka davlatning farzandi deb hisoblayman. Bizni oldin chor Rossiyasi bosib olgan edi, Rossiyada sotsialistik revolyutsiya g'alaba qozongach, biz sotsialistik Rossiyaning mustamlakasiga aylandik. Na bayrog'i, na tug'rosi, na Davlat maqomiga ega bo'lgan ona tili bo'lmagan, ota-bobosi o'qigan alifbosidan ham voz kechishga majbur bo'lgan mamlakatni ozod mamlakat deyish mumkinmi? O'qituvchi boshchiligida butun auditoriya unga qarB-shi turdi.

- Chiq darsimdan! - Oxirida o'shqirib yubordi o'qiB-tuvchi. - Nonko'r! Bundan keyin qorangni ham ko'rB-mayin.

Butun auditoriya suv quyganday jimib qoldi:

Yaxshimi-yomonmi, yil boshidan beri yonlarida yurgan bir tengdoshlarining taqdiri hal bo'layotgan edi. Ammo Og'amurodning yon berish niyati yo'q edi. KiB-tob-daftarlarini jildiga solib, eshikka yo'naldi. Ostonaga yetgach, ortiga burilib, o'zi haydalgan auditoriyaga, so'ng o'qituvchiga qaradi:

- Kechirasiz, mana ko'rayapsizmi, millatingiz shaniga aytilgan bir og'iz gap sizga qanchalar og'ir botdi. Shuni unutmangki, har bir

millatning o'z g'ururi, izzat-nafsi bor.

Uni boshqa hech kim ko'rmadi. Xonadagi shaxsiy buyumlari shundayligicha turganligiga qaraganda, u uyiga ketmagan edi.

- Uni qamab yuborishgan, - shivirlabgina bir-birB-lariga o'z gumonlarini aytishar edi kursdoshlar.

- Ajab bo'пти! Tilini tiyib yurmaganidan keyin shunday bo'ladi.

Oradan olti oylar o'tgach, onasi bilan akasi kelib, rahbariyatga uchrashishdi, biron bir malumot olisholmagach, dod-faryod bilan o'g'illarining narsalarini yig'ib, jo'nab ketishdi. Og'amurod hammadan ko'p Zulfizar bilan tortishar edi. Hattoki bir gal:

- Men sizni yomon ko'raman, - degan edi yuziga qaB-rab ochiqdan ochiq, - sizga rahmim keladi.

Og'amurodning bu gaplari qanchalik diliga botmasin, o'zining unga nisbatan tuyg'ulari tufayli qanB-B-chalik ich-ichidan nomus etmasin, ammo baribir shu yigit yo'qolib qolgandan so'ng, Zulfizar ancha vaqtgacha garangsib yurdi. Asta-sekin o'ziga kela boshlagach esa ko'nglida atrofida qilarga, muallimlariga nisbatan bir hadik paydo bo'ldi. Ammo bu o'tkinchi tuyg'u edi. Ko'p o'tmay u yana guruhning eng peshqadam, eng sevimli azosiga aylandi. Bolaligidan shunday, qayerda, qanday sharoitda bo'lmasin, u birinchi bo'lishga intilar, bunga erishmaguncha tinib-tinchimas edi. Birinchi bo'lish unB-ga juda yoqar edi.

Diplom himoyasidan oldin, uni dekanatga chaqiB-rishdi:

Dekanning yonida guruh rahbari ham o'tirardi.

- Zinaida Abdiyevna! - dedi bir qo'lini frontda qoldirib kelgan dekan. - Tahsil davomida siz tiB-rishqoqligingiz, odobingiz, tashkilotchiligingiz biB-B-lan hammamizning mehrimizni qozondingiz. Sizni uzoq bir viloyatga yuborishga ko'zimiz qiymaydi. Kuratoringiz ham shu yerda ishda qolishingizning tarafdori.

Zulfizar yuragi gupirlab urib ketdi: вЂњNahotki? ItB-tifoqning yuragi - Moskvada yashab, ishlash!вЂќ

- ...ammo, - gapida davom etdi dekan - biz ItB-tifoqning har bir burchida o'z odamimiz, ko'z-qulog'imiz bo'lishini istaymiz. Sizni viloyat partiya qo'mitasiga yuboramiz. Buni siz вЂњo'qib, uyimga qaytdimвЂќ deb emas, вЂњmeni viloyatda ishlarni yaxshilash uchun yuborishdivЂќ deb tushuningizni istaymiz.

Bu ham unga bildirilgan katta baho, ishonch edi.

Yuragi bo'g'ziga tiqilib qolganday, nafas olishi qiynlashdi. Qalbi g'urur va quvonch hissiga to'lib ketdi. Bu tuyg'u viloyat partiya qo'mitasiga borganda o'z-o'zidan mamnuniyat hissiga aylandi.

Yoz. Nam havo issiq va dim edi. U narsalarini yig'ishtirib, yo'lga otlanguncha toliqib bo'lgan edi. Ammo samolyotdan tushgach, uyuq emas, to'g'ri viloyat partiya qo'mitasiga bordi. Birinchi kotib yo'q ekan. Tashkiliy kadrlar bo'limi boshlig'i Nikolay Vladimirovich uni вЂњIkkinchiвЂќning huzuriga olib kirdi. вЂњIkkinchiвЂќ - qalin qoshlari qovoqlari ustiga osilib tushgan o'rta yoshlardagi rangpar kishi o'zini Aleksandr Ivanovich deb tanishtirdi.

- Ajoyib o'xshashlik, - dedi u Zulfizarning qo'LB-larini siqib ko'rishar ekan. - Meni ko'rganlar doim nega ismi-sharifingiz ruscha, o'zingiz osiyoliklarga o'xshaysiz, deyishadi. Siz esa Osiyo go'zali, ammo ismingiz Zinaida! Juda yaxshi, Zinochka, endi sizga beradiganlarimiz bilan tanishtiray: lavozim, uy, xizmat mashinasi, haydovchi, yaxshi maosh. Sizdan so'raydiganimiz - sadoqat va ish. Bo'ladimi?

Zulfizar xushnud jilmaydi.

- Albatta, Aleksandr Ivanovich!

вЂњIkkinchiвЂќ unga biroz sinovchan tikilib turdi-da, biroz istihola bilan qo'shimcha qildi:

- Yana bir gap. Albatta, bu o'ta shaxsiy masala, ammo siz bilan biz kommunistik partiyaning askarlarimiz, bizning o'zimiz ham, shaxsiy tuyg'ularimiz ham partiyani. Kommunistik etika degan gap bor. Unga asosan rahbarlik lavozimida ishlaydiganlarning anketasi toza va ibratli bo'lmog'i lozim, yani sudlanmagan, oilali!.. Shu boisdan zudlik bilan turmushga chiqishingiz kerak. Agar ko'nglingizda biron odam bo'lsa, uni ayting. Ammo sizga uylanadigan odam sizning ish vaqtingiz chegaralanmaganligini, siz zamonaviy rahbar ekanligingizni, rashk qilib ishingizga xalal bermasligini...

Nikolay Vladimirovich qo'shimcha qildi:

- Siz faqat anketa bo'yicha uniki, aslida jismingiz ham, qalbingiz ham partiyani ekanligini yaxshi bilishi lozim. Shunday nomzodingiz bo'lsa, ayting.

Bo'yagi takalluflar tufayli Zulfizarning yuzlariga yoyilgan tabassum joyida qotib qolgan, birdan kayfiyati tushib ketgan edi:

вЂњBunday erni qayerdan topadi?вЂќ

- Ammo, siz xavotirlanmang. Agar biron aniq rejangiz bo'lmasa, bizga qo'yib bering.

...Uni o'sha kuni kechki payt qishloqqa yarqiragan oppoq вЂњVolgavЂќ olib kelib qo'ydi. Bu uning xizmat mashinasi edi.

Ular topgan nomzod - yoshi o'ttizlarga yetgan, peshonasidan sochlari siyraklashib cho'zinchoq yuzlariga ulug'lik bag'ishlab turgan bir kamsuqumgina yigit edi. To'y-tantana ham qilib o'tirishmadi. Rasmiy idorada nikohlarini qayd qildirishgach, shahardagi yangi uylarida uch-to'rt kishi bo'lib o'tirishdi. вЂњBirinchivЂќ, вЂњIkkinchivЂќ, вЂњKadrvЂќ, viloyatdagi qandaydir tashkilotda rahbar bo'lib ishlaydigan qaynotasi, kuyov va o'zi, onasi bilan qaynonasi bo'lak xonada o'tirishdi. Kampirlarning qistovi bilan mehmonlar ketgach, mulla chaqirib, shariy nikoh o'qitildi. Nikohdan keyin qaynona Zulfizarni bag'riga bosib, biroz ko'z yosh qildi:

- Aylanib ketay sizdan, bolam sizga omonat. O'zi yaxshi yigit, ilmga juda berilganidanmi, hech birovga yuqumi yo'q, picha bo'shroq. Bir kun yonida o'tirsangiz ham undan bir og'iz gap ololmasligingiz mumkin. Lekin ko'ngli toza, g'ubori yo'q.

Zulfizar kuldi:

- Xolajon, menga aynan shunday odam kerak-da o'zi. Ishimiz og'ir, bazan kechroq qaytishim bor, bazan aytmasdan uzoq qishloqlarga ketib qolishim bor. Shunday paytda horib-tolib kelgan holimga bu kishiyam jahl qilib, tergab boshlasa, keyin menga juda qiyn bo'ladi.

Oysulton xola qizining bu qadar erkinligidan yangi quda oldida xijolat tortdi:

- Nima, tergamaydi deb o'ylayapsanmi? Albatta tergaydi, erman-har narsa derman, deyishgan.

- Yo'q, yo'q, mening bolamning qo'lidan birovni tergash kelmaydi. O'ziga to'g'ri bo'lsa, bo'ldi-da. Ayol zoti eng avval o'zi uchun shanini asraydi.

Zulfizar iloji bilan rahbarlarining topB-shiB-rig'ini bajarayotgan bo'lsa-da, shu taxlit, tomdan tarasha tushgandek birovning xasmiga aylanayotganidan ko'ngli juda xijil edi. Na bir izhori dil, na bir mardona shart aytmay, indamay uyiga, hayotiga kirib kelgan odam unga hech yoqmadi. Ammo, chidash kerak. Ko'ngliga yaqin biron inson bo'lmagach, kim bilan yashashining nima ahamiyati bor? Qaynonasining gaplarini eshitib, biroz ko'ngli yorishdi: mehribon, aqlli ayol ekan. Ketishga chog'lanayotgan qaynonasi bilan qaynotasini yotib qolishiga undadi:

- Kech bo'lib qoldi, yotib qolinglar, xona ko'p, xolam onam bilan gurunglashib yotadilar.

Nodir ham yomon yigit emas edi, ichmaydi, chekmaydi, yomon gap yo'q. Yarim tungacha yozuv-chizuv bilan band. Qorni ochsa, indamay o'zi choy qo'yib ichaveradi. Baribir bu holat Zulfizarning ko'nglini ilita olmasdi: ЎЎErkakka o'xshamaydi, latta! ЎЎ Ammo eriga nima ham deydi: ЎЎBilganini qilsin! ЎЎ

O'g'li tug'ulgach, eri birdan o'zgardi. Xotinining emizikli bolani onasiga tashlab, o'zi yarim tungacha ishda yurishlariga hech ko'nika olmay qoldi. O'sha kuni olis tog'li qishloqlarga borishgandi. Yarim tunda qaytdi. Haydovchi u tomonga o'tib, eshigini ochayotgan edi, darvoza oldida eri ko'rindi. Zulfizar zim-ziyo tunda ham erining yuzi qahrli ekanini bildi. Haydovchining oldida vaziyatni yumshatish uchun eriga o'zicha takalluf qilgan bo'ldi:

- Ha, dadasi, xavotirlandingizmi?

Eri esa... yuziga tarsaki tortib yubordi.

- Nega, nima uchun?! - Zulfizar joyida qotib qoldi.

- Men... ostonada ham begona erkakka bilagini ushlatadigan ayol bilan ortiq yashay olmayman.

- Qanday begona erkak?! U haydovchim-ku! - chinB-qirdi Zulfizar.

- Haydovching erkak emasmi?

- Mayli, erkak ham deylik, ammo qanday saviyasi past odamsiz? Nahotki men o'zimni shu o'qimagan haydovchiga teng ko'rsam?

Juda charchagan edim, mashina baland bo'lgani uchun ЎЎkushlashib yuboring ЎЎ dedim.

- U esa huzur qilib bilaklaringizdan ushladi!..

- Siz siyosiy ko'r feodalsiz!

O'sha tun to'shaklar bo'lindi.

Ertalab Nodir uzr so'radi.

- Zulfizar, meni kechiring. Men sizni rostakamiga yaxshi ko'rib qolganga o'xshayman. Endi ketmasam bo'lmaydi. Xavotirlanmang, nikohimiz turaveradi. Anketalarga ham bemalol ЎЎOilaliman ЎЎ deb yozaverasiz. So'rganlarga ЎЎErimni Toshkentga ishga chaqirishdi, ilmiy ish qilyapti ЎЎ, deysiz. Men Toshkentga ketaman. Faqat iltimos, Botirjonni ehtiyot qiling, unga sizning mehringiz, etiboringiz kerak.

ЎЎKetmang!.. ЎЎ deyishga g'urur yo' bermadi. Ammo yuragidan nimadir uzilib ketganday bo'ldi. Indamadi, hatto kuzatgani ham chiqmadi. Necha kun yurar yo'lidan adashgan devonaday halovatini yo'qotdi. O'ziga kelgan kun angladiki, o'sha

ЎЎFeodal ЎЎ yigit hayotining bir bo'lagiga aylanib bo'lgan, unga o'rganib qolgan edi. Hamisha atrofingda o'ralashib yuradigan jonzotga o'rganib qolganday...

Muhabbatsiz boshlangan turmush muhabbatga o'xshash iliqqina munosabatlar paydo bo'lgach, shu tariqa buzilib ketdi.

* * *

Botib borayotgan quyoshning bir cheti ko'rinib turardi. Kasalxona hovlisi aylanishga chiqqan bemorlaru, yo'qlovchilar bilan gavjum. Ukol tasiridan zo'rg'a ko'zini ochgan Zulfizar yonida jovdirab o'tirgan qizini ko'rib, ezildi. Bemador qo'llarini uzatib, asta qo'lidan tutdi:

- Sora, sen baxtli bo'lishing kerak.

- Onajon, u nima deganingiz?

- Men uchun ham, akang uchun ham!..

- Qo'ying, o'sha bangini gapirmang. Hamma narsani sotib, sizni kafangado qilgan shu. Endi hovlini sotasiz-da, qo'shnim uyini sotayapti, shu yerga ko'chib kelasiz. Bilganini qilsin. O'zingizga dori olmay, pensiyangizni ham shu ahmoqning narkotigiga berib yurganingizni bilaman, ona! O'shani deb shu ko'yga tushdingiz. Endi bo'ldi, hammasiga nuqta qo'yaman.

- Sen bolam, o'zingni, o'zingning baxtingni o'yla. Akangning taqdiri uchun men javobgarman. Kecha-kunduz ish deb chopib yurmasdan shu bolaga ozgina etibor, vaqt ajratganimda shu ko'rguliklar bo'lmasdi. Bizning davrimizda ota-onaning bir kuchi bolalarining ustini butlab, qornini to'yg'azishga ketar edi. Shundayam haftada bir marta yovg'on icha olmasdik. Ustimizdagi kiyim yuvilsa, quriguncha ko'rpaga kirib turardik. Men bolamga eng sara kiyimlarni kiydirdim, tanlab-tanlab yedirdim. Pul shundaygina tokchada turardi, hisobini so'ramas edim. So'rash, terdash kerak ekan, uni yomon bolalar yo'ldan urdi. Momongni ham, meni ham dog'da qoldirdi.

- Yo'q, ona, o'sha sharoit menda ham bor edi. Nega men giyohvand bo'lmadim. Nega?! Bilsangiz, hamma narsa odamning o'ziga bog'liq.

- Sen axir qiz bolasan. Nahotki, qiz bola bo'p turib...

- Ona, mening rus maktabda o'qiganimni unutmang. Bizning qizlarimiz o'zbek maktablaridagi o'g'il bolalardan battar edi. Chekish, ichish, yigitlar bilan yurish ular uchun odatdagi ermak edi. Maktabning orqasidagi ovloq hovlilarning hojatxonasiga borib, nechtasi kayf bilan uxlab qolardi. ЎЎAkam uchun kuyib yurgani yetadi, xavotirlanmasin ЎЎ deb men bularni sira sizga aytmas edim.

Zulfizar uning barmoqlarini qisib qo'ydi: ЎЎRahB-matv ЎЎ. Ancha jim yotib, yana o'zini aybladi:

- Otasining oldida ham yuzim shuvut bo'ldi. Keyinroq bo'lsa ham otasiga xabar qilganimda kelib, olib ketardi. Davolatib, to'g'ri yo'lga solib yuborarmidi? - Xayoliga kelgan fikrdan ko'zлари ЎЎyarq ЎЎ etib ochildi. - Haliyam aytsammikin? Men uning ish joyini bilaman. Borib, yonimga aytib kel, bolam. O'lib-netib ketsam, akang sho'rlik... Xotini ham haydab yuborgan, ko'chada itday o'lib ketmasin.

Sora indamadi. U akasini juda yomon ko'rardi. Shu aka uchun qaysi bir joyga borib, kimlaridir aytib kelgandan ko'ra... Ammo onasi aytganini qilmay qo'ymaydi.

- Maylimi, qizim? - emrandi ona.

- Xo'p, - u to'rsayib oldi.

Zulfizar horg'in qovoqlarini yumdi. Hozir boshida o'sha, bir tarsaki urib, muhabbat izhor qilgan, ammo muhabbatini himoya qilishdan qo'rqib qochib ketgan lapashang Nodir paydo bo'lganda ham uning ko'zlariga qaramaslik uchun shunday ko'zlarini yumib olar edi.

Ammo ko'zlarini yumib bo'lsa-da, hozir o'sha odam bilan gaplashishi shart. O'shanda, u ketib qolgan damlar biroz bo'shshib siqilganini aytmasa, tez kunda ishga sho'ng'ib, uni ko'nglidan butunlay chiqarib yuborgan edi. Hatto bog'cha opalar

ЎЎO'g'lingizning dadasi kelib, ko'rib ketdi ЎЎ, deganda ham qalbi bir entikmadi. Shu odamga balki biz kerakdirmiz-a, deb

o'ylamadi. Uning qayerdan kelib, qayerga ketgani, nimalar bilan shug'ullanayotgani bilan umuman qiziqmadi. Bazan kimdir xushomad qilibmi, в ЁњEringiz Toshkentdagi falon ilmiy tekshirish institutida ishlayotgan emish в Ёќ, в ЁњHaliyam uylanmagan emish в Ёќ, в ЁњNihoyat uylanibdi bechorav Ёќ kabi malumotlarni yetkazishganda ham uzoq bir qarindoshlar haqidagi gapdek в Ёњhav Ёќ, deya qo'l siltab qo'ya qolardi. Haqiqatan ham o'sha paytlar uning ishi juda ko'p edi. U yer-bu yerda o'z joniga qasd qilgan har bir fakt uchun Markazkom oldida tik turib javob berishardi. Ayni paytda barcha tuman va qishloqlarda shunday holatlarning oldini olish masalasida tinmay yig'ilishlar o'tkazar edi. Uning yig'ilishlaridagi so'rovlarda erkak rahbarlar ham dag'-dag' titrab turishar edi. Hurmat-izzat, takalluf va tavozelar ham shunga yarasha edi. Shunday bir paytda bir zamonlar yuziga tortib yuborgan tarsakidan xijolat bo'lib, в Ёњmen sizni yaxshi ko'rib qolibman, shekilliv Ёќ, deya ketib qolgan erkak uchun g'ussa chekib yurarmidi?

Endi esa... Hammasi ortda qoldi. U minbarni mushtlagan dam yuzlab erkak yig'ilgan majlis ilkis qalqib ketgan davrlar, bir og'iz takallufini mukofot deb bilgan odamlar-bir ertak endi. Endi, giyohvand o'g'il, behol, bemador vujud va bor sharbati siqib olingan anordek po'killab qolgan yurakdan boshqa hech narsasi yo'q. Endi o'sha, bir zamonlar в ЁњO'g'limizni ehtiyot qiling в Ёќ, deya o'tinib ketgan bo'shang odamning yordamiga muhtoj bo'lib yotibdi. в ЁњTopshirsam ediv Ёќ, muammolarning yechimini shu niyatda ko'rdi. Lekin u juda muloyim, mehribon odam, o'g'lini yaxshi gap bilan yo'lga soladi. Botir ham giyohvandlikdan butkul charchadi. в ЁњBoshqa chekmayman в Ёќ deb yuz marta qasam ichadi, ammo kayf xuruj qilgan dam o'zini idora qila olmay qoladi. Unga hozir qatiyatli, mehribon bir suyanchiq kerak. Ana shunda shuncha yildan beri azob bergan ofatdan balki butunlay qutilib ketadi.

* * *

Zulfizar endi tushlikka chiqay deb turganda, ichki telefon jiringlab qoldi. Uyga ketayotgan payt yana biron muammo chiqibdimi, degan xavotirda go'shakni ko'targan edi, в ЁњKadrv Ёќning ovozi eshitildi:

- Zinaida Abdiyevna! Tushlikka chiqayapsizmi? Bizning xonaga bir kirib o'tsangiz, degandim.

Har qanday vaziyatda ham bu odamga yo'q, deyishning iloji yo'q. Viloyatda uning mavqei shu darajada baland ediki, hatto в ЁњBirinchiv Ёќ ham biron muhimroq qaror qabul qilishdan oldin, albatta uning fikrini so'rardi. Zulfizarga biron marta ham ters gapirmagan bo'lsa-da, bu odam Zulfizarning ko'ziga juda xavfli bo'lib ko'rinar edi.

Xonada в ЁњKadrv Ёќdan tashqari oq-sariqdan kelgan uzun bo'lyi, tepakal bir kishi o'tirardi. Zulfizar uni bir qarashdayoq uni tanidiyu, birdan duv qizarib ketdi, Ammo tezda o'zini qo'lga olib, yuziga jiddiy, hukmronona, shu bilan birga iltifotli tus berdi. Ichida esa bir narsa tiqillay boshladi. Bu odam? U bu yerda nima qilib o'tiribdi? Tog' tog' bilan uchrashmaydi, degani shu ekan-da?

в ЁњKadrv Ёќ o'rnidan turib, mulozimat ko'rsatdi.

- O! Ideologiya malikasi, xush ko'rdik. O'zim chaqirmasam, kiray ham demaysiz? Sizning atirlaringizni bir hidlash uchun yo'laklarda tentirab yurishga majbur bo'layapmiz. Bu nima degan gap axir?

- Qo'ysangiz-chi, Nikolay Vladimirovich, - xijolat bo'ldi Zulfizar, - ochilmagan duxilarim bor. Istasangiz, bittasini sovg'a qilaman.

- Yo'q, azizam, menga sizning tabiiy iforingiz bilan omuxta bo'lgan duxi kerak. Bordi-yu, duxi bilan sizni xonamga ko'chirib kelsam, viloyatda ideologiya ishlarini barbod qilgan bo'laman. Bu esa aslo mumkin emas. - U nim tabassum bilan ularning suhbatini tinglab o'tirgan mehmoniga yuzlandi. - Senga aytgan Osiyo go'zali shu kishi, ammo ko'rib turganingdek, aytganimdan ham go'zal, oqila va talabchan, - so'ng Zulfizarga o'girildi. - Tanishing, mening eng yaqin do'stim Anatoliy Abramovich! Fazilatlar juda ko'p: mehribon do'st, qo'li gul xirurg, eng muhimi dono tadbirkor, uni bir cho'pning ustiga xo'rozqandday qilib o'tirg'izib qo'ysangiz ham, tadbir ishlatib, siz bilan mendan ko'proq pul topadi. Nuqsonlari ham bor, qizlarni, ayniqsa mahalliy qizlarni juda yaxshi ko'radi.

Ajab, mehmon ham xuddi Zulfizar kabi ayolni birinchi ko'rib turgandek tutdi o'zini. Lom-mim deyishga ojiz odamdek xijolatimiz qo'llarini yozdi:

- Sharq qizlari go'zal bo'lishsa, bunda mening aybim nima? Axir go'zallikning qoshida xudolar ham tiz cho'kishgan.

Zulfizar yalt etib Anatoliyga qaradiyu, darrov ko'zini yashirdi. Ajab! Uni bunchalik abjir, so'zga usta deb o'ylamagan ekan. Indamagandan qo'rq, deb shuni aytishsa kerak-da? Vaholanki bundan bir yil burun Zulfizar to'satdan ko'richak bo'lib qolgan, tabiiyki uni viloyatdagi eng nufuzli shifoxonaga zudlikda yetkazishgan va shaxsan Anatoliy Abramovichning o'zi uni operatsiya qilgan edi. Garchi shifoxonada uch kungina yotgan bo'lsa-da, u har qanday bemor kabi tabibiga bog'lanib qolishiga ulguragan, indamas, lekin ko'zlari kulib turuvchi, aqlliligi qarashlaridan ayon, ozoda, baquvvat qo'llarini goh uning peshonasiga qo'yib ko'rib, goh bemorining tomirini ushlab, uning necha yillardan buyon erkak qo'li tegmagan vujudini biroz seskantirgan, biroz titratgan, eng qizig'i, Zulfizar, kap-katta rahbar, shu birgina shifokorning qarshisida ojiz, behimoya qushchadek javdirab, undan ko'z uzolmay qolgan, shifokor atrofida girgitton bo'lib turgan hamshirayu navbatchi do'xtirlarga ko'rsatma berayotgan chog'dagina uning biroz bo'g'iq va bosiq gapirishini bilib olgan, bu ovoz uning quloqlariga ham xush yoqqan edi. Ammo oyoqqa turishi bilan shifoxonadan yov quvgandek, hatto xaloskori bilan xayrlashmay chiqib ketgandi. Ish! Ish kutib turmaydi! Mavsum! Reja pasayib ketibdi, e Xudo, uning yalpayib yotishi-chi? Topgan vaqtini-chi bu ko'richakning? Shu tariqa Zulfizar bu sirli shifokorni keyin bir yo' ikki bor g'alat antikish bilan esladi. Esladiyu, darhol uning suratini xotiridan o'chirdi. Bemanilik! Kasallik, arzimagan dard bo'lsa ham, baribir odamni ojiz qilib qo'yarkan, dedi. Ishga sho'ng'idi va uni butkul yodidan chiqardi-qo'ydi, tamom.

- Iltimos, Tolik, o'z aybingni oqlash uchun xudolarni gunohkor qilma, - hamon vaysardi в ЁњKadrv Ёќ, - undan ko'ra bo'ydoqman, uylantirib qo'y, keyin hech kimga qaramayman, de. Biz aybingni o'chiraylik, - u kula-kula Zulfizarga yuzlandi. - Malumot uchun yana bir narsa: u bo'ydoq. Lekin buni nuqsonlari ro'yxatiga ham, fazilatlar ro'yxatiga ham kirgiza olmayapman. Siz nima deysiz? Ikki erkakning bu tarzda tagdor gaplari Zulfizarning nafsoniyatiga tega boshladi. Ammo o'zini qo'lga olib, nim tabassum bilan jimgina turaverdi: boshqa nima ham qila olar edi?

- Darvoqe, bizning malikamizning ham boshlari ochiq. Agar farishtalar omin, deb, sizlar turmush qursalaringiz, sotsialistik jamiyatda ajoyib ibrat namunasi bo'lardi.

в ЁњBunisi endi oshib ketdi! Ishda kamchilikka yo'l qo'ygan bo'lsa, urishsin, so'ksin, ammo shaxsiy hayotiga bu xilda aralashuv!.. в Ёќ.

- Kechirasiz, Nikolay Vladimirovich, onamning tobB-lari yo'q edi. Dori olib bormoqchi edim, - u qovog'ini uyub oldi.

Gapi bo'lingani в ЁњKadrv Ёќga yoqmad:

- Shundaymi? Biz siz bilan tushlik qilmoqchi edik-ku. Ha, mayli, boring. Ammo bir shart bilan, ertaga o'zingiz bizni tushlikka olib

borasiz.
Zulfizar indamadi.
Eshik oldiga yetgach, sekingina bosh egib вЂњYaxshi qoB-linglarвЂќ dedi-yu, xonadan chiqib ketdi.
Moskvadan qaytgandan buyon biron gapi ikki bo'lmagan, qayerga borsa, hadik va hurmat bilan kutib olingan Zulfizar вЂњKadrvЂќning bugungi muomalasidan o'zini yo'qotib qo'ydi. Bir narsa deyin desa, butun obkam, jumladan Zulfizarning taqdiri ham uning qo'lida. Demasa, ochiqdan ochiq, bu xil вЂњhukmronlikвЂќ! Ammo bundan ham battari anov yaramas do'xtirning indamay, uni вЂњKadrvЂќning ilmoqli gaplariga o'lja qilib tashlab qo'yishi bo'ldi. O'zini kim deb o'ylayapti u? Xo'p mayli, gap nishabi bu tariqa kechmaganda, Zulfizar o'libdimi, fursatdan foydalanib, unga minnatdorchiligini bildirardi. Agar yodidan chiqqan bo'lsa, ular tanish ekanligini вЂњKadrvЂќning oldida aytardi. Ammo erkak bo'lib Zulfizarni tanishini yashiribdimi, demak, shunday bo'lishi kerak ekan-da. вЂњKadrvЂќning oldida shaxsiy munosabatlarni bildirish xavfli, ha, juda xavfli, buni Zulfizar yaxshi biladi. Shuning uchun ham do'xtirning o'zini bu tarzda tutgani ham... uni... Zulfizarni o'ylab qilgan harakatidir? Shunga qaramay, baribir tushlikdan keyin ham yuragining siqilishi tarqamadi. Kechga yaqin Xadicha keldi. Qizligida bir tutam chuchmomadekkina bo'lib yuradigan Xadicha turmushga chiqqach, to'lishib, ochilib ketgan edi. Uning chaqnaq turgan ko'zlariga qarab, Zulfizarning biroz kayfiyati ko'tarildi:
- Jo'ra akam seni nima bilan boqayapti, kundan kunga semirib borayapsan? - hazil qildi u dugonasini bag'riga bosarkan.
- Shu akang o'zini boqsayam... topgani maktabidan beri kelmaydi. Hali u yerini yamaydi, hali bu yerini. Eskini yamayman deb, erim bechoraning esi ketdi.
- Nimaning hisobiga buncha semirayapsan, bo'lmasa?
- O'zim-chi? Ikki stavka darsim bor. Kerak bo'lsa, oyligim direktornikidan ikki baravar ko'p.
- Unda yaxshi, xursandman. Kech bo'lganda oyligim ko'p deb, meni restoranga taklif qilib kelmagandirsan, hoynahoy?
- E-e, qo'ysang-chi, sening ko'nglingni topishga yo'l bo'lsin. Akangning dardi bilan yuribman. Yonimizda yangi maktab qurilayapti, shu yoqqa direktor qilib o'tkazib ber. Bo'lmasa, bechora erim shu eski maktabni songa solaman deb ajalidan besh kun burun o'lib ketadi. O'zi mazasi yo'q. Urushning asoratlari asta-sekin yuzaga chiqayapti.
- Yaxshilab qara, davolansin.
- O'n besh kun bir joyga borib dam olib kelsang, ruhingda qanday o'zgarishlar bo'ladi. Bu kishi to'rt yil qon kechib, jon olib, jon berib yurgan. Haliyam quloqlarim ostida snaryadlarning portlashlari, jon berayotgan asB-karlarning ingrashlari eshitilib turadi, deydi. Ming ehtiyotlab qaraganim bilan...
- Ha-a... - dugonasining gaplaridan og'ir bir so'lish oldi.
Ularning suhbatini telefon qo'ng'irog'i buzdi.
- Eshitaman, - Zulfizarning xayoli o'zida emas edi, вЂњKadrvЂќning ovozi eshitib, birdan xushyor tortdi. - Labbay, Nikolay Vladimirovich!
- Zinaida Abdiyevna, ishlayotganmidingiz?
- Ha, Nikolay Vladimirovich!
- Bugungi taklifim haqda o'ylab ko'rdingizmi?
Zulfizarning yuragi вЂњshuvвЂќ etib ketdi:
- Qaysi taklifingiz? - bilib turgan bo'lsa-da, bilmaganga oldi.
- Anatoliy Abramovich haqida aytayapman. Ammo lekin siz Tolikka juda yoqib qolibsiz. Tushlikdan beri o'n marta telefon qildi, qachon uchrashamiz, deb.
- Qo'ysangiz-chi, biz boshqa-boshqa dunyo odamlarimiz. Bunday gap bo'lishi mumkin emas.
- Iye, bu gapni siz aytayapsizmi? Aytayotganlaringiz o'zingiz targ'ib qilayotgan вЂњmillati, irqi, mansub bo'lgan dinidan qat'iy nazar...вЂќ degan ideologiyangizga qarshi emasmi?
- Nikolay Vladimirovich, iltimos qilaman, meni qiynamang. Men u kishining millati, irqi haqida bir narsa deyayotganim yo'q. Agar ko'ngil qo'ysam, xabashga ham tegishim mumkin. Ammo tushgacha tanishgan odamga kechqurun turmushga chiqa olmayman-ku.
- Zinaida Abdiyevna, sal oshirib yubormayapsizmi?
- Ha, balki oshirib yuborayotgandirman, meni kechiring, ammo...
- Bu siyosat uchun kerak, muhtarama Zinaida Abdiyevna. Siz bilan biz partiyaning askarlarimiz, har daqiqada o'zimizni unga qurbon qilishga tayyor turishimiz shart. Menimcha, shu bilan bu masala hal. Bundan Markazkomning ham xabari bor. Ular siz bilan bizni olqishlamoqda.
Zulfizarning ustidan bir chelak qaynoq suv quyilib ketganday bo'ldi. Uning rangi qumday oqarib ketgan edi. Nima bo'lganda ham!.. U qo'g'irchoqmidiki, istagan odamlariga sovg'a qilib yuborishaversa? Unga qarab, Xadicha ham qo'rqib ketdi.
- Kim, Zulfizar? Seni kimga berishmoqchi?
- Anatoliy Abramovich degan jarrohga! - o'ziga o'zi gapirayotganday ko'zlarini nomalum nuqtaga tikib javob qildi u.
- Anatoliy Abramovich? Viloyat shifoxonasidagi jarrohlik bo'limi boshlig'imi? - Xadichaning ko'zlari katta-katta bo'lib ketdi. - Axir u juhud-ku. Juhudga tekkan odamning yetti pushti kuyib ketadi. Sen shunga rozi bo'lasanmi?
- Boshqa ilojim yo'q.
- Nega, nega?! Bu sening hayoting, axir. Unga xo'B-jaB-yinlik qilishga hech kimning haqqi yo'q.
Zulfizar dugonasining g'azabga to'lib ketgan ko'zB-lariga mayuslanib qaradi:
- Aks holda ishdan ketishim kerak.
- Ket, ketaver. Nimaga kerak shu ish senga? Oddiy muallim bo'lsang ham, onang bilan bir o'g'lingni boqa olasan.
- Odamlar-chi? Ishini eplay olmagan uchun hayB-dashdi, deb kulishmaydimi?
- Juhudga tegsang-chi, bundan battar kulmaydilarmi?
Zulfizar indamadi.
- To'g'ri, yuzingga qarab kula olmasliklari mumkin, ammo ortingdan вЂњqah-qahвЂќ otib kulishadi, nafratlanishadi. Musulmonlik nomiga dog' tushirdi, deyishadi.
- Noilojman, Xadicha! Qolaversa, o'zga millat bilan taqdirini bog'lagan bir menmi? Xonlar yetti iqlimdan go'zal qizlarni olib kelib, uylanishgan. Men uning millati boshqa ekanligini aytmayapman. Uni umuman bilmayman, hatto durustroq gaplashib ham ko'rmaganman.

- Billsang... unga tegishig ham mumkinmi?

- Nima bo'пти? Dugonajon, men dahriyman, ammo sen sig'inadigan Xudoning oldida ham hamma bir xil maqomga ega banda. Muso yahudiylarning payg'ambari, Iso xristianlarniki, agar Olloh bu millatlarning bandalarini yomon ko'rganda, ularga payg'ambarlik maqomini bermagan bo'lardi. To'g'ri, men bu masalalarni unchalik chuqur bilmayman, ammo Xudo odamlarni o'zbek, o'ris, yahudiy deb ajratmaydi, ularning mo'min va munofiqiligiga qarab ajratar ekan, shuni bilaman.

- Onang bilan akangga nima deysan?

- Ularga tushuntirishni senga yuklayman.

- Yo'q.

- Bu hamma zamonlarda bo'lgan, azizam. Partiya mendan mana shu arzimas qurbonlikni so'rayotgan ekan, men bunga tayyorman. O'sha erkakni sevib, ardoqlab, odamlarga ajoyib oila namunasini namoyish qilib-laman.

Aslida Zulfizar bu gaplarni Xadichaga emas, o'ziga aytayotgan, bo'g'ziga tiqilib, isyon ko'tarayotgan o'zligini ishontirmoqchi bo'layotgan edi. Ammo har qancha o'ktamlik qilib, dadil-dadil gapirmasin, ich-ichidan nimadir uzilib, sillasi qurib borayotganini his etib turardi. Garchi bir tomondan qarshisida ochilishga shay turgan baxt va ishq eshigi qarshisida yuragi gupirlab urib yotgan bo'lsa-da, ammo ich-ichida nimadir beshafqat tarzda bu yoqimli titroqlarni v Ё Ё bu mumkin emas, aslo! v Ё Ё deb shart-shurt sidirib tashlayotgandek bo'lar, shu bilan birga u o'zini o'zi v Ё Ё men nima ham qila olardim, talab shunday v Ё Ё deb chalg'itishga urinar, biroq u ko'zlar, u nigohlar, u muloyim, ha, kuchli, baquvvat, ammo ipakdek mayin, vujudingga tegsa jon ato etgandek bir yoqimli tuyg'u uyg'otuvchi u qo'llar izmiga o'zini butunlay, bir umr tashlash istagi xiyonatkor iblisdek, uni mazaxlagan kabi tuyg'ularini nomalum, kishining esida qolmaydigan, ammo nima bo'lsa ham eshitgich kelaveradigan kuyni chalgan kabi tuyg'ularining torini v Ё Ё ting-ting v Ё Ё, v Ё Ё jing-jing v Ё Ё chalib qo'yar va Zulfizar shu torlar titrog'ining o'zidanoq barchasini qanday bo'lsa shundayligicha, sharoit oqimiga tashlab qo'yishni istar, ammo negadir dugonasiga ichini yorolmas, kuyovlikka nomzod bu juhud do'xtirga o'zi ham beetibor emasligini tan olish go'yoki o'zini o'zi sazoyi etishdek tuyulib, battar aybdorlik hissini tuyardi.

Ikki dugona o'rtasidagi uzoq davom etgan noxush jimlikni Zulfizarning o'ychan ovozi buzdi:

- Qishloqni sog'inibman. Sizlarning supalaringda yotib, yulduzlarni tomosha qilishlarni... Bor boyligimiz egnimizdagi bittagina chit ko'ylak bo'lsa ham bizdan baxtli odam yo'q edi o'sha kunlarda. Maktab-chi? Ko'ktosh kuydirib oqlatganlarimdan keyin qanday chiroyli bo'lib ketgan edi. Qaniydi, bir umr o'sha maktabda qolib ketganimizda...

- Ha...

- Endi esa, o'sha sochlari qirq o'rim Zulfizar yo'q. Men Zinaida Abdiyevnaman! Sen ehtimol, bilmassan, mansab, shon-shuhrat juda yomon narsa. Pastlikdan turib, cho'qqiga qarasang, cho'qqi juda chiroyli ko'rinadi, ko'nglingda havas paydo bo'ladi. Ammo cho'qqida turib, pastga qarasang, yuragingni vahima bosadi, tushib ketishdan qo'rqasan. Menda ham hozir shunday holat. Pastga tushishdan, odamlarga masxara bo'lishdan qo'rqaman. Buning ustiga, ruslarning bizning qizlarimizga past nazar bilan qarashlariga chiday olmayman. Bu yerda o'zbek qizlarining nimalarga qodir ekanligini ko'rb-satib qo'yish uchun ham o'tirishim kerak.

- Yaxudiya tegibmi?

- Qo'ysang-chi bu gapni. Uyam Xudoning bandasi, sen bilan men kabi teng huquqli fuqaro. Kel, yaxshisi biron kun qishloqqa boraylik, sizlarnikiga, biznikiga, maktabga!.. Hech kimga aytmay, sekingina... Qaytadan bola bo'lib... Agar o'sha supalaring turgan bo'lsa, bir kecha yotib ham qolamiz.

Xadicha unga g'amgin tikildi:

- Supaning egasi o'tib ketdi-ku, supa qolarmidi? Onam sho'rlik har yili somonshuvoq qilib, yaltillatib qo'yardi. Akalarim buzib, joyiga yog'ochdan karovat qilishdi.

- Mayli, o'sha karovatda yotamiz. Osmon, yulduzlar turibdimi, axir?

- Mayli. Sen vaqt topsang agar...

- Menga qara, Xadicha, enamga sen ayt, tushuntir. O'quvchilaringga tushuntirganday, hijjalab, ishonarli qilib!..

- Ilojim yo'q, - ko'zlarini yumgancha bosh chayqadi Xadicha, - buni mendan so'rama.

U bu gapni shundayin qatiyat bilan aytdiki, Zulfizar boshqa har qanday o'tinch nojoiz ekanligini tushunib yetdi. Qahri keldi.

v Ё Ё Tumshug'idan narini ko'rmaydi. Butun dunyo bir-biri bilan quda-anda bo'lib yotibdi. Bu esa bir erdan chiqqan dugonasi uchun fojia yasaydi. Shu kursida o'tirib tursam, eng avvalo shularning obro'yi emasmi? v Ё Ё

- Xo'p, aytmasang, o'zing bilasan. Faqat juhud ekanligini ham aytm. Rus deb o'ylay qolishsin.

- Bir kun kimdir haqiqatni aytadi-ku, baribir.

- Aytishganda kuyovlariga ko'nikib bo'lgan bo'ladi.

...Ertasi kuni Anatoliy Abramovichning o'zi qo'ng'iroq qildi:

- Allo!..

- Eshitaman... - Zulfizarning ovozi titrab ketdi. Garchi ular deyarli gaplashishmagan bo'lsa-da, bu odamning ovozini bir og'iz so'zidan tanigan edi.

- Assalomu alaykum, Zinaida Abdiyevna! Sog'-salomatmisiz? Men Anatoliy Abramovichman.

- Tanidim.

- Biz bir uchrashishimiz kerak, Zinaida Abdiyevna!

- Nega?

- Sizga aytadigan muhim gaplarim bor.

- Hamma gapni siz uchun aytib bo'lishgan, - garchi suhbatdoshining taklifi unga juda yoqayotgan bo'lsa-da, Nikolay Vladimirovichning takaburligi juda nafsoniyatiga tekkanidan mavridi kelganda chaqib-chaqib olgisi kelayotgandi.

- Qo'ying, bu gaplarni. Mening aytmoqchi bo'layotganlarim butunlay boshqa narsa. Iltimos, yo'q demang.

- ...

Kechki payt shahar chetidagi kichkinagina hovliga borishdi. Ularni yoshi o'tinqiragan bir kishi kutib oldi. Hovli shinam va orasta edi. Hovli o'rtasiga qo'yilgan aylana stolga oppoq dasturxon yozilib, unga gul, ho'l mevalar va ikkita sham qo'yilgan edi. Ular ichkariga kirishgach, kutib olgan kishi uzr so'rab, v Ё Ё zarur ishlarim bor edi v Ё Ё deb, hovlidan chiqib ketdi. Anatoliy Abramovich chaqqonlik bilan iltifot ko'rsatib, uni stolga o'tirg'izdi, o'zi ham ham kostyumini yechib, o'rindiqning yelkasiga kiygizib qo'ydi-da, oshxonadan taom suzib keldi.

- Ziravorlar solib dimlangan baliq!..

- Baliq?! Bu taomni yaxshi ko'rishimni qayerdan bildingiz? - hayron bo'lgan Zulfizar xursandchiligini yashira olmadi. Yo'q,

sevimli taomi dasturxonga tortilganidanmas, kimdir uning ko'nglini topish uchun shunchalik o'lib-tirilayotgani uchun xursand edi.

- Harqalay, do'stingiz bu taomni yaxshi ko'rishimni bilmas edi.

- Ha, u bilmas ekan. Ammo shuni unutmangki, razvedkachilik qobiliyati bo'lmagan odam jarroh bo'la olmaydi. Siz juda katta odamsiz, siz bilan restoranlarga borib bo'lmasa... Shunday bo'lgach, shu uyga olib kelishga to'g'ri keldi, bu tog'amning uyi, u yolg'iz yashaydi, o'zgina bo'lsa ham kayfiyatingizni ko'tarar deb, surushtiruv ishlarini ham olib bordim... - U biroz engashib, qo'lini Zulfizarning qo'llari ustiga qo'ydi. - Meni kechiring, Zinaida Abdiyevna... - Zulfizar shoshib qo'llarini tortib oldi. B-- Men sizga bu tarzda erishishni sira ham istamagan edi. Menga majburiyat bilan emas, sevib-sevilib turmushga chiqishingizni istayman.

Sababi... Men sizni yaxshi ko'raman.

Zulfizarning potirlab ketayotgan yuraklari ko'ksiga sig'may, bug'ziga tiqildi. Qarshida titrab-qaqshab o'tirgan odam garchand o'zga millat odami, o'zga bir tilda izhori dil aytayotgan bo'lsa-da, butun vujudini yoqimli titroq egallab olgan, nazarida u bu daqiqalarni, bu odamni bir umr kutgan-u, endigina yetishgandek edi. U indamay yerga qaradi, nima desin, nima ham deya olar edi?

- Agar yuragingizda menga nisbatan hech qanday rag'bat bo'lmasa, Kolyaga o'zim aytaman, sizga ortiqcha tixirlik qilmaydi.

Ammo men judayam istaymanki, menga bir imkoniyat bersangiz, sizni baxtiyor qilish imkoniyatini... Axir siz juda go'zalsiz, siz umringizni, o'zingizni bu xilda ishga fido qilishingiz aslo mumkin emas, siz sevishingiz, sevilishingiz kerak. Odam axir robot emas, jonli mavjudot...

Ular uzoq gaplashib o'tirishdi. To'g'rirog'i, Anatoliy Abramovich gapirdi, u tingladi.

Oysulton xola yangi kuyovni ko'rganda Zulfizar ilk bor qishloqqa yalang'och oyoqlarini shirdaytirib, tizzasidan baland ko'ylak kiyib borganida Ulkan kampir tushgan holatga tushdi.

- Bu yana nimasi, qizim? - deya oldi zo'rg'a.

- Men uni yaxshi ko'rib qoldim, ena.

- Endi o'risga tegasanmi, bolam, elga kulgu bo' B--lib?..

- Ena, Oллоhning oldida o'ris-o'zbek degan gap yo'q, hammamiz Xudoning oldida birdek bandamiz.

Oysulton xola indamadi. Nima ham desin? Yosh bola bo'lsa ekan, qo'lidagi o'yinchog'ini olib qo'ysa yoki ichkari xonaga qamab qo'ysa?

Shu bilan necha kun gapirmadi, bir ko'ngli qish B--loqqa ketib qolay, dedi, shu qizning ham, tepakal kuyov bo'lmishning ham yuzini ko'rmayin, deb. Ammo nevarasini ko'zi qiymadi. Zulfizar sahardan yarim tungacha ishda, bola ovora bo'ladi.

Oradan bir hafta o'tib, eshigi ohista taqillab, kuyov bo'lmish kirib keldi:

- Onajon, assalomu alaykum, - dedi u o'zbek tilida duduqlana-duduqlana.

Oysulton kampir juda qaysar ayol edi. Yuzini teskari burdi.

Kuyov bo'lmish momoning o'ziga o'xshash soddagina isyonidan kuldi:

- Men sizni choyga taklif qilgani keldim, - yana bo'g'inlab-bo'g'inlab o'zbekcha gapirdi.

Uning izidan kirgan Zulfizar ham kuldi:

- Enajon, kuyovingizning qo'lida o'ttizza o'zbek ishlaydi. O'zbekistonga ko'chib kelganiga o'n sakkiz yil bo'lgan. Bu odam shu paytgacha bir og'iz ham o'zbekcha gapirmagan. Mana, siz uchun qiynalib bo'lsa ham o'zbekcha gapiryapti. Yuring endi, birga choy ichaylik.

- Ichaveringlar!

- Turmasangiz, ikkalamiz ikki qo'ltig'ingizdan dast ko'taramiz-da, dasturxonning boshiga olib boramiz. Keyin...

Rostdan ham ustiga bostirib kelayotgan qizi bilan kuyov bo'lmishni ko'rib, momo sapchib o'rnidan turdi. В Ё Ё Endi shunga qo'lini ushlatib!.. В Ё Ё

U yana yon bosdi. Nima qilsin, bolasi-da.

Yarim tun. Palataning qiya ochiq derazasidan kirayotgan muzdek shabada darpardalarni ohistagina hilpiratib o'ynaydi. Qizi to'shakda g'ujanak bo'lib uxlab yotardi. Ko'ngli notinch, asablari tarang kishilar g'ujanak bo'lib yotadi, deb eshitgan edi. Buning ko'ngli nimadan notinch?

Uning yotib qolganidanmi? Axir bu birinchi marta yotib qolishi emas-ku? Yoki erining xiyonatlarini sezib yurganmikan?

Zulfizar qizini hech qachon ojiz, ilojisiz, notavon his qilmagan. Sora onasiga o'xshash o'ktam, g'ayratli qiz bo'lib o'sdi. Otasidan tadbirkorlikni olgan. Yosh bo'lsa ham В Ё Ё Yo'q, hech vaqom qolmadiv Ё Ё degan joyda bir yil o'ynab-kulib yashashga yetgulik jamg'armasi bo'ladi hamisha uning. Eri bo'lsa aksincha, juda ko'ngilchan, bo'shang. Topgan besh-to'rt so'm maoshini ikki kunda sarflab qo'yib, keyin bo'm-bo'sh cho'ntak bilan bo'shshib yuraveradi. Shunday vaziyatda bolalar undan pul so'rasa, bu pul undan emas, xotinidan chiqsa yoki keyingi safar bolalar undan emas, onalaridan pul so'raganda, o'zicha eziladi, asabi buziladi. Aybni o'zining bo'shangligidan emas, xotinidan axtaradi. Bordir albatta, Soradan ham ayb o'tgandir. Hamisha pulsiz shumshayib o'tiradigan er bilan hisoblashmagan joylari ko'p bo'lgandir. Ammo u eri aytganidek hamma narsadan pulni ustun qo'yuvchi molparast, takabbur, bemehr ayol emas. Agar erining shunday, uning to'shagida, yaqin dugonasini undan afzal bilib, unga xiyonat qilganini bilsa!..

В Ё Ё Yo'q, u buni ko'tara olmaydiv Ё Ё o'yladi bir olam an B--duh bilan Zulfizar.

Azim shaharda, to'rt xonali uyda ikki bolasi bilan yolg'iz, so'ppayib qolishni tasavvur qilib, ko'ngli g'amga to'lib ketdi.

Shundaygina borib, qizining sochlarini silagisi keldi, ammo qaniydi o'rnidan turolsa, bemajol qo'llari uning boshiga yetsa ekan.

- O'v-v, - ichida bir bo'ri В Ё Ё o'v Ё Ё tortdi. Og'zidan bir alanga chiqib ketganday bo'ldi. - O'v-v!

Uning omon-omon davronlariga yo'qlov aytayotgan bo'ri ham o'zi kabi keksa va notavon edi.

O'zining oyoqlari hamisha uzangida bo'ldi, hamisha qo'lida jaraq-jaraq pul edi, hech qachon bekor, yolg'iz qolgani yo'q. Yarim tunda ishdan kelib, hali vujudida simillab turgan charchoqlar tarqamasdan ishga yugurardi. Ammo oyoqlari uzangida, o'zi shunchalar band bo'lsa ham yuragidagi huvullagan bo'shliq hamisha o'zini bildirib turardi. Ayniqsa Botir giyohvand bo'lib qolgach, bu bo'shliq hamisha yutib yuboray-yutib yuboray, derdi. Yolg'izlik yolg'iz xudoyimga yarashgan deb, bejiz aytishmagan ekan. Shu bolaning dardi-azobi uning joni-jahonini ming bo'lakka bo'lib tashladi. Stolni bir mushtlagan dam ming B--lab erkak yig'ilgan majlis sapchib turadigan amaldor xonim o'g'lining ismini eshitganda, ming tomonda sochilib yotgan jonini bir joyga jam qilib, zo'rg'a o'rnidan turadigan bo'ldi. Shunday chiroyli uy, mashina, mansab, tavoze-takalluflarsiz oddiygina paxsadevor uyda, oddiygina qishloq muallimasi bo'lib yashasa, yonida o'g'li sog'-omon bo'lsa! Atrofida kelini, nevaralari... Otalari ishdan qaytganda

chopqillab oldiga chiqishsa...

Uyda Zulfizarning besh-oltita portretidan boshB-qa hech narsa qolmadi. Qo'lga ilinadigan narsa borki, o'g'li o'g'irlab chiqib, sotdi. Xumori tutib, qaltirab qolgan dam Zulfizarning o'zi, devorda osig'lik gilamimi, qulog'idagi sirg'asimi, bolasiga ichi achiganidan o'zi bergan kunlari ham bo'ldi.

Shuning uchun ham kuyovining qilmishiga вЂњe-e!..вЂќ deya olmadi. Ko'z o'ngiga qizi, nevaralari keldi. Yelkalarida o'zlariday navqiron g'ussa bilan... Uning o'zi yuragi tamom bo'lgan sargardon ayol edi. Endi Soraning g'amini ko'tara olarmidi.

* * *

Kechki payt вЂњBirinchivЂќ chaqirtirdi. Xonada вЂњIkkinchivЂќ, вЂњKadrvЂќ o'tirgan edi. Zulfizarga negadir вЂњBiB-irinchivЂќning kayfiyati yo'qqa o'xshab ko'rindi. Hamma yig'ilgach, barB-moqlari bilan silliq sochlarini orqaga tarab-tarab, o'rnidan turdi:

- O'rtoqlar, yuqoridan telefonogramma oldik. Xo'sh, unda bizning etiborimizdan chetda qolib, sotsB-iaB-listik turmush tarzimizni buzib kelayotgan bazi diniy rasm-rusumlar, odat va ananalarni barham toptirish vaqti kelganligi aytilgan. Haqiqatan yo'lda ketaversangiz, yo'lning ikki tomoni yalov ilingan xodaga to'lib ketgan. вЂњHa?вЂќ desangiz, вЂњShahid!вЂќ deyishadi. Yo'ldami, cho'ldami biron halokat tufayli biron o'lsa, yerga tomgan qonini qirib olib, yo'lning chetiga shu qirindini ko'mib, atrofini o'rab, yalov ko'tarib qo'yishadi. Odam o'lmagan, odamzodning qoni to'kilmagan yer bormi? Har bir shahid o'tgan odam uchun to'rt-besh kvadrat joyini o'rab, yalov ko'taraversak, yer yuzida yashash, dehqonchilik qilish uchun emas, oyoq qo'yishga ham joy topilmay qolar edi. Ziyoratgohlar bor: вЂњSulaymon otavЂќ, вЂњKokildor otavЂќ, вЂњTo'qson otavЂќ va hokazo. Bu вЂњotavЂќlar kim bo'lgan? Ular nima karomat ko'rsatgan, xalq uchun nima xizmat qilgan? Buni hech kim bilmaydi, qiziqmaydi ham. Har chorshanba kuni kim tovuq qo'ltiqlab, kim qo'y yetaklab, davlatning ishini tashlab, shu ziyoratgohlar atrofida in qurgan tekinxo'rlarni boqish uchun yuguradi. Hay, birodarlar, masalan, Sulaymon ota qayerda yashagan-u, bu yerda uning qabri nima qiladi, deydigan biron aqlli odam yo'q.

Mana shunday tushunmovchiliklarga barham beradigan vaqt keldi. Bir tomchi qon uchun ko'tarilgan yalovlar olinib, o'rni ijtimoiy foydali yerlarga qo'shilsin. Kimligi nomalum вЂњotavЂќlarning ziyoB-ratgohlari joylari tekislab tashlansin.

Hayit kunlari qabristonlarimiz yig'i-sig'i qilgan xotin-xalajga to'lib ketadi. Bu kunlari qabristonga chiqish man qilinsin. Undan ko'ra yilda bir kun xotira kuni deb elon qilinib, yurtimizda yashaydigan hamma millat vakillari qabristonlarga borib, o'tganlarni xotirlasin, qabr atroflarida obodonlashtirish ishlarini olib borsin.

Dindorlar in qurib olgan machitlar yopilsin.

Zinaida Abdiyevna! Bu kecha mana shu fikrlar singdirilgan ajoyib bir maruza tayyorlaysiz. Ertaga viloyat bo'yicha barcha tashkilot rahbarlarini, faollarni yig'amiz. Bir yarim ming kishilik yig'ilish bo'ladi. Ertalab soat yettida maruza bilan tanishib chiqishim kerak.

Yana bir gap. Vafot etgan birodarlarini so'nggi yo'lga kuzatish, ko'mish marosimlari haqida ham o'yB-lab ko'radigan vaqt yetdi. Birov o'lsa, jag'-boshini boylab, yalang'och holda yotqizib qo'yamiz. To' uzoq-yaqin qarindoshlar yig'ilib, qabr tayyor bo'lguncha o'lik shu holda yotaveradi. Birov yarim yaqini so'nggi bor ko'rib qolay deb, yuzini ochsa, qo'rqanidan yuragi yoriladi. Biz ham chiroyli kiyimlar kiygizib, munosib tarzda so'nggi yo'lga kuzatsak bo'lmaydimi? Yigirma metr oq surpga o'rab, qabrga tashlaymiz-u, qaytamiz. Uch-to'rt yil o'tmay qor-yomg'ir ostida nam tortgan lahad o'yilib, ichiga odam tushib ketadi doim. Nima ko'p, yog'och ko'p. To'rtta yog'ochdan ajoyib tobut yasash mumkin. Nahot, bir umr mehnat qilgan insondan to'rtta yog'och aziz bo'lsa?! Janoza nimaga kerak, hech kim tushunmaydigan allaqanday arabcha so'zlarni o'qib o'tirmasdan, chiroyli bir miting o'tkazaylik, marhumning fazilatlarini eslaylik. To'g'ri, bu takliflarni ertangi yig'ilishda aytish shart emas, ammo o'z birlarimiz ichida namuna sifatida qo'llab, xalqni shunga tayyorlash, o'rgatish kerak.

вЂњBirinchivЂќ gaplarini tugatgach, marraga yetguncha nafasi bo'g'ziga tiqilib qolgan sportchidek chuqur nafas oldi, so'ng вЂњbo'ladimi?вЂќ deganday, вЂњIkkinchivЂќga qaradi. вЂњIkkinchivЂќ вЂњixtiyoringizвЂќ deganday yelka qisib qo'ydi.

- Tushunarlimi? - вЂњBirinchivЂќ nimagadir shoshardi. - Hech kimda boshqa taklif bo'lmasa, yig'ilish tamom.

- Shoshmang, - muloyimgina ohangda uni to'xtatdi вЂњKadrvЂќ: - Balki etirozlar bordir?

Hech kim etiroz ham bildirmadi.

Ertasi kuni yig'ilish juda jangovar ruhda o'tdi. Har bir faolga qat'iy topshiriqlar berildi. O'zaro pichir-pichirlarni aytmaganda hech kim etiroz bildirmadi. Ammo ijro qiyin bo'ldi. Har bir yalovning ortidan o'nlab odam bosh ko'tardi. Ziyoratgohlarni buzish undan ham qiyin bo'ldi. Bironta o'zbek bulCHdozerchi bu ishni o'z zimmasiga olmadi. Odamlar orasida вЂњFalon ziyoratgohning ustiga bir o'ris bulCHdezorini solgan ekan, qayerdandir ikki ilon chiqib, bo'yniga chirmashibdi. Bu ishning boshida turgan partkomning badani ola-chalpoq pes bo'lib qolibdiвЂќ kabi vahimali gaplar tarqaldi.

Hayitdan bir kun avval hamma qabristonlar faollarga bo'lib berildi: вЂњHayit kuni qabristonga hech kim chiqmasin. O'tganlar faqat Xotira kuni ziyorat qiB-linadivЂќ.

Zulfizarga o'zlariga yaqinroq qabristonni berishdi. Faollar yaxshi ishlashibdi, katta qabriston vahimali tarzda huvullab yotar edi.

Faqat qabB-ristonning bir burchagida besh-olti qoraygan ko'rindi. Zulfizar ancha berida turgan bo'lsa ham ularni darrov tanidi.

Ha, ular qo'shni ko'chada yashashardi. Onasi hamshira edi, o'tgan yili вЂњO'g'lim institutni faqat вЂњ5вЂќ baholarga bitirib keldi, bir durustroq ish topib bering, yolg'izgina bolam, bori-yo'g'im, bor davlatim shuвЂќ, deb Zulfizarning oldiga kelgan edi.

Zulfizar ham hafsala qilmadi. Ayol bir safar o'g'lini ham yetaklab keldi. Yaqinda avtohalokatga uchrab!..

Onaizor qabrni quchoqlab, dod-faryod solar, atrofidaqilar uni qabrdan bir amallab ko'tarib olar, u yana yulqinib o'zini qabr ustiga otar edi.

Zulfizar chuqur xo'rsindi. Ko'nglida zimmasiga yuklangan topshiriqqa nisbatan etiroz paydo bo'ldi: вЂњBu sho'ridaga o'g'lingni bugun emas, xotira kuni yodlavЂќ, deb qanday aytish mumkin! вЂњDo'ppraygan tuproq uyumlari oralab, bir-bir bosib iziga qaytib borarkan, xuddi ortidan biron quvlayotganday ko'ngliga vahima tushdi, qadamlari tobora tezlashib, oxir oqibat qabristondan deyarli chopib chiqdi: вЂњKimni qachon ziyorat qilish har kimning o'z xohishi emasmi? Nahotki shu masalada ham partiyadan izn so'rash kerak bo'lsa?вЂќ

Eng yomoni o'sha kunlar onasi omonatini topshirib qo'ydi. Garchi onasi bilan loaqal haftada bir marta o'tirib, durustroq gaplashishga vaqt topa olmagan bo'lsa ham onasi hayotidagi eng katta suyanchiq ekanligini ko'zlari butunlay yumilgan kun bildi. Shoshib qoldi. Avval akasiga, so'ng ishxonaga qo'ng'iroq qildi: вЂњOnamdan ajralib qoldimвЂќ.

Akasi, yangasi, jiyanlari bilan oldinma keyin uyiga bir qishloq odam kirib keldi. Keksa xolasi izillab yig'lab, вЂњVoy, egachim-

ey, haliyam shunday yotibdimi? Chiqib turinglar, yechintirib, mahram suvga olish kerak. Deb hammani chiqarib yubordi. Bir payt uni hovlidan so'rashayotganini aytishdi. Nimagadir bir noxush xabarni sezganday yuragi v'ebshuv'ebk etib ketdi. Ostonada kimdir uni supaning bir chetida o'tirgan v'ebBirinchiv'ebk'ning yoniga olib bordi. Kun issiq bo'lishiga qaramay qop-qora kostyum-shim kiyib olgan v'ebBirinchiv'ebk uni hovli chetiga boshladi:

- Zulfizar, - u hamisha v'ebZinaida Abdiyevnav'ebk deb murojaat qilardi, - singlim, bandachilik... Ona dunyodagi eng ulug' davlat, eng aziz nemat, uni berish oson emas. Endi bardam bo'ling, Xudo sabr bersin.
- Rahmat.

- Xo'-o'sh, meni kechiring, topshiriq desammi, omonat desammi, bir gap bor. Shu... momoni yangichasiga dafn etsak. Kafan o'rniga chiroyli ust-bosh, tobut... Janoza o'rniga miting... Nima deysiz?

Zulfizarning oyoqlari ostidagi yer siljib ketganday, boshi aylanib ketdi. U bor kuchini yig'ib, muvozanatini ushlab qoldi. Onasining yuraklari urishdan to'xtagan dam eng katta davlatidan ajrab qolganidan qancha ezilsa, muqarrar aytiladigan mana bu topshiriqni o'ylab, undan ko'proq ezilgan edi. Onasi aziz mehmon, u qachon bo'lmasin, kuzatishini bilar edi. Ammo bu xilda kuzatishni istamas edi. U yoshga to'lgan ko'zlarini iltijo bilan v'ebBirinchiv'ebk'ga tikdi:

- Men shu lavozimni deb enamni juda ko'p xafa qildim. Juhudga tegdim, vaqt-bevaqt yonlarida bo'la olmadim, hamdardlik qila olmadim. Endi so'nggi yo'lga ham ularning irodasiga qarshi holda, elga hanB'goma qilib kuzataymi?
- Singlim, bu rahbarlarning topshirig'i... Men bir ijrochiman, xolos.
- Aka, - dedi emranib. Rasmiy qilib v'ebSaidmurod Kamolovichv'ebk deb o'tirishga holi yo'q edi. Yuraklari ilojsizlikdan o'rtanib ketdi, - axir bu viloyatda sizdan katta kim bor? O'zingiz musulmon bo'la turib, nega mening enamning musulmonchiligiga qarshi borasiz?

- Meni kechiring, ammo siz bunga majbursiz.
- Menga qarang, men o'lsam, ish libosida, yog'och tobutga istasangiz, temir tobutga solib, janoza o'qitmay, miting o'tkazib, ko'ming. Lekin iltimos, enamga tegmang. Enamning partiya hech qanday aloqasi yo'q.
- U sizning, partiya yetakchisining onasi... Agar topB'shiB'riq bajarilmasa, sizni ham, meni ham qo'B'yishB'maydi.
- Ijzat bering, jon aka, enamning hurmatini o'RB'niga qo'yayin.

v'ebBirinchiv'ebk bosh chayqadi:

- Iloji yo'q. Ayting, momoning eng chiroyli liboslarini kiydirishsin. Tobutga buyurtma berilgan. Endi boravering, - kotib v'ebgap tamomb'ebk deganday iziga burilib, nari ketdi.

Zulfizar xuddi yosh bolaga o'xshab turgan joyida o'tirib olib, yer tepib, baqirib-baqirib yig'lagisi keldi. Bu qandayin xo'rlik axir, na onasini munosib tarzda kuzata oladi, na yig'lab alamidan chiqqa oladi? Shumi unga partiya bergan imtiyozlar! Ona bo'lib, to'rt og'iz gurungiga muyassar bo'lishi qiyin bo'lsa-da, qizining yurish-turishidan, martabasidan suyunib yurB'gani uchun unga atalgan mukofot shumi? O'shanda birinchi bor o'ng yelkasida pichoq sanchilganday og'riq tuydi, og'riqqa chiday olmay ingrab yubordi. Og'riqning zo'ridanmi, bo'g'ziga tiqilgan alamdanmi, ko'zlaridan duvillab yosh to'kildi. Turgan joyida unsiz yig'lab-yig'lab, so'ng birdan o'kirib yubordi:

- Ena-am, voy enam, enam-am! Ena-ajonim!

Yuragining tub-tubidan yana bir o'kirik chiqdi:-

- Voy, sho'r boshim... Notovon jonim...

Endi u o'ziga yo'qlov aytayotgan edi.

Kimdir kelib, qo'tlig'idan kirdi. Suyab, onasining boshiga olib kelishdi. U xonaga kirishi bilan xonaning shiplari yig'idan ko'tarilib ketganday bo'ldi.

- Voy, enam-ey...
- Voy, xolajonim!

U xona o'rtasida bir muddat serrayib turdi-da, so'ng onasining kiyimlari turadigan shkafga yuzlandi. Shkafni ochib, bir tekis ilinib turgan kiyimlar orasidan onasi yaxshi ko'radigan chinor bargli pombarxit ko'ylakni, faqat to'ylarda yopiladigan oppoq ro'molini oldi. Keyin marhumani o'rab o'tirgan xotin-xalajga qarab: v'ebEndi, egachilar, yarim soatga chiqib tursangizlar, onamni so'nggi yo'lga tayyorlaylikv'ebk, dedi mardona.

- Uyi tayyor bo'ptimi? - xolasi v'ebyal'v'ebk etib unga qaB'radi.
- Ha, - gapni qisqa qildi u.

Xonada o'n chog'li ayol qoldi. Xola ulardan uchovini tanlab oldi:

- Endi, xafa bo'lmanglar, singillarim, eti, suyagi degan gap shu yerda kerak. Mayyitni o'zining suyagi yuvishi kerak.
- Men begonamanmi? Mening ammam bo'ladilar, - izilladi chiqarib yuborilayotgan yangasi. Uning otasi marhumaga amaki edi.
- Ha, sen ham singil eding, - dedi xola uning gapini bo'lib. - Lekin hozir sen kelinsan. Sendan tortinadi. Chiq. Yuvmasang ham, shuncha yil birga yashading, xizmatini qilding. Nima olgan bo'lsang, shu xizmatlardan olgansan. Endi, tashqariga chiq.

Kiyintirar palla yana xola janjal qildi:

- Ibi, bu nima ko'rgilik? U dunyoda bunga pombarxit ko'ylak nimaga kerak?
- Shunday qilish kerak, - dedi Zulfizar imkon darajasida xotirjam, buyruq ohangida. - Butun viloyat bo'yicha rahbarlar o'tiribdi. Toshkentdan ham odamlar kelishadi.
- Kelishsa kelishaversin, opamning nima kiyishi bilan ularning qanday ishlari bor?
- Chetga o'ting, xola! - qo'lga yopishayotgan xolasini bir siltab nari surib qo'ydi-da, onasini kiyintira boshladi. - U mening enam, uvol-savob ham meniki.

Onasi juda so'lim ayol edi, kiyintirishgach, yuzlariga qizil yugurganday yanada suluv ayolga aylandi. Qip-qizil duxoba ko'rpa ustiga yotqizilgach, endigina uyquga ketgan malikaga o'xshab qoldi.

Zulfizar uning ustidagi yopinchiqni ko'ksiga tortib, yuzlarini ochib qo'ygan edi, bir chetda to'rsayib turgan xola v'ebdodv'ebk deb yubordi.

- Yuvilgandan keyin yuzini nomahramlar ko'rishi mumkin emas, hay kofir!
- Xola, iltimos, meniyam, o'zingizniyam charchatmang. Men bir narsa deyaqmanmi, demak, shuni bilib aytayotgan bo'laman va aytganimni qilaman.
- Bilganingni qil. Lekin odam emas ekansan. Tupurdim sening mansabingga, - xola yig'lab tashqariga chiqib ketdi.

bog'lab olgan akasi kutib turardi. Ko'zlari qizarib ketgan aka qovoqlarini uyub, ichi burab og'riyotgan odamday engashibgina

turardi:

- Enamni Sulaymon otaga qo'yamiz. Hamma suyagimiz o'sha yerda. Bu enamning so'nggi vasiyati.

- Shu yerdan qabr tayyorlashayotgan ekanlar-ku.

- Yo'q. Enamning so'nggi tilagini bajarmaslikka hech kimning haqqi yo'q. Men enamni qishloqqa olib ketaman. Ena meniki, obkoming mening ishimga aralashmasin.

Boshqa gapning hojati yo'q edi.

- O'zingiz bilasiz, aka. Kattaga bir og'iz aytib qo'lib-ying.

- He-e, sening kattangni ham, kattachiligingni ham!.. Kun qizimasdan yo'lga tushish kerak. Umidvorlar xo'shlashib olsin.

...Qip-qizil duxoba yopilgan yog'och tobut mashinaga ortilganda Zulfizar o'zida yo'q edi. Janozasiz yo'lga chiqqan marhumani kuzatgani kelganlar yoqa ushlab, eshikka behol suyanib qolgan Zulfizarga nima deb tasalli berishni bilmasdi.

Chiroyli mashinalarda qabriston tomon yo'l olgan kattalar yuk mashinasining oyog'iga qarab o'tirishni lozim topmasdan oldinga o'tib ketishdi.

Qabristonda ancha kutib qolishga to'g'ri keldi. Havo juda issiq, qabrlar ustida qovjirab turgan o't-o'lanlar azaliy dunyoning mahzun qo'shig'ini aytib yotardi. Tiriklik chog'larida uy-joy, bola-chaqa, ot-ulov, mol-holi bilan dunyo-dunyo maydonlarga sig'may, o'rni kelganda bir parcha yer uchun talashib-tortishib, yoqa yirtishib yashagan odamlarning har biri bu yerda nari borsa, ikki qulochgina yerga qanoat qilib, jimgina sukut saqlab, yonma-yon yotishar edi.

Mitingga yig'ilganlar betoqat bo'la boshladi. Qo'shning qo'shniga soyasi tushmaydigan bu dargohda shohu gado barobar, ming lavozimdor kishi kelsa ham hech kim o'rnidan turib kutib olmaydi, bu saltanatda yol'gon xushomad, tavozelar yo'q. Tund sukunat, dim havo yig'ilganlarning yuragini siqib yubordi. Nihoyat ko'cha muyulishida yuk mashinasi ko'rindi. Mashinaning izidan bir to'p qishloqdoshlar yetib kelishdi. Qabriston darvozasi oldida mashinadan hashamatli yog'och tobut o'rniga ustiga duxoba yopilgan ixchamgina tol tobut tushirildi. Qora kostyum-shimlarda terlab ketgan v Ёkattalarv Ёk nima gapligini anglab yetguncha, tobut odamlar yelkasida nam tuproq uyulib turgan qabr boshiga yetdi. Mamaraim mayyitning ustiga yopilgan duxobani ko'tardi, tol tobutning ustida g'ojari gilamga o'ralgan marhuma bir tutam qizg'aldoqdek bo'lib yotardi.

Hammasi tushunarli, o'g'il onasini o'z uyiga olib kirib, qadimiy urf-odatlar bo'yicha yuvib-tarab, kafanlab, janoza o'qitib chiqqan.

- Marhumaning tog'asi bormi? - so'radi qishloqB-ning oqsoqoli.

- Men tog'asining o'g'liman, - polvon kelbat bir yigit tobutning yoniga keldi.

- Mening otam ham tog'a edi u kishiga, - yana bir yigit uning yonidan turdi.

- Mayyitni uyiga qo'yish sizlarning xasmingiz, - oqsoqol ularga izn berdi.

G'ojari gilam ichidan oppoq g'umbak chiqdi. ToB-g'aB-larning biri qabr ichiga kirdi, ikkinchisi ichkariga uzatdi. Shu topda olomon go'yo ikkiga bo'lingandek edi. Biri aytgani bo'lmaganidan qahrlangan, ikkinchisi qavmini munosib tarzda kuzata olganidan mamnun. Ammo bu yerda yana bir uchinchi toifa ham bor ediki, ular bir tomondan bir begunoh mushtiparning bekafan, bejanoza ketmaganligidan yengil tortsa, ikkinchi tomondan ertaga bo'ladigan muqarrar gap-so'zlarni o'ylab, sarosimaga tushib turishar edi. Bular bir chetda goh qizarib, goh bo'zarib turgan v ЁBirinchiv Ёk va uning yonidagi mahalliy rahbarlar edi.

v ЁIkkinchiv Ёk zahrini yutib tura olmadi:

- Bu sizning v Ёg'oyav Ёkngizmi? Bu o'lkaga madaniyat olib kirish nihoyatda qiyin ekanligi yana bir bor isbotlandi.

- Mening hech narsadan xabarim yo'q, - shosha-pisha o'zini oqladi v ЁBirinchiv Ёk.

Miting ham sovuqqina o'tdi. Hamqishloqlar miting yopiq deb elon qilingandan keyin qabr boshida qolishdi. Qishloq oqsoqoli birinchi fotihani o'qigandan keyingina odamlar tarqaldi. Qabr boshidan ketishar ekan:

- Odamlar, marhuma qanday inson edi? - deb so'B-raldi.

- Soliha ayol edi.

- Yaxshi inson edi, - har joydan shunday javoblar eshitildi.

- Odamlar, Oysulton xola qanday inson edi? - yana so'raldi.

- Mo'min ayol edi.

- Mehribon ayol edi...

Bu savol-javob Oysulton xola qolayotgan yangi dunyo uchun aytilayotganday kayfiyat uyg'otardi kishida.

- Mo'min ayol edi, mehribon ayol edi.

Bu so'zlarning aks-sadosi boshlari oppoq Ko'hitang tog'lari to'shiga urilib, Mamaraimning quloqlari osB-tida jaranglardi.

v ЁHa, enaginam mo'min, mehribon ayol ediv Ёk.

Ular Zulfizarning uyiga qaytib bormadi.

Aka-singil bir onaga ikki uyda maraka o'tkazdi.

Marakalar o'tib bo'lgach, Zulfizar onasi bilan birga eng yaqin qarindoshlaridan ham ajralib qolganini tushundi. O'likning dasturxonni uzun deganlari rost ekan, uning uyiga kimlar kelib, kimlar ketmadi. Ammo eng yaqin qarindoshlari bir kelib, dalda bo'lishmadi.

Akasining qilganlarini eshitib, qancha gapga qolgan bo'lsa-da, sira xafa bo'lgani yo'q. Xayoliga kelmagan chorani topgani uchun akasidan xursand bo'ldi, aks holda, bir umr vijdon azobida yashashga to'g'ri kelardi.

Qarindoshlar esa v ЁZulfizar musulmonchilikdan batamom chiqibdi. Oldin binoyiday erini qo'B-yib, o'risga tekkan edi, endi onasini bejanoza, bekafan, yog'och qutiga solib ko'mmoqchi bo'ldiv Ёk, deb undan butkul yuz o'girishdi.

O'zi ham ko'p vaqtlar qishloqqa bora olmay yurdi, jurat topmadi.

* * *

Uxlatuvchi dorilar toliqtirganidanmi, uning hech ko'z ochgisi kelmasdi. O'zi uyg'oq bo'lsa ham, ko'zlarini yumib yotardi. Sora sekin boshiga kelib, yelkasiga ohistagina turti:

- Onajon!

- Ha, - u zildek qovoqlarini bazo'r ko'tardi.

Sora nimadandir taraddudlanayotganini sezdi. U bir zum onasiga qarab turdi-da, so'ng uzr so'raganday gapini aytdi:

- Siz so'ragan odam kelibdi.

- Kim?

- Akamning otasi...

- Ha-a, kirsin bo'lmasa. Yo'q, avval bir sidra yuz-qo'llarimni artib ol. Keyin...

Sora oppoq dokani namlab, onasining yuz-qo'lB-larini artdi. Og'zini chaydirdi, sochlarini to'g'B-rilab qo'ydi.

U tashqariga chiqib ketgach, Zulfizar yostig'ining tagidan kichkinagina oynasini chiqarib, yana o'ziga bir nazar soldi: yaqindagina bo'yalgan sochlar, payvasta qoshlar, bodomqovoq ko'zlar atrofida saf tortgan quyuq kipriklar ham vujudini larzaga solgan og'riqning zafaron izlarini berkita olmasdi. Birdan yig'lagisi keldi. Kasallik ko'nglini yumshatib tashladimi, keyingi paytlarda sal narsaga xo'lqasi to'lib, ko'zlari yoshlanaverardi. Ammo hozir yig'lashi mumkin emas! U bir amallab ko'z yoshlarini ichiga yutdi. Eshikdan kirgan odamni zo'rg'a tanidi. Uning niB-gohlari shu qadar sokin va begona ediki, beixtiyor Zulfizar o'zining aftoda ahvolidan xijolat tortdi.

- Tuzukmisiz? Sizga nima bo'ldi?

- Yuragim sag'al...

- Xudo shifo bersin.

Uning na ovozida, na nigohlarida zarracha hamB-dardlik sezilmaganidan Zulfizar yana xijolat bo'ldi: в ЁН O'g'lini ham allaqachon unutilib yuborgandir. Balki men ham bu haqda umuman so'z ochmaganim maquldir в ЁК.

- Botir yaxshimi? - ancha paytdan keyin so'radi u.

- Ha.

- Men yana uch o'g'il ko'rdim. Ular Botirga juda o'xB-shashadi. Ko'p marta uni olib ketib, tanishtirmoqchi ham bo'ldim, lekin siz ruxsat bermaysiz, deb indamadim.

- Botirning mazasi yo'q...

- Nega? Nima bo'ldi unga?

Uning ovozdagi xavotir Zulfizarning ko'nglini biroz yorishtirdi:.

- U... giyohvand bo'lib qoldi.

Nodir o'rnidan turib ketdi. Deraza yoniga borib, unga yelka o'girib tashqariga qaragancha ancha turib qoldi. Garchi ular ayni damda yuzma-yuzma turishmagan bo'lsa-da, Zulfizar uning ko'zlaridagi g'azab yolqinini aniq-tiniq ko'rganday bo'ldi.

- Ha, men aybdorman. Ish deb, bolani keksa onamga tashlab, butunlay nazoratsiz qoldirdim. Onam sho'rlik nimaniyam tushunardi. Har xil bahonalar bilan uydan chiqib ketavergan. Onam unga ishonib o'tiravergan. Giyohvand bolalar onasining puli ko'p deb buni yo'ldan urishgan. Xabar topganimda o'rganib qolgan ekan. Davolatdim, yalinib-yolvordim! Ammo hech to'g'ri yo'lga sola olmadim. Men najot istab, shifoxonaga yuborsam, u yerda birovi davolasa, ikkinchisi yashirincha narkotik sotar ekan.

U ortiga burilib, Zulfizarga g'azab bilan tikildi:

- Kerak bo'lsa, o'sha shifoxonada bola bilan birga yotish kerak edi. Nega shunday qilmadingiz? Axir u kasal edi-ku. Mana, siz kasalsiz, yoningizda qizingiz yotibdi-ku, nega uni...

- Ha, yotmadim. Yotish xayolimga ham kelmabdi. Faqat o'zini urishdim, yalindim. Men aybdorman. Hamma ayb menda. Qilgan xatolarimni eng aziz narsalarim bilan-bolam bilan, uning tortgan azoblari bilan, suvga oqqan umrim bilan to'ladim. Endi qo'limdan hech narsa kelmaydi. To'lovga arziydigan hech vaqom ham qolmadi.

- E-e!...

- Bu uchinchi infarkt edi. Meni urishmang, buning foydasi yo'q. Umrimning sanoqli kunlari qolB-ganini bilib turibman, agar ilojini topsangiz, biB-laman, buni sizdan so'rashga sira haqqim yo'q, ammo uni sizdan boshqa kimga ham topshirar edim? Uni olib kelib, o'zingiz qaratsangiz.

- Ha, ha! Albatta shunday bo'ladi, siz butkul xotirjam bo'ling. Uni davolatib, ukalariga bosh qilaman.

- Rahmat sizga. Keyin iltimos, uni hech qachon u yoqlarga qaytarmang. U tuzalib ketsa ham o'sha chekishni o'rgatgan bolalar yana yo'ldan uraveradi.

- Xo'p, mayli siz aytgancha bo'la qolsin.

Nodir ketgach, yana yuragi sanchdi. Yana ukol qilishdi. Uyqu aralash vujudida simillab turgan og'riqni his etib tursa ham ko'ngli xotirjam edi: в ЁН Xudoga shukur в ЁК.

* * *

Onasining marakalari o'tgach, eri uyga yoshgina bir qizni yetaklab keldi:

- Menda ishlaydi, hamshira. Qandaydir tog' qishB-log'idan kelgan. Ko'ngil qo'ygan odami tashlab ketibdi. Homilador ekan, ijaradan ham haydashibdi. Bosh hamshiraning oldida в ЁН Endi qayoqqa boraman? в ЁК deb yig'lab o'tirgan ekan, olib kelaverdim. Uyning ishlariga qarashadi. O'zing aytasan-ku, odamning chiqiti yo'q, deb. Bir xatoga yo'l qo'ygan odamni chiqitga chiqarib yuboraversak, u yana ham kattaroq xatolarga yo'l qo'yadi.

Zulfizar keng ko'ylak ostidan ham bilinib turgan homilasidan tortinib, bukchayibgina turgan qizga qaradi. Hurkak tog' kiyiklariga o'xshash bu qiz juda go'zal va bolalardek masum edi.

- O'qishni bitirgach, qishlog'ingga ketsang bo'lar edi-ku. Shahardan ko'ra qishloqqa hamshira ko'proq kerak. Oliy malumotli vrachlardek ezozda bo'lar eding. - Bir g'ijinib, rus tilida eriga murojaat qildi. - Yoshlarga hayronman, hammasi shaharga chopadi. Shaharga kelgandan keyin bu ahvol!

Qizning o'rniga Anatoliy Abramovich javob berdi:

- Amaliyotni bizda o'tagan edi. Qo'l-oyog'i chaqqongina ekan. Qolaman desang, qolaver, degandim. Qo'y, uni ko'p qiynama.

Qiz juda chaqqon va ziyakkina edi. Homilasi bo'g'ziga tiqilayotganday pishillab yursa ham, hamma ishga ulgurar, hovli-joyni yog' tushsa yalagudek qilib qo'yar, tinmay turli xil pishiriqlar, bir-biridan tansiq ovqatlar tayyorlar edi. Tuqqandan keyin ham 10-15 kunda hech narsa ko'rmaganday ro'zg'or ishlariga sho'ng'ib ketdi. Onasi bechora ham qo'lidan kelganicha g'imir-g'imir qilib bo'lsa-da, ro'zg'origa fayz kiritib yurardi. Bu qiz onasi kabi bedor o'tirib, yarim tungacha uni kutmasa-da, hamma joy ozoda, ro'zg'ori badastir edi. Zulfizar o'zining bolalariga narsa olganda, albatta, Nasiba va uning bolachasiga ham nimadir olar, unga o'z singlisidek mehr qo'ya boshlagan edi. Lekin negadir o'g'li bilan qizi ularni yoqtirmay qoldi. Ayniqsa Botir в ЁН Shu jodugarni yo'q qiling в ЁК deb qistalang qilaverardi doim. Beshinchi sinfda o'qiydigan Sora ham Nasibani ko'rsa, to'rsayib olar, bolachasi yopishaversa, indamay turib ketar edi. Zulfizar buni dimog'dorlikka yo'yib, bazan Nasibadan uzr so'rar, bolachani bag'riga bosib, o'zi erkalab qo'yardi:

- Ota-onaning puli va mansabiga shuncha takabburlikmi? E-e, Xudoyim-ey, bu bolalar erta bir kun bir martabaga erishib, o'zlari besh-olti so'm pul topsa, umuman hech kim bilan gaplashmasa kerak.

Nasiba esa odatdagidek hech narsa demas edi.

Bir kun вЂњsingilвЂќning yana qorni do'ppayib turganini sezib qoldi.

- Bu nimasi? Buni qayerdan orttirding?

Qiz indamadi.

Uning shu indamay turishi ham Zulfizarning asabini buzdi. Irkit narsaga ko'zi tushganday jirkandi:

- Bir og'iz tili-zabon yo'q, ammo bu ishni qanday uddalab kelayapsan? Nahotki hech kimga gapirmaydigan, qaramaydigan qizni ham ko'chada tutib olib, shu ahvolga solib ketaverishsa? Kim u? Kimligini aytasan menga?! Kelib, bolalariga egalik qilsin!

Bo'lmasa, lash-lushingni yig'ishtir-da, uyimdan yo'qol!

Kechki payt eriga zahrini sochdi:

- Anavingiz yana bola orttirib olibdi.

- Yo'g'-e, - ko'zlari ola-kula bo'lib ketdi erining.

- Ha! Iltimos, shuni uydan yo'qoting.

- Sho'rlik juda bo'sh-da. Qizlar вЂњYigiti kelib yuribdiвЂќ deyishayotgan edi. Yana вЂњchuvвЂќ tushibdi-da. Shoshmay tur, shu yigitni toptirib, o'zim bir gaplashay. Joy-poy qilib, olib chiqib ketar, bo'lmasa, xizmatini qilib yuribdi-da...

- Esingiz joyidami? Men harom-harish aralashgan ishni yomon ko'raman, - erining gapini bo'ldi Zulfizar.

- Qanaqa harom, nima harom?!

- Anatoliy Abramovich, rus tilida toza va notoza degan so'z bor. Bu so'zlar toza va notoza degan tushunchadan kelib chiqqan.

Bizda esa toza va notoza degan tushunchalardan tashqari halol va xarom degan tushunchalar ham bor. Bu so'zlarning sizlarning tilingizda tarjimasini yo'q. Malumot uchun, ko'chadan orttirilgan benikoh bola ham haromi hisoblanadi. Bunday ishlar qilib yurgan ayollardan jirkanaman!

Eri Zulfizar bilan oshiqcha tortishuvning foydasi yo'qligini bilibmi, indamay qo'ya qoldi.

Oradan bir haftalar o'tgach, yangi gap topib keldi:

- Besh bolali odam ekan. Qamatib yuborishimiz mumkin, ammo u Nasibani ololmaydi. Nasiba dugonalariga вЂњO'zimni o'ldirmoqchiman, bolamni kimga qoldirsam ekan?вЂќ deb yurgan emish. Endi nima qilamiz?

- O'zini o'ldirsa, o'ldiraversin. Sadqaisar! Mendan nari!

- Har bir suiqasd uchun Moskvaga javob berasan. Uyingda yashagan ayol joniga suiqasd qilsa, gap-so'z ko'payib ketmaydimi?

Qo'y shuni, Zinochka. Yuraversin. Uyingga, bolalaringga qarab o'tiribdi. Agar istasang, ishdan bo'shatib yuboraman. Uydan chiqmay o'tiradi. Ortiqcha gap-so'zning nima keragi bor? - eri jonini jabborga berib, uni murosaga chaqirardi.

вЂњRost. Bir bola qo'lida, bir bola qornida, uy-joysiz, ko'chada qolsa, bu iflos, albatta, joniga qasd qiladi. Uyida yashagan ayolning isyoni uning boshiga qanday balo bo'lib yog'ilishini tasavvur qilish hech qiyin emasвЂќ.

- Hammasiga siz aybdorsiz. Qaysi go'rdan shu haromini yetaklab keldingiz? Nima ish qilsangiz, izida bir ishkali bo'ladi doim.

Bu uning yon berishi edi.

Anatoliy Abramovich uni erkalagan kishi bo'lib, ohistagina yelkalaridan quchdi:

- Qayerdan ham bilibman? Men bir sodda odam bo'lsam, senga yaxshi bo'lsin, degandim-da. Soramiz hali kichkina, uy ishlariga qaraydigan bir odam kerak-ku, baribir. Bu qiz ham hali yosh, g'o'r. Nima xato qilsa, shu g'o'rliги tufayli qilgan. Butun viloyat ayollari taqdiri sening qo'lingda. Shu bechoradan ham muruvvatini ayamay, yaxshi qilding.

- Mayli, - u bir siltanib, erining qo'lini yelkasidan tushirib tashladi, - faqat men uyda bo'lganda, ko'zimga ko'rinmasin. Qornini ham, o'zini ham ko'rmasin.

- Xafa bo'lmasang, bir gap aytaman, Zinochka. Ko'p ruslar ham o'z ona tillarida sen kabi toza gapira olmaydi. Moskvada talim olib kelgansan. Bir qarashda juda zamonaviy ayolsan, kiyinishing, o'zingni tutishing... Ammo qarashlaring hamon eskicha ekan.

Rivojlangan mamlakatlarda nikoh, farzand ko'rish har kimning o'z erki. Kimdan xohlasa, shundan farzand ko'raveradi. Siz o'zbeklar esa вЂњnikohli, nikohsizвЂќ deb fojia yasaysizlar. Boshqa mamlakatlarda erkin nikoh degan tushunchalar bor.

- E-e, ko'p boshimni og'ritmang.

...Ertasi kuni qaytishi kerak edi. Hamma ishi bitgach, turgisi kelmay qoldi. Ketayotganda qizi yo'lb-talib turgan edi, xavotirlandi.

Kechki 9 da uchadigan samolyotda ortiga qaytdi. Qo'lida bir dunyo qog'oz, topshiriqlar bor edi. Birrov ishxonasiga kirib, keyin uyga qaytmoqchi bo'ldi, ammo u yerdan chiqa olmay qoldi.

Uyga qaytganda, vaqt yarim tundan oshgan edi. Bolalarini bezovta qilmaslik uchun eshiklarni ohistagina ochib, uyga kirdi.

Odatdagidek bolalariga bir-bir nazar tashlab, so'ng yotoqxonasiga o'tdi. U yerda hech kim yo'q edi: вЂњMening uyda yo'qligimni bila turib, bu paytgacha qayerda yurgan ekanвЂќ, deya xayolidan o'tkazdi.

Kiyimlarini almashtirib, bir yuviniб oldi. Hovli adog'ida Nasiba yashaydigan uychalarga yo'l oldi: вЂњQayerdaligini balki u bilar?вЂќ, uning eshigini qoqib o'tirmay, derazadan bordi: вЂњUxlab yotgan bo'lsa, indamaymanвЂќ.

Sutdek oydin kecha, kanizlari bilan sayrga chiqqan to'lin oy Zulfizar bilan birga derazadan ichkariga boqdi. Va!.. Ko'zlari tushgan manzaradan oy xijolat bo'lib bulutlar ortiga kirib ketdi. Zulfizarning oyga havasi keldi, qani uning ham ko'zlarini shu bulutlar to'ssa-yu, xiyonatkor erini ko'rmasa! Afsus! So'ng o'sha osmon bor yaltir-yultir toshlari bilan uning boshiga to'kildi.

Oyning oppoq nurlariga cho'milib yotgan osuda hovlini bir zumda qiyomat qo'pdi.

...- Hoziroq uyimdan yo'qol!

Avvaliga rangi qumdek oqarib, dovdirab qolgan ayol ustiga malomat toshlari otilavergach, kutilmaganda qo'llarini beliga qo'yib, hujumga o'tdi:

- Hech qayerga bormayman! U mening ham erim, bolalarimning otasi. Demak, bu uyda mening ham haqqim bor!

Bu gapni yillar davomida biron marta yerdan boshini ko'tarib, ko'ziga tik qaramagan tilsiz-zabonsiz вЂњqizaloqвЂќ ayttayotgan edi.

Bu gap Zulfizar uchun ko'rib turganlaridan ham og'irroq zarba bo'ldi.

- Shu sening eringmi, - lablari pirpirab ketdi Zulfizarning. - Bo'lmasa, eringni ham ol-da, yo'qol. Bu uy mening uyim.

- Bu uy davlatniki! - Nasiba yalpayib divanga o'tirib oldi.

- Yo'qol, hozir ikkalangni ham o'ldiraman, - Zulfizar shkafni ochib, qo'lga ilingan narsani ularga qaratib, uloqtira boshladi.

Ochiq qolgan eshikdan qo'rqib ketgan o'g'li bilan qizi kirib kelmaganda Zulfizar hali-beri baqirishdan to'xtamasdi. Uning yonida вЂњhay-hayвЂќlab turgan eri bolalariga ko'zi tushgach, xotinlarning mojarosiga qo'l siltab, qo'rquvdan ko'zlari katta-katta bo'lib ketgan Sorani dast ko'tarib, olib, bag'riga bosdi. U Sorani alohida mehr bilan yaxshi ko'rar, tug'ilganda o'ng qoshining ustidagi

xolni ko'rib, вЂњOnamning ham shu yerida xoli bor edi вЂќ, deb unga onasining ismini qo'ygan edi. Qizaloq ulg'aygan sari otaga yaxudiy momosini tobora ko'proq eslatadigan bo'lib borardi. Besh-olti yoshlarga kirgach, o'zi tanimaydigan momosining kichkina nusxasiga aylanib qoldi. Otasi ishdan qaytgach, uni tizzasidan tushirmas, uni ismi bilan emas, o'z tilida вЂњмамвЂќ (ona) deb erkalar edi. U Sora uchun hamisha hamma narsadan voz kechishga tayyor edi:

- Bo'ldi, Nasiba, yig'ishtir lash-lushlaringni!

Nasiba gap qaytarmoqchi bo'lib xezlangan edi.

- Bo'l, deyapman senga, - dedi.

U bu gapni shunchalar qahrli ohangda aytdiki, shanB-g'illab yotgan Nasiba indamay yuklarini yig'ishtirishga tushdi.

So'ng Anatoliy Abramovich Zulfizarning yoniga o'tdi:

- Hozir olib borib tashlayman. Keyin bafurja gapB-lashib olamiz, o'zim senga hammasini tushuntiraman. O'zingni qo'lga ol, bolalarni qo'rqitayapsan, - dedi yalinchoq ohangda.

Dir-dir qaltirab turgan Zulfizar qo'lidagi buyumni yerga uloqtirib, Sorani erining quchog'idan yulqilab tortib oldi:

- O'zingiz ham birga yo'qoling, siz bilan gaplashadigan gapimiz qolmadi.

So'ng ostonada turgan o'g'lini yetaklab uyiga kirib ketdi. Ular juda uzoq yig'ishtirindi, ularning shu hovlida g'imir-g'imir qilib yurishlari Zulfizarning sabr kosasini to'ldirib, tobora holdan toydirib, sillasini quritib borayotgan edi. Nihoyat darvoza ochilib, mashina hovlidan chiqib ketdi. Zulfizar tashqariga chiqib, darvozani ichkaridan mahkamlab qaytdi.

Oradan bir soatlar o'tgach, darvoza ortiga mashina kelib to'xtadi. Bu vaqtda allaqachon tong yorishib qolgan edi. Keluvchi darvoza oldida ancha g'imirlab, eshikni ocholmagach, ular yotgan xonaning derzasini chertdi:

- Zina, darvozani och!

- Dadam! - uxlayolmay yotgan Sora joyidan sapchib turdi.

- Joyingga yot, qizim. Endi u sening dadang emas.

- Nega?

- Zina!.. - deraza betoqatlik bilan taqilladi. - Zina, hech bo'lmasa, deraza yoniga kel.

Zulfizar o'rnidan turmadi.

- Mam! Darvozungni och.

Sora derazaning yoniga bordi:

- Dada, onam yig'layapti, darvozani ochmaysan, deyapti.

Qo'shni kelinlar chiqib, ko'chaga suv sepa boshlashgach, mashina iziga qaytib ketdi. Olam bir pas sukunat qo'yniga cho'mdi, ammo ko'p o'tmay deraza ortidan o'tgan-qaytgan odamlarning ovozlari eshitila boshladi. Yangi kun boshlangan edi. Ha, shunchalik sharmandachiliklarga guvoh bo'lgan tun o'tdi, lekin hayratlanarlisi, hayot to'xtab qolmadi, yana tong otdi, yangi kun boshlandi, hayot davom etaverdi.

Zulfizar ming yillik xastalikdan ezilgan bemordek zo'r-bazo'r o'rnidan turib, nonushta hozirladi. Bolalarni turg'izib, ovqatlantirdi. O'zi ham naridan beri ovqatlangan bo'lib, ishga otlandi.

Shu uyga ko'chib kelishganidan buyon birinchi marta darvozalari qulflog'lik qoldi. Avvallari onasi uyda qolardi, so'ng qancha payt Nasiba bo'ldi, xullas, hovlini qulflab ketishga hech zarurat bo'lmadi. Endi esa...

Zulfizar kalitlarning birini o'g'liga, birini qiziga berdi. Maktabdan qaytgach, uydan chiqmay o'tirishni qayta-qayta tayinladi, lekin ishga ko'zi orqasida ketdi...

Ixtiyori o'zida bo'lsa, bugun umuman joyidan turgudek holi ham, xohishi ham yo'q edi. Ammo bugun byuro bor. Kecha вЂњKadrb вЂќ kimnidir partiyadan o'chirish haqidagi masala tayyorlanayotganini aytgan edi. Bormasa, bo'lmaydi.

Byuro nihoyatda keskin ruhda o'tdi. Hamisha hamma joyda ibrat qilib kelingan yulduzli xo'jalik rahbarini partiyadan o'chirib, ishdan olish va qamash masalasi ko'rildi. Bu inson hosildorlikni oshirish hisobiga xo'jalik azolariga uy-joy, hammom, madaniyat saroyi, sport kompleksi, hatto Baxt uyi ham qurgan. Obro'yi raykom kotibinikidan kam emas edi.

Byuroda uni poraxo'rlikda, mavjud gektarlarni yashirB-ganlikda ayblashdi.

- 200 gektar yerni 100 gektar deb yozib, hosilB-dorlikni 70 sentnerga yetkazdim deb, oltin yulduz taqqan qahramonni ko'ring! Biz bu yoqda boshqa xo'jaliklarni nega hosildorlikni 35 sentnerdan oshira olmaysizlar, deb qiyin-qistovga solamiz, urushamiz, do'pposlaymiz. Tajriba o'rganing deb bu kishining xo'jaligida seminarlar o'tkazamiz. Borganlar hayron, o'zlarinikiday dala, o'zlarinikiday g'o'za. Hisobot esa ikki baravar ko'p. Bu yoqda hammom, sport kompleksi, Baxt uyi, Madaniyat saroyi. Xalq uchun shuncha narsa qurdi, deb yurganmiz. Ha, mayli, Markazdagilar oldida hurmat qozonib, xo'jalikka shuncha mablag' kiritib, falon-falon ishlarni uddaladi, deb yursak, hurmatli Ahmad Parpiyev bu harakatlarning hammasini o'z manfaati uchun, yani xo'jalikdagi qarindoshlarini ishli, mansabli qilish uchun amalga oshirgan. Bir og'iz so'zi, har imzosi uchun katta-katta poralar olgan. Odamlar bu kishining ismi-sharifini unutib, вЂњotav вЂќ deyidigan bo'lib qolgan. Bularning hammasi mehnatkash xalq nazarida sotsialistik tuzumning, kommunistik partiyaning obro'sini tushirgan. Parpiyevning bu xil xatti-harakati partiya, xalqqa xiyonatdan boshqa narsa emas. Uni partiya saflaridan o'chirib, ishini qonun himoyachilariga topshirish kerak. Toki xalq xiyonatkorlar jazosiz qolmasligini ko'rsin.

Xona ancha salqin bo'lishiga qaramay notiq terga tushib ketgan edi. Gapini tugatar ekan, go'shtdor barmoqlari bilan peshonasidagi terni sidirib, birinchi kotibga qaradi.

вЂњBirinchiv вЂќ unga вЂњotiringвЂќ deganday ishora qildi-da, byuro azolariga yuzlandi:

- Qani, o'rtoqlar, yana kimda qanday fikr bor?

- Mol-dunyoga o'chlik Parpiyevning qonida bor. Uning otasi o'z vaqtida bu yerlarga quloq qilib yuborilgan. Partiya bag'rikenglik qilib, quloqning bolasini kechirdi, o'z saflariga oldi, mansab-lavozim berdi, xalqning taqdirini, davlat mulkini ishonib topshirdi. U esa bu ulug' ishonchni suistemol qildi. Bunday muttahamlarga oramizda o'rin yo'q, - bu odam Parpiyevni eng ko'p вЂњizlaydiganвЂќ obkom xodimi edi.

- Xalqning xizmatini qilsin deb, qizimni huB-quqshunoslikka o'qitgan edim. Yangi Baxt uyi qurilgach, mening qizimga o'xshagan mutaxassislar uchun qurilB-di, deb suyundim. Bu kishi esa tuman Baxt uyida ishlab yurgan qizini olib kelib, mudira qildi.

...Byuroga to'plangan ellik-oltmish odamning har biri qo'ynidagi toshni otib qolishga harakat qilardi.

вЂњNega? Nima uchun? Kechagina shularning hammasi Parpiyev bilan bir bor salomlashishni mukofot deb bilishar edi-ku.

Shuncha narsa qurgan bo'lsa, sochlari oqarib ketgan bu chol o'sha imoratlarni go'riga orqalab ketmaydi-ku! вЂќ, Zulfizar bo'g'ziga tiqilgan savollarni zo'rg'a ichiga yutib, goh so'zga chiqqanlarga, goh uzun stolning eng oxiridagi o'rindiqda yerga qarab o'tirgan

Parpiyevga javdirab qarardi. Yoshiga xos bo'lmagan chaqqonlik bilan hamisha shoshib yuradigan raisning yuzida ilgarigi o'ktamlikdan asar ham qolmagan edi.

Byuro tugagach, Parpiyev negadir Zulfizarning o'ldiga kirdi. Zulfizar boya taqdiri hal qilinayotgan dam qo'rqqoqlik qilib, bir og'iz ham himoya qila olmaganidan xijolat bo'lib, o'zini yo'qotib qo'ydi.

Parpiyev ham negadir xijolat edi.

- Meni kechiring, Zinaida Abdiyevna!

- Nega?

- O'zimni himoya qila olmay, yuzlaringizni yerga qaratdim. Lekin, - u kaftlarini yozib, Zulfizarga ko'rB-satdi. - Lekin qarang, qo'llarim top-toza, vijdonim ham toza.

- Bilaman, - battar xijolat bo'ldi Zulfizar.

- Rahmat sizga!

Oqsoqol boshqa bir so'z demay xonadan chiqib ketdi.

Kechki payt вЂњKadrbЂk qo'ng'iroq qildi:

- Zinaida Abdiyevna, Parpiyevga advokat bo'lib yo'lB-lanibsiz,deb eshitdim.

- Bu gap qayerdan chiqdi? Xayrlashish uchun kirgan ekan, xolos, - shoshib o'zini oqladi Zulfizar.

- Hayronman, nega taqdiri hal etiladigan bo'limB-larga emas, sizning oldingizga kiradi?

- Bilmadim, Nikolay Vladimirovich, ammo rosti gap, unga juda rahmim keldi, axir xalq uchun qancha xizmat qilgan odam...

- Nimalar deypsiz, Zinaida Abdiyevna? Hali siz byuroning qaroriga qarshi chiqayapsizmi? Butun byuro ahmoq, faqat siz aqlimisiz?

- Yo'q, men unday demoqchi emasman...

- Siz aynan shunday dedingiz va bu nuqtai nazariningiz uchun javob berasiz. O'rni kelganda yana bir narsani aytay, keyingi paytlarda hulq-atvoringiz bizB-ga yoqmayapti. Uyingizda saqlagan xizmatkoringiz sirka ichib qo'yganini eshitdingizmi? Inson bir buyum emaski, istagan payti javonga qo'yib, kerak bo'lmay qolganda axlatga uloqtirib yuborilsa!

Zulfizarning yuragi qinidan chiqib ketay dedi:

- Unga nima bo'rti? Nahotki?.. - вЂњo'libdimi?вЂќ deb so'rashga jurati yetmadi.

- Uni saqlab qolishgan, ammo вЂњichki ishlarвЂќ joniga qasd qilgan ayol sifatida ro'yxatga olgan. Yarim tunda ayol kishini ikki bola bilan ko'chaga haydashga qanday jurat etdingiz? Yana viloyatdagi barcha xotin-qizlar taqdiriga masul odam bo'lsangiz?

- Nikolay Vladimirovich! Uni nega va kim bilan haydaganimni bilasizmi?

- Bilmayman, bilishni ham istamayman.

- Erchasining to'rt xonali uyi bor, u hech qachon ko'chada qolmaydi. Yana... uning o'z joniga qasd qilganiga sira ishingim kelmaydi. Axir u meni aldab, erimni uyimdan olib chiqib ketdi. Boshida puldor eri, uyi, mashinasi bo'lsa, joniga qasd qilishga qanday asos bor?

- Sizni ham yarim tunda yashab turgan uyingizdan haydab yuborishsa, o'sha ayolning ahvolini his etgan bo'lardingiz.

- Nikolay Vladimirovich, menga nisbatan nohaqB-lik qilayapsiz, - go'shakning narigi tomonidan aloqa uzilganligini anglatuvchi вЂњbip-bipвЂќ degan ovoz eshitildi.

Zulfizar keyingi kunga o'zi tug'ilib o'sgan xo'B-jalikda o'tkaziladigan partiya tashkiloti hisobot-saylov yiB-g'ilishiga vakil qilib belgilangan edi. Bunday topB-shiriqlar umumiy tartibda ancha oldindan belgilab qo'yilsa-da, odat bo'yiga ketishdan avval birrov вЂњKadrbЂkning oldidan o'tilib, qo'shimcha topshiriqlar bor-yo'qligi so'ralar edi. Zulfizar erta bilan turib indamay qishloqqa jo'nab yubordi. вЂњNima desin? O'sha juhudni qo'yarda qo'ymay uning hayotiga tiqishtirgan edi. Endi alamidan har xil bahona topib, ezishga harakat qilyapti. Vijdonsiz. Olsa, ishini olsin!вЂќ

Xo'jalik rahbari-qirq yillardan beri xo'jalikni boshqarib kelayotgan Omonqul rais Zulfizarni o'zgacha bir mehr bilan yaxshi ko'rar, u bilan faxrlanar, buni sira yashirmas edi.

- Sizning tashrifingiz biz uchun bayram,xush kelibsiz, - uni ko'rib, xursand bo'lib ketdi Omonqul rais. - Yig'ilish soat 2 ga belgilangan. Ungacha maktabga o'tib kelmaymizmi? Bahorga bag'ishlangan bir tadbirlari bor ekan. Kecha direktor taklif qilib kelgan ekan. Ertaga Opa ham keladilar, agar xo'p desalar, u kishini ham olib o'taman, deb vada qilgandim. Bugun Navro'z - Yilboshi. Shunday kunda eski qadrdonlarni izlab, ularning ko'nglini olish savob.

Zulfizar siqilib turgan edi. Rozi bo'ldi. Qadrdon maktabni ko'rib, balki biroz ko'ngli yozilar...

Maktab tadbirga juda yaxshi tayyorgarlik ko'rgan edi. Navro'zoy timsolida chiqqan qizni o'ziga o'xshatdi: kelishgan, o'ktam...

Bolalarning Navro'z tarixidan shuncha ma'lumotni qanday to'plaganiga qoyil qoldi. вЂњHaqiqatan ham juda go'zal bayram ekan bu. Nega bu kunni hech bayram qilmaymiz?вЂќ xayolidan o'tkazdi u.

Ertasi kuni uni ikkinchi kotib chaqirdi.

- Siz nima qilib yuribsiz? Sizni partiya tashkilotining hisobot saylov yig'ilishini o'tkazishga yuborsak, siz diniy bayramlar o'tkazishga bosh-qosh bo'lib yuribsizmi?

- Qanday diniy bayram? U bahorning kelishiga bag'ishlangan qadimiy bayram edi, xolos.

- Bahor birinchi martdan boshlanadi. Siz butun ittifoq uchun belgilangan taqvimni bilmaysizmi? Kecha 21 mart edi,qanday qilib 21 mart kuni bahor, Yangi yil boshlanadi. Yangi yil 1 yanvarda nishonlanadi. Bahor 1 mart kuni boshlanadi. Siz o'zingizga bildirilgan ishonchni suiistemol qildingiz. MavB-qeingizdan foydalanib, sovet turmush tarziga qaB-lang'i-qasang'i odatlarni tiqishtirmoqchi bo'lyapsiz. Bunga yo'l qo'yib bo'lmaydi. Buning ustiga qo'l ostingizdagi rahbar xodimlardan tilla taqinchoqlar talab qilishingiz haqida ma'lumotlar bor.Odamlar orasida Parpiyevga nisbatan adolatsizlik qilindi, deb gap tarqatib yurgan emishsiz. Parpiyev qamoqda o'tiribdi. Aybi bo'lmasa, qamoqqa olisharmidi? QaB-damingizni bilib bosing, yana Parpiyevning yoniga borib qolmang! Shoshilinch byuro chaqirtiraman. Byuroga qilmishlaringiz haqida o'zim axborot beraman.

Hammasi kutilmaganda, juda tez sodir bo'ldi. Bir soatning ichida Zulfizar butun faoliyatiga ham, nomiga ham qora chiziq tortildi. Ishdan bo'shatildi, partiyadan o'chirildi.

- Siyosiy jinoyatchi va poraxo'r sifatida uni qamoqqa olishimiz shart va zarur edi, ammo balog'atga yetmagan ikki nafar farzandi borligini inobatga olib...

U birdaniga hech kim va hech narsasiz qolgan edi. Uning yomon odati bor edi. Erta bir kun kerak bo'lib qolar deb, sandiqqa 4-5 so'm olib qo'yishni bilmas edi. Byuroda aytilganidek poraxo'r bo'lganida...

Essiz...

- Har yili tug'ilgan kunida tilla taqinchoq olib bermasam, kun yo'q edi. Har xil bahonalar topib, siquvga olardi.

- Necha marta shunday qimmatbaho sovg'a berishga majbur bo'lgansiz?

- Besh marta...

Bu ayblovni madaniyat boshqarmasi boshlig'i aytdi. Zulfizar uning ko'zlariga, hech bo'lmasa, bir martagina qaramoqchi bo'ldi, ammo u sira ham Zulfizar tomonga qaramadi. Xuddi Zulfizar emas, o'zi pora olganday boshini yerdan ko'tarmasdi.

в Ёнъ Bechora. Majbur qilishgan в Ёк. Shu topda negadir o'ziga emas, unga rahmi keldi.

Aslida Zulfizarning qo'li pul ko'rib, to'rtovora davralarga kirganidan buyon olgan jami tillo taqinchoqlari beshtagina edi: ikkita zirak, uchta uzuk. Shundan bir zirak bilan uzukni Anatoliy Abramovich nikoh kuni sovg'a qilgan...

Byurodan keyin uch kun o'tgach, Xadicha kirib keldi. Dugonasining rangi-ro'yini ko'rib, rosa xijolat bo'ldi:

- Meni kechir, hamisha o'z tashvishlarim bilan yugurib yurib, hamma gapni eng oxiri bo'lib eshitaman. Bugun ishxonamizdan bir muallima aytdi...

- Hech qisi yo'q, hammasi joyida, - mayusgina kuldi Zulfizar.

- Ifloslar, sening umringni, istedodingni kuyB-B-dirishdi. Shularning yo'rig'iga yurmay, ilmiy ish qilB-ganingda, eng zo'r olim bo'lar eding. Ha, ularga ham sening aqlliliging yoqmagani aslida.

Zulfizar qo'l siltadi:

- Qo'y, bu gaplarni!..

Tokchadan tilla taqinchoqlarini olib, Xadichaning oldiga qo'ydi:

- Manavilarni sotib ber. Ishga joylashib, maosh olguncha ro'zg'or qilib turish kerak.

Xadicha hayron bo'lib, bir taqinchoqlarga, bir Zulfizarga qaradi. So'ng taqinchoqlarni egasi tomonga surib qo'ydi:

- Bularni olib qo'y, - sumkasini kovlab, bor pulini Zulfizarning oldiga qo'ydi. - Maosh olguningcha o'zim qarashib turaman.

Bizning maktabga yur. Oldingiday birga ishlaymiz.

Zulfizar pastki lablarini tishlab bosh irg'adi: в Ёнъ Xo'p в Ёк.

Uch kundan beri uyi ichida sharpadek sudralib yurib, ko'zlaridan bir tomchi yosh chiqmagan edi. Ko'zlarini yumdi, ammo qovoqlari duvullab to'kilayotgan sho'rtam yoshlarni to'xtatib qola olmadi. Xadicha uning boshini quchog'iga oldi:

- Zulfizar, hali hammasi oldinda.

- Yo'q, hammasi tugadi!

* * *

Sora bu safar otasi kelganini aytib uyg'otdi:

- Onajon, dadam kirmoqchi. U har kun keladi, ahB-volingiz yaxshi bo'lmagani uchun kirgizmayotgan edim. Xo'p deng, bir martagina kirsin, juda o'tinib iltimos qilayapti.

Zulfizar bosh chayqadi: в Ёнъ Kerak emas в Ёк.

- Onajon, hech bo'lmasa, men uchun rozi bo'ling. U mening otam, faqat shu odamning yordami bilan bu azim shaharda qirolichalarday yashab yuribman. U hamisha sizning oldingizda o'zini aybdor, deb biladi. Qilgan ishlaridan ming pushaymon. O'sha yovvoyi hamshira siz bo'la olarmidi?

Zulfizar yana bosh chayqadi: в Ёнъ Baribir, kerak emas в Ёк. So'ng yuzini devor tomonga o'girib oldi.

Sora uning boshida turib-turib, palatadan chiqib ketdi. Zulfizarning yuragi siqildi. Qaysar qizining aytganlarini qilmay, otasini boshlab kelishidan xaB-votirlandi. Yurak yutib, ota va qizning oldinma keyin kirib kelishini kutdi. Astoydil Xudoga iltijo qildi:

в Ёнъ Yo, muruvvatli Olloh, shu nobakorning yuzi yuzimga tushishidan o'zing asra! в Ёк Iltijo qila turib o'sha в Ёнъ nobakor в Ёк ni juda ham ko'rgisi kelayotganini, boshini ko'ksiga qo'yib o'kirib-o'kirib yig'lagisi kelayotganini his etdi. Lekin... yo'q, kerak emas!

Anchadan so'ng palataning eshigi ochilib, Soraning o'zi kirdi. U aytganini qildira olmaganidan, otasining ko'nglini topa olmaganidan xafa edi. Indamay karavoti tomon o'tib, joyiga cho'zilib oldi: в Ёнъ Bunchalar erkatoiy bu qiz! Nega? Go'dak holida otaning xiyonatini, akaning sargardonliklarini, onaning tanazzulini ko'rди, shu ko'rguliklar ichida yashadi. Ammo qayerdan shunchalar o'z bilardon, erka bo'lib o'sdi? Bilimiyam zo'r-da, shu yoshida kim fan doktori bo'la oladi? O'zi go'zal. Buyog'i otasi unga mabudaga sig'inganday sig'inadi. Shundan hamma aytganim bo'lishi kerak, degan kayfiyatda yurishga o'rganib qolgan в Ёк.

Xayolan o'rmidan turib, qizi tumtaygancha cho'zilib yotgan karavot yoniga bordi, ohistagina sochlarini siladi: в Ёнъ Meni qo'y, jonim. O'zingni, o'zingning turmushingni o'ylab в Ёк.

Zulfizar necha kundan beri shu gaplarni aytishga og'iz juftlar edi-yu, ammo hech jurat topa olmasdi. Lekin, biladi, aytishi kerak, toki erta bir kun qizi ham o'zi kabi umr poyonida yolg'izlik azobida qiynalmasin. Nevaralari ham otali-onali to'kis bo'lib ulg'aysinlar.

- Sora!

- Ha, ona? - qizi sapchib o'rmidan turdi.

- Bu yoqqa kel, anavi kursini yonimga qo'yib o'tirB-gin.

Sora hayron bo'lib, onasining yoniga o'tirdi. Zulfizar uning qo'llaridan tutdi:

- Qizginam, sen juda aqlli qizsan. Sen faqat o'zing yo'l qo'ygan xatolardan emas, o'zgalarning, masalan, mening xatolarimdan ham xulosa chiqara olishing kerak. Kechagi odamni ko'rding, qanday kamtar, aqlli inson. Lekin judayam bo'shang odam edi. Birovlarning so'zi bilan qo'yday bo'lib uyimga kirib keldi, qo'yday bo'lib yashadi. Uning shu mo'minligi g'ashimni keltirar edi. Shu qo'y bir kun kelib menga qo'l ko'tardi. Bunga ham chiday olmadim. Atrofimdagilarning tavozelari ko'zimni ko'r qilib qo'ygan edi.

в Ёнъ E, bor-ев в Ёк dedim. Men uni mansabga almashtirdim. Takabburligim oqibatida o'g'limni yetim qildim. Mansabimdan ajralmay deb, kechalarimni ham, kunduzlarimni ham ishga berdim, yolg'iz o'g'limning giyohvand bo'lishiga sababchi bo'ldim.

Agar otasidan ajralmaganimda, axir onalarimiz erlari в Ёнъ qo'y в Ёк bo'lsa ham, в Ёнъ zo'rv в Ёк bo'lsa ham indamay yashayverishgan-ku, mansabga shu qadar yopishmaganimda, bolam shunchalar ovora bo'lmas edi. Qandaydir soxta g'oyalar qurboni bo'ldim.

Ikkinchi marta erim tashlab ketganda ham partiyadan o'chirib, ishdan haydashganlaridagidek ezilmagan edim. Holbuki, o'sha ahmoq otangni juda yaxshi ko'rganman, hozir ham yaxshi ko'raman.

- Onajon, bu gaplarning nima keragi bor? O'tgan narsalar uchun o'zingizni qiynamang. O'zi zo'rg'a qaytarib oldik.

- Men yaxshiman, sen xavotirlanma. Menga qara, qizim, men bir narsani ko'rib turibman, sen eringni umuman nazar-pisand qilmay qo'ygansan. U erkak, unga etibor-mehr kerak.

- Onajon, bu nima deganingiz? - Qoshlari chimirilib ketdi Soraning. - Men ayolman, menga ham etibor, mehr kerak. Ro'zg'orning

23 Kitoblar Olami | Sever.UZ | Uzsmart.UZ

hamma xarajatlari mening bo'ynimda. Yana dimoq-firoqlarini ko'tarishim kerak. O'z-o'zidan haftalab gaplashmay yuradimi-ey, televizor ko'rgan joyida yotib qoladimi-ey. Qiliqlari ko'nglimni aynitadi. Bazan вЂњko'zimdan yo'qolвЂќ deb ko'chaga haydab solgim keladi. Yana necha yillab dadamni sog'inib yashaganlarimni eslab, o'zimni bosaman. Ertaga o'g'il uylantirishim kerak, qizimga sovchi keladi, shunda boshimda erkak bo'lsin, deyman. Ammo unga nisbatan ko'nglimda zarracha iliqlik qolgani yo'q. Zulfizar qo'rqib ketdi. Ikki qo'llab qizining qo'llaridan ushlab oldi:

- Yo'q, qizim, istasang bu gaplarimni vasiyat o'rnida qabul et, ammo eringga bo'lgan munosabatingni o'zgartir. вЂњGunohi kabirвЂќ degan bir kitobdan o'qib-gandim, oqshom payti erkak kishining aybi bilan eru xotin xafalashib qolsa-yu, erkak tong otguncha teskari qarab yotsa, ayol uning ko'nglini olib, o'zi tomonga qaratmasa, ayol gunohkor hisoblanar ekan. Ha, aybdor erkak kishi bo'lsa ham! Shunday, qizim, bizning davrimizda Islomni bidat, ayollarning huquqini kamsitgan, deb talim berishgan. Aslida esa Islomda oilani asrab qolishda masuliyat ayolning zimmasiga yuklangan, shu masuliyatni ko'targani uchun ham uning oyoqlari ostidagi yerni jannat deb atagan. Bir olim pastga tush, oilang, bolalaring, o'zing uchun uning hurmatini o'rniga qo'y, Er-yarim pir, deyishgan. Sen ham shunday deb hisobla. Agar shu erkakdan ajrashsang, bilib qo'y, go'rimda tik turaman. Senga hech narsa qoldira olmayman, ammo istaymanki, bebaxt taqdirim ham meros bo'lmasin.

Sora hayron bo'ldi:

- Bu nima deganingiz, onajon? Xo'p, sizga kim ajrashaman, deyapti. Nega bunday gaplarni aytayapsiz?

- Munosabatingni o'zgartir. U, bordi-yu, ajrashaman, desa ham, ajrashmayman, deysan.

- Xo'p. Voy-ey, qandaylar kuyovingiz bor edi?

- Ana shu gapning keragi yo'q. Endi eringga qo'ng'iroq qil, men uni ko'rishim kerak.

- Nega?

- Gapim bor.

- Ertaga chaqirarman. Bugun charchadingiz, kech bo'lib qoldi.

- Yo'q, uni bugun ko'rishim kerak.

Oradan ko'p o'tmay kuyov keldi. U birovlarining gunohini ham o'z bo'yniga olib, shu mardligi uchun katta jazoga mahkum bo'lgan odamday ancha tushkun kayfiyatda edi. Zulfizar Sorani palatadan chiqarib yubordi.

- G'anisher, o'g'lim! Mening vaqti-soatim yetib borayapti. Sizdan bittagina iltimosim bor, mendan keyin qizimni, nevaralarimni yolg'iz qoldirmang.

Kuyov bo'lmishning ko'zlari katta-katta bo'lib ochilib ketdi. U qaynonasidan bunday gapni sira kutmagan edi. Uning hisob-kitobi bo'yiga bu amaldor kampir erta-indin oyoqqa tursa, uyda emas, masuliyatsiz ota, xiyonatkor er sifatida ishxonasida ham muhokama bo'lishi aniq edi. Qachonki, qizining to'shagida duch kelgan manzara tufayli hayot bilan vidolashmoqda.

- Nimalar deyapsiz?

- Bilaman, qizim biroz erkarroq. Balki u uzoqni ko'ra olmayotgandir, balki biroz etiborsizlik qilayotgandir. Lekin siz erkaksiz, mard bo'ling. Ayolingizni, bolalaringizni tashlab ketmang.

- ...

- Menga vada bering.

G'anisher ancha vaqt jim qoldi. So'ng chuqur вЂњufвЂќ tortdi.

- Men Sorani yaxshi ko'raman. Bolalarimni ham. Ularni hech qachon xor-zor qilib qo'ymayman.

- Demak, ketmaysiz.

- Ha...

- Yana bir iltimos, ro'zg'oringizga boshqa harom-harish narsalarni aralashmang. Ismimni ruschaga o'girdim. Ikki er qildim.

Lekin hech qachon harom ishga qo'l urmadim.

- Bilaman.

- Mendan rozi bo'ling, o'g'lim. Sora sizga omonat. Sizga biroz tashvish bo'ladigan bo'ldim. Meni onamning yoniga qo'yishlaringni xohlayman. U joylar bahorda juda go'zal bo'lib ketadi. Bepoyon adirlikka joylashgan qabrston yam-yashil o't-o'lanlar, qizg'aldoqlarga ko'milib ketadi. Adirning ustida yotsangiz, butun qishloq kaftdek ko'rinib turadi. O'sha qabrstonning etagidan o'tgan anharda cho'milib katta bo'lganmiz.

- Siz xavotirlanmang, -uning ovozi titrab ketdi. - Hammasi aytganingizday bo'ladi. Faqat iltimos, meni kechiring. Men tufayli...

- Unday demang. Bu taqdiri azal.

* * *

Uning hamma marakalari qishloqda o'tdi. Janozada odam ko'p bo'ldi. Mamaraimning yoru do'stlari, hamqishloqlar, Soraning, kuyovning tanish-bilishlari, qarindosh-urug'lar... Zulfizar bilan birga ishlagan deyarli hech kim yo'q edi.

Yettidan keyin Sora yolg'iz o'zi qabristonga borib, onasi bilan xo'shlashib qaytmoqchi bo'ldi. Unga Xadicha hamroh bo'ldi:

вЂњSeni yolg'iz yubormaymanвЂќ.

Saraton ko'ksini kuydirgan bepoyon adirlik huvillab yotardi. Sora Xadichaning yelkasiga boshini qo'yib, uzoq yig'ladi. Xadicha yuragini bo'shatib olsin deb, atay uni yupatmadi. Yig'lab-yig'lab, so'ng gurungga berildi.

- Xola, onam sizni juda yaxshi ko'rardi. Erim onang qishloqqa olib borishimizni tayinladi, deganda, xafa bo'lgandim. Bir marta olib kelish tashvishi hech narsa emas, ammo yonimizda bo'lsa, sog'ingan paytlarim shundaygina uyimdan chiqib ziyorat qilib qaytaverardim, degandim. Endi qarab tursam, meni qishloq bilan, qarindoshlar bilan bog'lashni istagan ekan. Ziyorat bahona ularni ham izlaydi, degan. Yana... Siqilgan paytlari hadeb boshimga kelib, yig'layvermasin, o'zini qo'lga olsin, qattiqroq bo'lsin, degan. Bu joylarga ilgari ham ko'p kelganman. Bahor paytlari juda go'zal bo'lib ketadi.

- Ha, onang juda aqlli ayol edi, - uning sochlarini siladi Xadicha. - U o'z davrining qurboni bo'ldi. Yurt mustaqillikka erishgan bugungi kunlarning odami bo'lganida, bu sargardon ko'chalardan umuman o'tmagan bo'lardi.

- Xolajon, nega bizda mayyitlar boshqa xalq-b'larB-nikiday, chiroyli kiyintirib, mustahkam tobutlarga soB-lib ko'milmaydi? Oddiygina qilib, kafanlab ko'B-mishadi?

- Bilmadim, bolam. Odamzod asli tuproqdan bino bo'lgan va yana tuproqqa aylanadi, deyishadi. Bu jarayon yog'och tobutga nisbatan, kafanda tezroq, osonroq kechadi. Yerning ostini yog'och qutiga to'ldirishning nima keragi bor? Yer muqaddas, u bizni yelkasida opichlab, kaftida rizq tutib katta qiladi, foni duniyodan o'tganimizdan keyin ham o'z bag'riga oladi. Hech kim-na ona, na farzand murdani uyida uch kundan ortiq saqlay olmaydi. Yer esa indamay, beminnat, betama, hech qanday etirozlarsiz yaxshiga

This is not registered version of TotalDocConverter

ham, yoniga qo'ngan joy beriladi. Shuning uchun ham odamzod yerni yaxshi ko'radi, onasiga talpinganday unga talpinadi, uni Ona yer deydi, Ona deydi.

Sora atrofga qaradi. Allaqachon kuyib, qovjirab qolgan bo'lsa ham ajabtovur dala gullarining hidlari ufurib turgan bepoyon olam ko'ngliga taskin berdi. Ular o'tirgan joydan onasi tug'ilib o'sgan uy hovlisi kaftdek ko'rinib turardi. Ana, tog'asi keksa gujum tagidagi supada qishloqdoshlar bilan o'tiribdi, darvozadan yana besh-olti ayol keldi, ularni jiyanalari ichkariga boshladi...

Hatto qulog'iga Quron tilovati ham eshitilganday bo'ldi. Ko'ngli yanada xotirjam tortdi.